
1. O‘zbekiston Respublikasi —Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" T,19997 yil.
2. Sh.Qurbonov. Ta‘limning yangi qadiriylatlari. "Ma‘rifat" 25sentyabr 1999, 75-76 son.
3. M.Ochilov. O‘qituvchi odobi. T, 1997 yil.
4. Safo Ochil. Mustaqillik ma‘naviyati va tarbiya asoslari. T, "O‘qituvchi", 2003 yil.
5. A.Munavvarov. Pedagogika. T., "O‘qituvchi", 2006 yil.



## МАКТАБЛАРДА ОНА ТИЛИ ДАРSLARINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

**Jo‘rayeva Nilufar Mavlonovna**

Samarqand tuman 2-IDUM o‘qituvchisi

**G‘ayratova Guli Suhrob qizi**

Samarqand tuman 36-umumiy

o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi

zafargayratov94@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ona tili darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, interaktiv metodlardan foydalanish, o‘quvchilar ijodiy fikrlashga, tashabbuskorlikka, o‘zaro hamkorlikda ish yuritishga, fikrlarni ravon bayon etishga chorlashi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ona tili, o‘quvchi, dars, innovatsion texnologiya, metod, o‘yin masofaviy ta‘lim.

Ona tili bu har bir millatning ma‘naviyatidir. Har bir millatning yurakdan gapiradigan ona tilidir, u tarix mulki va uni to‘liq asrab avaylash ona tili mutaxassislari va o‘qituvchilar mas‘uliyatidir va uni rivojlantirish millatning yuksalishi demak.

Maktablarda ona tilni o‘qitilishi, o‘quvchilarning har tomonlama mukammal bilim olishlari uchun jiddiy e‘tibor berish talab etilmoqda. Bugungi kun talablari ichida zamonaviy texnologiyalashayotgan zamonda yangi darsliklar, turli fanlarga oid ko‘rgazmalar va ko‘rsatmali vositalar, elektron kitoblar hamda turli internet saytlari yaratilmoqda. Ona tili fanini umumiy ta‘lim maktablarida o‘qitilishiga e‘tibor kuchaydi.

Ona tili fanini maktab o‘qituvchisi olib borishda tayyor darlikdagi ma‘lumotlarni shunaqasiga o‘quvchilarga berib bo‘lmaydi. Bu darslikdagi ma‘lumotlarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga moslashtirib pedagogik kompetensiyalarni yo‘lga qo‘yish bilan ta‘lim beradi. O‘qituvchi bir xillik bilan cheklanib qolmasdan ta‘lim sifatini ta‘minlay oladigan zamonaviy texnologiyalar bilan o‘qitish usullari orqali o‘quvchini mavzuga jalb etish lozim. Bu texnologik vazifalar o‘qituvchilarning kasb mahorati va o‘quv jarayoniga qo‘shgan shaxsiy hissi, ta‘limning yuqori samaradorligi hamda sifati, o‘z bilimini muntazam takomillashtirib borishi, kasb mahorati va malakasini o‘stirishi, o‘qituvchi tomonidan ilg‘or metodlar va pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llashi uchun yaratilgan imkoniyatlar[3].

Ona tili darslarini tashkil etishda innovatsion, noan‘anaviy ta‘lim metodlaridan foydalanish mumkin bo‘lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda, shuningdek ona tili o‘qituvchisining pedagogik tajribasi, shu tajriba asosida pedagogik kompetensiyasi va mahorati asosiy o‘rinni egallaydi.

Dars jarayonida ta‘lim metodlarini darsning mazmunidan kelib chiqib tanlanadi va o‘quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlarini ham hisobga olib darsni tashkil qilib har bir dars jarayonida darsda ijodiy rivojlantirish paydo qilinishi lozim, bu esa darsda innovatsiya hosil qilish bo‘lib o‘quvchilarning zerikishini oldini oladi. Umumiy ta‘lim maktablarida ona tili fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqining o‘sishida, qolaversa mavzularni oson tushunishlariga, bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarga ona tilini o‘rgatish, ularni tarbiyalash va har doim rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyas asoslanib, barcha yaqin, o‘zaro bog‘liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o‘qitish metodikasi o‘z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar um umdidaktik tamoyillardan o‘zgacha bo‘lib, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi o‘quv m ehnatining yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Ona tilini fan sifatida o‘qitish borasida o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan: ona tili fanini o‘qitishda asosan nazariy ma‘lumotlarga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, o‘quvchining nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) kompetensiyasini oshirishga yetarli e‘tibor berilmagan; ona tili fanida o‘qitiladigan mavzular sinflar kesimida tahlil qilinganda, o‘quvchi uchun murakkab bo‘lgan ko‘plab grammatik mavzularning mavjudligi; ona tili fanini hayot bilan bog‘lab o‘tishga, ona tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, o‘quvchilarga mazmunli, sodda, qiziqarli tarzda yetkazib berishga



e'tibor qaratilmagan; o'quvchilar darsliklardagi mavzularni o'zlashtirishida qiziqish, ishtiyoq, maylni hosil qiladigan, mantiqiy, kreativ, ijodiy fikrlashga undovchi mashqlar, topshiriqlar o'z aksini topmagan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishning yangi, samarali usullari, ilg'or pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish talab darajasida emas. Ona tili fanining ilmiy metodik ta'minoti (darslik, o'qituvchi kitobi, mashq daftari, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmagan. O'qituvchi va pedagoglarning metodik ta'minotini yaxshilash, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari va metodistlari uchun masofadan o'qitish kurslari joriy etilmagan. Mavjud oliy ta'lim muassasalarida ona tili fani yo'nalishida o'qituvchi, pedagog, kadrlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi ona tili fanini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqazo etmoqda. Muhokama pedagogik texnologiyalarning maqsadi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta'minlashdir.

O'qituvchi o'quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o'qitish jarayonining asosi sanaladi. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga ma'lum va keng qo'llanadigan usullardan “Aqliy hujum”, “Klaster”, “VENN diogrammasi”, “Akvarium”, “Aqliy xujum”, “BBB”, “FSMU” kabilar dars jarayonida o'zlarining samarali natijalarini ko'rsatib kelmoqda[2.2]. O'qituvchi dars jarayonida metodlar tanlashda boshqa ma'lumotni berish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil o'qishini talab darajasida shakllantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent-2019.
2. Yo'ldosheva D. Ashurbayeva R. Ona tili ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.-T.: Turon Zamin Ziyos. 2018.
3. [http //www.znanio.ru](http://www.znanio.ru)



## BO'LAJAK IQTISODCHILARNING UMUMILLIY LEKSIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Narbayeva Malohat**

TDIU Sirtqi fakultet “Umumiy va aniq fanlar”  
kafedrası katta o'qituvchisi  
Телефон: +998977667336  
ABMN\_FAMILY@MAIL.RU

**Аннотация:** Мақола иқтисодчи кадрлари электрон ахборот муҳитида кўникма маъласини ошириш маъмуни ва сифатига қўйиладиган талаблари замонавий ёндaшувлар асосидa такомиллаштириш, касбий фаолияти давомидa даврий ва узлуқсиз методик тайёргарлигини ошириш теънологийалар масалалари баён қилинган. Шунингдек, масофавий та'лим шакллари, масофавий та'лим олиш методлари ва бу методларнинг аҳамияти ҳақида келтирилган.

**Калит со'злар:** масофавий та'лим олиш шакллари, ма'руза, консултатсиялар, лаборатория ишлари, намойиш таърибалар, назорат ишлари, муқтақил иш, вебинар, масофавий та'лим олиш методлари, хулоса, ахборот-рецептив методи, репродуктив метод.

### KIRISH

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining eng asosiy xususiyatlari - bu uning yaxlitligi, tizimlilik, davriyligi va texnologiyaviyligidir. Yaxlitlik deganda tarbiyalash va o'qitish jarayonlari, shuningdek shaxsni rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarining ajralmas birligi tushuniladi. Tarbiyalash va o'qitish, garchi ilm-fan ularni farqlasa-da, bir-biriga bog'liq va ko'p umumiylikka ega. Tarbiyaning mazmunida me'yorlar, qoidalar, qadriyatlar ustunlik qiladi. O'qitish asosan aql-idrokka ta'sir ko'rsatadi, tarbiyalash birinchi navbatda shaxsning iste'mol sohasiga aylangan. Ikkala jarayon shaxsning ongi va xulq atvoriga ta'sir ko'rsatadi va uning rivojlanishiga olib keladi. Bu o'ziga xos jarayonlar bo'lib, ilm-fan ularni tarbiya nazariyasi va didaktikada alohida ko'rib chiqadi. Bunda zamonaviy shart-sharoitlarda uslubiy tamoyil va ayniqsa dolzarb hisoblangan butun pedagogik jarayonning yaxlitligi ta'minlanadi.

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonini tizimli ravishda rivojlantirish jarayonning tuzilmasini, shuningdek ular o'rtasidagi aloqalarni ajratib ko'rsatilishini ifodalaydi. Bu har birining o'ziga xos xususiyati, mohiyatini, birining boshqasiga ta'siri natijasida o'zgarishini anglab yetishga yordam beradi. Masalan, o'qitishning maqsadi uning mazmunini belgilab beradi, o'zlashtirganlik darajasi esa o'qitish usullarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi va h.k. [1].

Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalar bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining tez takomillashishini va yangi texnologik muhitga moslashishini taqozo etadi. Moslashuvchan kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etish zamonaviy axborot texnologiyalari asosida, o'quv materiallarini yaratishning turli:

- kompyuter o'rgatuvchi tizimlarini yaratish;
- amaliy o'rgatuvchi kompyuter dasturlarini shakllantirish;
- o'qitishning turli usullari va vositalari orqali kasbiy ta'lim jarayonini shakllantirish bosqichlarida moslanuvchanlik tamoyilining bo'lishini talab etadi. Bunday tamoyil asosida tayyorlangan o'quv resurslari talabning bilim darajasi, ma-lakasi, psixologik xususiyatlari, guruhlarning o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim ber-ishning ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Kasbiy ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish - pedagogik-psixologik maqsad-larni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini tashkil etish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu jarayon zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta'lim tarbiyaning tashkiliy shakllari, omillashtirishni hamda talabning intellektual salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140 - son qarori. www.lex.uz. Xalq ta'limi tizimi rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning maъласини ошириш маъмуни ва сифатига қўйиладиган Davlat talablari ("O'zstandart" Davlat agentligida 2013 yil 5 martda O'zDSt 2767:2013



3523-qayd raqami bilan ro'yxatga olingan).- Toshkent, 2012, 250 b. Karimov I.A. Tinchlik va xavssizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. -Toshkent: O'zbekiston, 2004. - 400 b. V.A.Adolf Teoreticheskiye osnovi formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya: dis. ped. nauk. M., 1998. 356 s. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 27.07.2017y. PQ-3151, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. - T.: 2006. - 182 b. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Noshir. 2009, 368b. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: "Moliya", 2003, -B.192. Атутов П.Р., Ложкин В.М. Подготовки преподавателей для профессиональной подготовки учащихся // Сов. Педагогика. - Москва, 1985. - №2. - С.54-57. Авазбоев А. И. Совершенствование подготовки учителей трудового, и профессионального обучения на основе интеграции содержания учебных предметов. Автореф. канд. пед. наук — Т.: 2001. - 21 с.

#### МУНОКАМА

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonining rivojlantiruvchi vazifalarga yo'naltirilganlik tamoyiliga ko'ra, talabalarda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirayotib, aniq bir mavzu bo'yicha darsning rivojlantiruvchi salohiyatidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq [1]. Talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilishning asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarini aniqlash, takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish va shu asosda talabalar uchun faol ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati bilan, ya'ni o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, nazoratning asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarni o'rganish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchidan esa, bu maqsad talabalarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijodiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Talabalar o'qishini nazorat qilishning boshqa bir muhim vazifasi ularni tarbiya qilish bilan bog'liq bo'lib, ularda o'qishga javobgarlik, intizom, sarajomlik va soflik his-tuyg'ularini tarbiya qiladi. Ularda mehnatga layoqatlilikni, g'urur va irodani hamda mehnatga nisbatan muntazam ko'nikmani shakllantiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining kasbiy ta'lim tizimida qo'llanishi mavjud bo'lgan ayrim tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shu bois kasbiy ta'lim jarayonlarini tashkil etishda kompleks yondashuvni amalga oshirish boshlandi. Ta'lim va tarbiya ishlar jarayoni murakkab jarayon bo'lib, unda ta'lim muassasasining jamoasi, murabbiy va talabalarining o'zaro munosabatidagi yaxlitlik ta'minlanadi. Endilikda ushbu jarayon elektron formatdagi o'quv resurslari - rasmiy veb-saytlar, elektron formatdagi adabiyotlar, audio va video materiallar, o'rgatuvchi kompyuter dasturlari bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu vaziyatda kasbiy ta'lim jarayonlari ko'proq talabaning ichki imkoniyatlari, intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish qobiliyatlariga bevosita bog'liq bo'lmoqda.

Elektron formatdagi o'quv resurslarining afzalliklari qatoriga axborotlarning jamlanganligi, ko'rgazmaliligi, ya'ni turli xil taqdim etish imkoniyatlarining mavjudligi, animatsiyalardan foydalanganligi, ta'lim oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos axborotlarni taqdim etib borish jihatlari kiritish mumkin. Bu resurslar talabada ijodiy fikrlashni, kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish orqali resurslarni har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonlariga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishda asosiy vazifalar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- yangi axborot texnologiyalarini kasbiy ta'lim jarayoniga tatbiq etishning zaruriy moddiy-texnika bazasini yaratish;
- kasbiy ta'lim jarayoni uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini loyihalash va qo'llash;



- foydalanuvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
  - zamonaviy texnologiyalar negizida kasbiy ta'lim jarayonlaridagi samaradorlikni kafolatlash.
- Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1-jadval

№ Bosqichlar mazmuni Kutiladigan natija

1. Kasbiy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning mavjud holatini tahlil qilish va baholash Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning mavjud holati haqidagi dastlabki xulosalar olinadi

2. Kasbiy ta'lim moddiy-texnik bazasini takomillashtirish yo'llarini belgilash Kasbiy ta'lim jarayonlarining moddiy-texnik bazasi takomillashtiriladi

3. Kasbiy ta'limga oid elektron resurslarni yaratish bo'yicha ijodiy guruhlar faoliyatini tashkil etish va vazifalarini belgilash Resurslarni yaratish bo'yicha ijodiy guruhlar shakllantiriladi, vazifalar belgilab beriladi

4. Kasbiy ta'limga oid elektron resurslarni yaratish va foydalanish uchun tayyorlash Kasbiy ta'limga oid elektron resurslar yaratiladi

5. Elektron resurslardan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish Elektron resurslardan foydalanish mexanizmi ishlab chiqiladi

6. Kasbiy ta'limga oid elektron resurslardan foydalanish samaradorligi monitoringini tashkil etish Kasbiy ta'limga oid elektron resurslardan foydalanish monitoringi tizimi yaratiladi

1-jadvalda bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishda samarali foydalaniladi;

- bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning zamonaviy vositalari - elektron resurslarni joriy etish tizimlari yaratiladi.

Kasbiy ta'lim bo'yicha elektron resurslarni yaratishdagi didaktik tamoyillarga tayaniladi: ta'lim jarayonining kasbiy yo'nalganligi; texnologik dunyoqarashni shakllantirish; ilmiylik; tushunarliklik va qiziqarlilik; amaliyot bilan bog'langanlik; talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish; kasbiy ta'limning uzviyligi va uzluksizligi; aniq va abstrakt tushuncha va faktlarning birligi; bilimlarni ongli rav-ishda o'zlashtirish; ko'rgazmalilik.

Ishlab chiqilgan elektron resurslarni kasbiy ta'lim jarayoniga qo'llashdan oldin mutaxassislar guruhi uni o'rganadi. Bizning fikrimizcha, yaratilgan elektron resurslarning ilmiylik va taqdimot sifatini baholashda quyidagi holatlarga tayangan tizimni taklif etish mumkin:

- kasbiy ta'lim maqsadiga mosligi;
- o'quv faoliyati bayoni;
- axborotlarni taqdim etish darajasi;
- manba tuzilishi;
- ko'rinishi va dizayni;
- qo'shimcha illyustratsiya.

Elektron resurslar muayyan yo'nalishda bilimlar berishdan tashqari talabalarda kasbiy fanlarga oid tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak [4].

Elektron resurslar kasbiy ta'limning kundalik turmush va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'lanishini amalga oshirishi, hozirgi zamonda, tabiat va jamiyatning ilmiy muammolarini tushunishda talabalarga ko'maklashishi, ularni rivojlantirishi lozim. Shuningdek, talabalarda o'z bilimlarini uzluksiz takomillashtirish va mustaqil bilim olishni davom ettirish imkoniyatlarini yaratishga yordam berishi kerak [3].

Ta'lim-tarbiya elektron resurslarining yaratilish jarayonini quyidagi bos-qichlarga bo'lish mumkin:

1. Ta'lim-tarbiya elektron resurslarini yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish.
2. Loyihalashtirish.
3. Taqdim etish shakllari va axborot bloklarining dizayni (interfeys).



4. Ta'lim-tarbiyaviy resurslarni joylashtirishga tayyorlash.
5. Tayyorlangan resurslarning tuzilmali elementlarini to'ldirish.
6. Yaratilgan ta'lim-tarbiya elektron resurslarini tajribada sinash.
7. Elektron resurslarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

Kasbiy ta'lim elektron resurslarini yaratishda quyidagi talablar e'tiborga olinadi:

- resurslarning to'liqligi, uzviyligi va kasbiy ta'lim mazmuniga mosligi;
- kasbiy ta'lim o'quv jarayonini individuallashtirish darajasi (yakkalashtirish);
- kasbiy ta'limning uzviyligi va izchilligini hisobga olish zarurligi;
- resurslarda zarur bo'lgan axborotlarning taqdim etilishi shakllari;
- resurslarni tez moslashuvchan va yangilab borish imkoniyatlari;
- asosiy bloklar va ular orasidagi o'zaro aloqa usullarining tarkibi.

Tatbiq jarayoni pedagogik va dasturiy darajalarda amalga oshiriladi. Pedagogik tatbiq darajasi resurslar va ulardan foydalanish harakat algoritmini o'z ichiga oladi.

Dasturiy tatbiq darajasi bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining har bir bosqichida resurslardan om-maviy foydalanish darajasini aniqlab beradi. Dasturiy tatbiq darajasida resurslar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- jarayonda qatnashuvchilarning barchasiga tushunarli bo'lishi;
- kasbiy ta'limning istalgan bosqichida tizimning har bir qadamini yetarlicha aniq yoritishni ta'minlashi;
- kasbiy ta'lim jarayonining har qanday bosqichida, hatto eng murakkab bo'g'inida ham adekvat ta'sirga ega bo'lishi;
- o'quv jarayonining barcha bosqichlarida psixologik-pedagogik o'ziga xoslikni hisobga olish;
- boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqa imkonini ta'minlash.

Elektron resurslarini tizimlashtirish - mazmun, uslub, tashkiliy, shakl va axborot texnologiyalari vositalarining tahliliga yangicha yondashuvni talab qiladi.

Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishning samaradorligiga quyida keltirilgan shartlar bajarilgandagina erishish mumkin:

- o'quv jarayonini axborotlashtirishning o'zi kasbiy ta'lim maqsadini o'rnatishdan tortib, yakunlash natijasigacha bo'lgan bosqichlarni loyihalashtirish tizimi sifatida namoyon bo'lsa;
- kasbiy ta'lim jarayonining axborotlashtirilishi uning barcha tashkil etuvchilariga yo'naltirilgan bo'lsa;
- elektron resurslardan foydalanish kasbiy ta'lim mazmuniga qo'yilgan talabga hamda talabaning kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lsa.

O'quv jarayonida individual yondashuvni tatbiq qilish ta'limning rivojlanuvchi modelini o'z ichiga olishi kerak:

- mantiqiy va tizimli fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish: ijodiy fikrlovchi qarama-qarshiliklarni ko'ra olishga layoqatli, shuningdek, mustaqil ravishda muammolarni qo'ya oluvchi va hal qila oluvchi mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlashi;
- tizimli qaytar aloqani ta'minlash: qaytar aloqa pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilishi kerak, ya'ni u nafaqat yo'l qo'yilgan xatoliklar haqida, balki ularni bartaraf etish borasidagi axborotlarni ham o'z ichiga qamrab olishi;
- rivojlangan yordam tizimining mavjudligi: yordam tizimi ko'p darajali, pedagogik nuqtai nazardan asoslangan, masalaning ifodalari va uni yechish usulining o'zlashtirilishi uchun yetarli bo'lishi;
- ta'limiy resurslarning to'liqligi: axborotlar bazasi, vazifalar bankini ko'p darajali tashkil etishning mavjudligiga oid qo'yilgan talablarga rioya qilish;
- intellektual yadroning mavjudligi: dasturiy vositalar bunday yadroning ekspert tizimlari va sun'iy intellekt vositalarini qurishda berilganlarni qayta ishlash usullarini tatbiq qilish hisobiga ta'minlash;
- pedagogik moslashuvchanlik: resurslar foydalanuvchiga faoliyat strategiyalarini ixtiyoriy tanlash, axborotlarning uzatilish tezligiga mos faoliyatni tashkil etish hamda mustaqil qaror qabul qilishga imkon berishi kerak. Avval o'zlashtirilgan resurslarga kirish, ulardan ixtiyoriy vaqtda chiqish imkoniyati ta'minlangan bo'lishi;
- ikki tomonlama muloqotni ta'minlash: foydalanuvchi savol bera olish imkoniyatiga ega



bo'lishi kerak, bunda boshqarish nafaqat kompyuter tomonidan, balki o'rganuvchi tomonidan ham amalga oshirilishi;

- orqaga qaytish imkoniyati: mustaqil ishlash davomida foydalanuvchi yo'l qo'ygan xato harakatlarini ortga qaytarish hollari ko'rib chiqilgan bo'lishi;

- foydalanuvchining refleksiya uchun maxsus ajratilgan joyning mavjudligi: dastur o'rgatilayotgan harakatlarni ketma-ket to'g'rilash maqsadida refleksiyaning natijalarini to'plashi;

- o'quv faoliyatining borishini va uning natijalarini hujjatlashtirish imkoniyati: dasturni tuzuvchi dasturga zaruriy axborotni to'plashi va qayta ishlashiga mo'ljallangan modullarga ega bo'lishi;

- tushunarli, qulay interfeysning mavjudligi: dastur axborotni matn, grafika, animatsiya, gipermatn, multimedia ko'rinishida namoyon qilishning barcha usullaridan adekvat foydalanilgan holda tuzilgan bo'lishi kerak. Foydalanuvchi axborot materialini har ikki tomonlama, "oldinga", "orqaga" tarzda varaqlash imkoniga ega bo'lishi kerak. Foydalanuvchi shriftning o'lchami va tipini o'rnatish, shuningdek, ixtiyoriy fragmentni istalgan marotaba qaytarish imkoniga ega bo'lishi;

- dasturning statistik (matnli, grafik, illyustrativ) qismlarining aniq nusxasini olish imkoniyatini ta'minlash: tanlangan axborotni shaxsiy elektron konspektga nusxalash, uni tahrirlash va dasturiy mahsulotdan chiqmagan holda chop etish imkoniyati.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140 - son qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2. Xalq ta'limi tizimi rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablari ("O'zstandart" Davlat agentligida 2013 yil 5 martda O'zDSt 2767:2013 3523-qayd raqami bilan ro'yxatga olingan).- Toshkent, 2012, 250 b.

3. Karimov I.A. Tinchlik va xavsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. - Toshkent: O'zbekiston, 2004. - 400 b.

4. V.A.Adolf Teoreticheskiye osnovi formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya: dis. ped. nauk. M., 1998. 356 s.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 27.07.2017y. PQ-3151, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda

6. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. -T.: 2006. - 182 b.

7. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Noshir. 2009, 368b.

8. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: —Moliya", 2003, -B.192.



## DIFFERENT WAYS OF TEACHING GRAMMAR TO YOUNG LEARNERS

**Mamanazarova Nurjakhon, Jo'raboyeva Mushtariy**

Students of the Faculty of Tourism  
Chirchik State Pedagogical Institute  
Scientific supervisor: Sohila Aminova

**Abstract:** In learning language, grammar is the most important, because it is at the center of both our spoken and written communications, and allows us to be clearly understood by others. Using grammar poorly can result in messages being unclear, which affects our ability to communicate, and can hinder relationship building – an important skill for youngsters to develop. Having more complex language allows children to make meaning from what people say, and engage with new concepts. These are relevant for early numeracy, science, and literacy (and other disciplinary) knowledge, as well as for equipping children to share their own thoughts and feelings. In learning one language, the grammar is important because it is the language that makes it possible for us to talk about language. Grammar names the types of words and word groups that make up sentences not only in English but also in any language.

**Key words:** Language, grammar, methods, young learners,

As human beings, we can put sentences together even as children — we can all do grammar. Learning proper grammar is important because it is the language that makes it possible for us to effectively talk about language. Grammar names the words and word groups that make up sentences not only in English but in almost any language. As humans, we can put sentences together even as children. But to be able to talk about how sentences are built, about the types of words and word groups that make up sentences—that knows grammar. With this, knowing about grammar opens a window into the human mind and into our amazingly complex mental capacity of knowing and learning a specific language. We always associate grammar with errors and correctness. But keep in mind, knowing about grammar also helps us understand what makes sentences and paragraphs clear and interesting, pleasant and precise.

In our everyday lives, grammar is everywhere. We use it at home, in school, at work, and in the streets. It is the core of a language regardless of one's culture, mastery and understanding of it. Being able to use grammar also widens one's vocabulary. It opens doors of opportunities for us to be able to communicate freely, with no barriers and hesitations. In teaching, grammar plays a vital role in how effectively a teacher conveys his lessons. Knowing the highs and lows of the language could make or break a lesson. In one instance, a teacher could adjust the level of difficulty of words to be used if he is familiar with grammar. This could lead to a more enjoyable experience for both teachers and students. One more thing, being able to express yourself confidently as a teacher with the right grammar commands respect and positive outlook from your students. Mastering proper grammar could inspire your students to also strive harder in learning the language.

Use actions: Children often learn best with a “multi-sensory”: approach, so we teach a different action for each part of speech,’ says Sara Wenham, teacher and co-founder of the Jolly Grammar scheme. For example, children touch their forehead with all five fingers for a common noun (such as ‘chair’ or ‘car’), and pump their arms backwards and forwards as if jogging for a verb (such as ‘walk’ or ‘listen’) – you’ll find the full list of actions on page 11 of the free online Jolly Grammar Guide.

Get your sentences in order: For younger children, write the words of a simple sentence – such as, ‘A duck swims on the pond.’ – On individual slips of paper, and get them to put the words in the correct order, with a capital letter at the beginning and a full stop at the end.

Keep it simple: Grammatical terms can be confusing, so it helps to simplify the terminology,’ says literacy consultant John Bald, who provides free advice to parents. ‘I refer to articles (a, an, the) as “companion words” – because all words need a little friend – and group adjectives and adverbs together as they both “add” something to a noun. Another thing to highlight is that not all verbs are “doing words” – it is confusing to say that they are, as the verbs to be and to have, the most common, do not "do" anything! My way of explaining this is to think of things that obviously do not do anything – for example, the dog is dead, my shirt has a hole in it – and to practice picking verbs out. It causes a lot of confusion later if children think all verbs have to do things.



Read what is around you

‘Grammar is all about pattern, and patterns are everywhere in the world, so use them as a starting point to talk about grammar,’ suggests education consultant Geoff Dean. ‘For example, the names of hairdressers’ shops and the slogans on the sides of lorries can teach children a lot about language and meaning.’

Be colourful

Montessori teachers – and the Jolly Grammar scheme – both allocate a colour to each specific part of speech:

- Nouns: black
- Pronouns: pink
- Adjectives: blue
- Verbs: red
- Adverbs: orange
- Conjunctions: purple
- Prepositions: green

To help your child get to grips with parsing – analyzing a sentence in terms of its parts of speech – type some sentences on the computer and get him to highlight each part of speech in the correct colour,’ says Sara. You can also do this on paper with felt tips.

**References:**

1. Block, D. (2003) *the Social Turn in Second Language Acquisition*. Edinburgh: Edinburgh University Press.
2. Cook, G. (2010) *Translation in Language Teaching*. Oxford: Oxford University Press.



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

**Hayitova Nafosat Qanahatovna,**  
 Navoiy viloyati, Xatirchi tumani  
 17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchi  
 Telefon: +998 99 624 05 79

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qiziquvchanlik, o‘tkir zehnilik, mustaqillik, ijodga intilish qobiliyatlarini shakllantirish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ijodiy tafakkur, pedagogik tizim, muammoli o‘qitish, tahlil, aqliy fikrlash, masala, misol, hisoblash usul, tadqiqotchilik, tashabbuskorlik.

O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga nisbatan qiziqishlarini orttirishda ularning mustaqilligi va faolligini ta‘minlash, ijodiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan bilish jarayonini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda o‘quvchilarning bilim salohiyatini oshirishga erishish, ularning erkin mushohada yuritishlariga ko‘maklashish ehtiyoji, avvalambor, o‘qituvchilar tomonidan qondirilishi kerak. Mustaqil ijodiy tafakkurning rivojlanishi o‘quv jarayonida o‘quvchini izlanishga undaydi. Bunda shaxs fikrlash faoliyatining eng muhim jihatlari namoyon bo‘ladi. Bunday sharoitda o‘quvchilar faol izlanadilar hamda evristik xarakterdagi yechimlarni topishga harakat qiladilar.

Buning uchun o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish lozim. O‘quvchi- larda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ma‘lumotlarni tahlil qilishning obyektivligi muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirishda quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirishning didaktik (ta‘limiy) sharoitlarini yaratish;

- o‘quvchilarning ijodiy fikrlashiga qo‘yilgan talablarni aniqlash.

O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishda muammoli o‘qitish metodi ham samarali natijalarni beradi, chunki ta‘limda muammoli yondashish o‘quv dasturlari- da, o‘qituvchi bilimlarini bayon qilishda, o‘quvchilarning mustaqil ishlarida ham o‘z ifodasini topadi.

Muammoli ta‘limda o‘qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunini tushuntira borib o‘rganilayotgan mavzu materiali bilan o‘quvchilar orasida muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga keltiradi, o‘quvchilarni faktlardan xabardor qiladi, natijada o‘quvchilar bu faktlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar va umumlashtiradilar, tushuncha, qoida va teoremlarni o‘qituvchi yordamida aniqlab ifoda qilinishi yoki ma‘lum bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llanishini o‘rganadilar, natijada o‘quvchilarda aqliy fikrlash va bilimlarni amaliyotda qo‘llanish malakalari shakllanadi.

Boshlang‘ich sinf matematika kursida o‘rganiladigan nazariy mavzu materiallari, masala va misollarni ularning mazmuniga ko‘ra muammoli va muammoli bo‘lmagan turlarga ajratish mumkin.

Agar o‘rganilayotgan mavzu materialidagi masala va misollari yechish jarayoni o‘quvchilar uchun yangi matematik tushuncha, dalil va qoidalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, avvalgi usul bilan yechish mumkin bo‘lmasa-yu, yechishning yangi usullari talab etilsa, u holda bunday masala yoki misol mazmunan muammolidir. Aksincha, shunday masala yoki misollar o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga yechish uchun berilishi mumkinki, bunday masala va misollar o‘quvchilar uchun muammoli bo‘lmay qoladi, chunki ular masala va misol yechilishining yangi usullarini mustaqil izlanmasdan, o‘qituvchining tushuntirishiga qarab o‘zlashtirib oladilar, berilgan masala yoki misol faqatgina koeffitsentlari bilan avvalgilaridan farq qiladigan darajada bo‘ladi.

Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga quyidagi misollarni berish mumkin:

$$6 + 2 \times 3 = 24$$

$$6 + 2 \times 3 = 12$$

Mazmuniga ko‘ra bu masala muammoli bo‘ladi, chunki bir xil toifadagi ikkita misol hap xil natijaga ega bo‘lyapti. Bas, shunday ekan, misollarni yechish usullari ham har xil bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga esa faqatgina bitta ketma-ket hisoblash usuli ma‘lum, xolos. Ikkinchi usuli esa ular uchun noma‘lumdir. Mana shu yerda muammoli vaziyat hosil bo‘ladi. Yuqoridagi qo‘yilgan misollarning ikkinchi sinfdagi yuqori o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar tomonidan yechilishi mumkin.



Agar o`qituvchi dastlab o`quvchilarga bir xil miqdorlardan tuzilgan misollarni turlicha usullar bilan yechish namunalarini ko`rsatgan bo`lsa edi, ular bu misollarni namunadan foydalanib yecha oladilar, natijada bu misollarni yechish jarayoni hech qanday muammoli vaziyatni hosil qilmaydi.

O`qitishning muammoli topshiriqlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish-o`quvchilarning mustaqil tadqiqotchilik faoliyati oshirish bilan birga tashabbuskorlik tuyg`ulari ortib, o`quvchilar o`z-o`zini boshqaruvi amalga oshadi, yaratuvchanlikka undaydi, yaratuvchanlikni o`rgan-gan bola boshqa har qanday sohaga hech qiyinchiliklarsiz erishadi.

Xulosa qilib aytganda, o`quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishda qo`llani-ladigan usullardan biri-muammoli ta`lim metodi bolalarda qiziquvchanlik, o`tkir zehnilik, mustaqillik, o`qishga qiziqish va ijodga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro`ziyeva D.I. Pedagogika. Psixologiya. T.: “IJOD-PRINT” 2019-y.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. Toshkent. “Fan va texnologiyai” , 2005-y.
3. WWW. Ziyonet va boshqa internet manbalari.



## МЕДИАТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ МЕХАНИЗМИ

**Неъматова Мақсуда Эркин қизи,**

Тошкент шаҳар Олмазор тумани 119-мактаб  
инглиз тили фани ўқитувчиси

Педагог олимлар медиа таълим хорижий тилларни ўрганишнинг хусусиятларини инобатга олган ҳолда ўқувчиларда тушунарли, эса қоларли бўлишини таъминловчи таълим усули эканини эътироф этганлар.

Ўқувчи ўқитувчининг оғзаки маърузасидан кўра кўргазмали воситалардан фойдаланиб тушунтиришидан кўпроқ таъсирланар экан. Ана шунда улар етказилаётган мавзунини кўпроқ ёдида сақлаб қолади. Ўқувчиларда бундай дарсларга нисбатан қизиқиш юқори даражада бўлади.

Демак, хорижий тилларни ўқитишда бундай илғор усулдан фойдаланиш фойдадан холи бўлмайди. Медиа таълим педагогикадаги янги йуналиш бўлиб, телевидения, Интернет сайт ва порталлари орқали аудио-видео материаллар ва мультимедиа воситалари асосида ўқитишга асосланади.

Мультимедиа воситалар деганда бир вақтнинг ўзида ҳаракатланадиган тасвир, видеофильм, анимацияли график образлар, матнли товушлар уйғунлигида амалга ошириш имконини берувчи интерфаол воситалар тушунилади. Мультимедиа ўқув материали босма материал, товушли, видеоли ва анимацион элементларни ўзида мужассамлаштирган ўқув материалидан иборат бўлиб, табиийки, бу атама компьютер хотирасидаги ёки дисклардаги маълумотларга нисбатан ишлатилади. Электрон таълим ресурслари борасида унумдорликни ошириш мақсадида педагог- кадрлар уларга расмлар, фотосуратлар, товушли фрагментлар ва албатта, анимация ва видео киритишга ҳаракат қилади. Ресурс ва технологияларга мувофиқ тавсифланувчи замонавий сўз “мультимедиа” таълимда кенг ёйилди ва педагоглар томонидан ўз ишларини амалга оширишда кенг фойдаланилмоқда. Мультимедиа тизимларининг юзага келиши инсон фаолиятининг кўпгина жабхаларида инқилоб ясади.

Мультимедиа технологиялари узининг энг кенг қўлланилиш соҳаларидан бирини таълим доирасида қўлга киритди. Мультимедиага асосланган ахборотлаштириш воситалари бир қатор имкониятлари билан таълим самарадорлигини сезиларли оширишга қодир бўлиб қолди. Шунини тушуниш муҳимки, бошқа кўпгина сўзлар каби “мультимедиа” сўзи ҳам бирварақайига бир неча турли маъноларга эга.

Мультимедиа - ишлаб чиқариш тартиби, турли типдаги ахборотларни қайта ишлаш воситаларини ишлатиш ва татбиқ қилишни тавсифловчи технологиялар, турли типдаги ахборотларни қайта ишлаш ва тақдим этиш технологиялари асосига қурилган ахборот ресурси; турли типдаги ахборотларни қайта ишлаш ва тақдим этишга боғланган ҳолда ишлайдиган компьютер дастурий таминоти; турли типдаги ахборотлар билан ишлашга имкон берадиган компьютер аппарат таъминоти.

Анъанавий статик визуал (матн. графика), шу билан бирга динамик (нутқ мусиқа аудио-видеофрагментлар, анимация ва хк.) характерли турли типдаги ахборотларни ўзида бирлаштирувчи ахборотнинг ўзига хос умумлаштан қуриниши. Демак, кенг маънода “мультимедиа” термини фойдаланувчига (бир вақтнинг ўзида ҳам мутоала қилувчи ҳам эшитувчи, ҳам кузатувчи бўлган) янада самарали таъсир кўрсатиш мақсадига йўналтирилган турли хил дастурий ва техник воситаларни қўллайдиган ахборот технологиялари спектрини ифодалайди.

Мультимедиа воситалари ва технологиялари аудиовизуал ахборотларни замонавий қайта ишлаш усуллари татбиқ қилиш билан таълимни унумдорлигини ошириш ва таълим олувчиларнинг ўқишга бўлган қизиқишини янада орттириш имкониятларини яратади. Ахборотлаштириш воситаларида мультимедианинг қўлланилиши туфайли график, товушли ва видеоли ахборотларни бир вақтда таъсир кўрсатиши ҳисобига бундай воситалар катта таъсир кучига эга бўлиб, кўнгилоҷар воситалар саноатида, турли хил идоралар касбий амалиётида, уйда бўш вақтда, таълимда фаол тарғиб этилади.

Мультимедиада интерактивлик - хорижий тилни ўрганувчи қабул қилинган ахборот натижасида берилган топшириқни бажариши ва унга ресурсларнинг ўқитувчининг муносабати



сифатида тескари (қайта) алоқа билдириш ҳолатини англатади. Интерактивликни қўллаш мультимедиа воситасини ижобий томонларидан бири ҳисобланади.

Мультимедиа технологиялари ахборотларни кўпгина кўринишларини маъно жиҳатидан ва ўзаро монандлик асосида бирлаштиришга имкон беради. Бу эса компьютер ёрдамида ахборотни таълимда тез-тез фойдаланиладиган қуйидаги хилма-хил шаклларда тақдим қилишга имкон беради: сканерланган фотосуратлар, чизмалар, хариталар ва слайдларни ўз ичига оладиган тасвирлар; товуш ёзуви, товушли эффектлар ва мусика; видео, мураккаб видеоэффектлар; анимация ва анимацияли ўхшатишлар. Кўпинча диалогда икки томон иштирокидаги ахборот алмашинуви назарда тутилади. Фанда диалогнинг кенгроқ тушунчаси учрайди, унинг асосий аломати суҳбатдошларни нутқий хабарлари алмашинуви эмас, балки бир неча фикрларни мавжуд бўлиши ҳисобланади. Таълим берадиган мультимедиа ресурси билан ишлашнинг муаммаллик кўрсаткичи деб ўқитувчи билан битта таълим олувчи диалогига мувофиқ келувчи ягона ўзаро алоқани ҳисоблаш мумкин. Диалогни тавсифлайдиган асосий психологик омиллар сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

- Диалог куришнинг умумпсихологик тамойиллари;
- Мулоқот жараёнини ташкил қилиш;
- Тилшунослик нўқтай-назаридан (мулоқот тилини танлаш, хабар матнини тузиш, унинг шакли, улчами ва х к);
- Мулоқотнинг модаллиги (ахборот баён қилиш ва таълим олувчилар жавобининг тури);
- Мулоқотнинг мазмуни жиҳати.

Мультимедиа воситаларининг интерактивлиги ўқитувчи ва таълим олувчилар томонидан таълим жараёнига таъсир этиш имкониятларининг кенг доирасини ва ўқув материаллари таркибини тўлдириш кўзда тутаяди.



## EFFECTIVE WAYS TO TEACH ENGLISH FOR VISUALLY IMPAIRED LEARNERS

**Nurmuratova Dilafruz Khaydarovna**

The teacher of the department of Integrated English Course 2  
Uzbekistan State World Languages University

### ABSTRACT

The article describes issues based on analyzing effective and challenges to teach English for visually impaired learners. Reduced vision does not allow many students to correctly identify objects and observe natural phenomena, people's lives. In this regard, their ideas about the environment are impoverished and often fragmentary. The information received with the help of defective vision is poorly fixed in memory. In this article we discussed how to deal with these problems and suggested scientists views on it.

**Keywords:** vision, visually impaired learners, education, language.

The formation of an accessible educational environment requires compliance with the rules, since students with are a special group of students. Training should take place in specially equipped rooms that will guarantee safety. A student with disabilities can receive a full-fledged education only in schools where adapted courses and correctional schemes are used. There is a possibility of sending students with disabilities to ordinary educational institutions, where they can study equally with their peers [2].

Taking into account the difficulties in perceiving cinema images, preparatory work should be carried out with visually impaired students before showing a picture or tables.

Students with high myopia, nystagmus, and optic nerve atrophy experience the greatest difficulties in presenting new vocabulary and visualization.

At lessons on learning new vocabulary, the forms of preliminary work can be different: reading texts on the topic in native language, preliminary explanation in English or Russian, using students' knowledge of other subjects, students' observations of objects or phenomena in real life, soundtrack of the picture, illustrations that reveal its meaning, sketches of characters, etc.

For example, the topic "City". Before presenting the topic of the lesson, let the students listen to the sound task: "sounds of the street" in order to set them up, clarify their ideas about the topic of the lesson. Ask students to remember the words on this topic in English. After that, show them visual aids with cityscapes.

Shuningdek, ta’limiy o’yin mashg’ulotlari bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalashda ma’lum bir ahamiyatga ega. Ularda sekin- astalik bilan tengdoshlari o’rtasida faoliyat ko’rsatish, ta’sir o’tkazish malakalari hosil bo’lib boradi. Avval boshqa bolalarning yonida ularga xalaqit bermasdan, o’yinchoqlarini tortib olmasdan, o’zi ham boshqa narsalarga chalg’imasdan nimadir qilishni o’rganadi. So’ngra boshqa bolalar bilan birgalikda (hamkorlikda) faoliyat ko’rsatishga o’rganadi: o’yinchoqlarni, suratlarni, hayvonlarni birga ko’radilar, birgalikda raqsga tushadilar, yura- dilar va hokazo.

Shuni yaxshi esda tutish kerakki, mashg’ulotlar bolalarda yaxshi kayfiyatni vujudga keltirishi lozim. Bolalarda mashg’ulot vaqtida vujudga kelgan yaxshi kayfiyat, quvnoqlik his-tuyg’ulari bolaning ilk yoshdagi davrida nutqning muvaffaqiyatli rivojlanishiga zamin bo’lib, kelgusida tarbiyachi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

O’yin bola faoliyatining asosini tashkil etadigan ko’rinishlardan biridir. Bolalar kamolati yo’lida ishlab chiqilayotgan turli o’yinlar nazariyasi ta’lim-tarbiya uchun ham naqadar qimmatlidir. Jafa qadim zamondan boshlab ko’plab olimlar, tadqiqotchilar, ma’daniyat tarixchilari o’zlarining olib borgan tadqiqot ishlarida o’yinning o’ziga xosligi, uning nafaqat alohida shaxs hayoti balki jamiyat hayotida turgan o’rni va ahamiyati haqida fikrlar bildirganlar. Ular o’yinning qadrini uning shartlilikini, uning bolalar xulqini shakllantirishdagi o’rnini, muomala-munosabati chog’idagi bolaning hatti-harakatlarini aniqlab olishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Shunday qilib



o'yinni “bolalikning hamrohi” deb atash mumkin. O'yin ayniqsa maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmuni tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ishlarning ko'pchiligi o'yin shaklida bo'ladi. O'yin chog'ida bolada mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok qiladi, o'ylaydi uning holati xotirasi ko'chli ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatлари namoyon bo'ladi.

Ijodiy o'yinlar mazmunini bolalarning o'zlari o'ylab topadilar va o'z taasurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda shu o'yinga bo'lgan munosabatlarni aks ettiradilar.

Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiritiladi. Qoidali o'yinlar o'z mazmuniga qarab, bolalar yoshiga mo'ljallanganligiga qarab belgilanadi. Qoidali o'yinlarning ko'pchiligi xalq o'yinlari asosida tashkil etiladi. Bunday qoidali o'yinlarning ko'plari avloddan-avlodga tayyor holda o'tib bizgacha yetib kelgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. Xasanboeva O.U va boshqalar. «Maktabgacha ta'lim pedagogika». T., «Ilm ziyo» 2006.
3. www. Ziyo.net



## AMALIY USLUB VA UNING TURLARI

**Mamurova Miyassar Mamatovna**  
Chust tuman 2-MTT tarbiyachisi.  
Tel: 91- 353-62-81

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarga o’yinning turlari va foydali xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Maktabgacha, didaktik o’yinlar, bolalar mehnati, tabiat, predmetli o’yinlar.

**O’yin.** Tabiatning oddiy hodisa va tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o’tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma-xil o’yinlardan keng foydalaniladi. Bu o’yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o’zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o’yinlardan foydalaniladi.

**Didaktik o’yinlar.** Didaktik o’yinlarda bolalar o’zlarida tabiatdagi narsa va hodisalar, xayvonlar va o’simliklar haqida mavjud bo’lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko’pgina o’yinlar bolalarni umumlashtirish hamda turkumlashga o’rgatadi.

Didaktik o’yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o’sishiga yordam beradi, yangi sharoitlarda bolalarni mavjud bilimlaridan foydalanishga o’rgatadi, turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi, lug’atni boyitadi, bolalarda birgalikda o’ynash ko’nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda predmetli, stol-bosma va og’zaki didaktik o’yinlardan foydalaniladi.

Predmetli o’yinlar — barglar, urug’lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o’ynaladigan «Ajoyib qopcha», «Mevalar va ildizlar», «Bu butoqda kimning bolakaylari» va shu kabi o’yinlardir. Bu o’yinlar yordamida bolalar faol muloqotda bo’ladigan predmetlarning xususiyat hamda belgilari haqidagi tasavvurlari aniqlanib boyitiladi. Predmetli o’yinlar, ayniqsa kichik va o’rta yoshli guruhlarda keng qo’llaniladi. Bu o’yinlar bolalarga tabiat jismlarining o’zidan foydalanish, ularni qiyoslash, hamda ularda sodir bo’ladigan ayrim tashqi belgilaridagi o’zgarishlarni qilish imkonini beradi. Predmetli o’yinlar barcha yoshda guruhlarining biroz murakkablashtirilgan bilimlarini kengaytirish tafakkurlarini kuchaytirish hamda harakatlarini rivojlantirish o’z ichiga oladi.

Stol-bosma o’yinlari — «Yilning to’rt fasli», «Kichkintoylar», «Mevalar», «O’simliklar», «Barglarni terib ol», OKuft rasmlar va shu kabilardir. Bu o’yinlar bolalarning o’simliklar, xayvonlar jonsiz tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini o’zlashtirish, aytilayotgan so’zga qarab predmetni tasvirlash ko’nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O’yin so’z bilan birgalikda olib boriladi so’z yoki rasm idrok etilishidan oldin keladi yoki o’yin bilan uyg’unlashib ketadi. Bunday o’yinlar ozchilik bolalar bilan o’tkaziladi.

Og’zaki o’yinlar («U nima uchun uchadi, yuguradi, sakraydi», «Suvda, havoda, yerda», «Kerak-kerak emas» va shu kabilar) hech qanday jihoz talab qilinmasligi tufayli juda maqbuldir. Ular u yoki bu predmetlarning vazifalari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va bir tizimga solish maqsadida o’ynaladi. Bu o’yinlar diqqatni, zehnni, qabul qilish tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi.

Tabiatga oid o’yinlarni o’rganish barcha didaktik o’yinlar uchun umumiy bo’lgan qoidalar bo’yicha amalga oshiriladi. Kichik yosh guruhlarda dastlabki bosqichlarda tarbiyachi o’yinni bolalar bilan birga o’ynaydi, o’yin davomida u bir qoidani aytib, uni shu zahotiyiq tadbiq qiladi. Takroriy o’yinda esa qo’shimcha qoidalarni aytadi. Ikkinchi bosqichda tarbiyachi o’yinda faol qatnashmaydi, chetdan rahbarlik qilib, o’yinni boshqarib turadi. Uchinchi bosqichda bolalar mustaqil o’ynaydilar.

O’rta yosh guruhdan boshlab o’yinga o’rgatish usuli o’zgaradi. Avval tarbiyachi o’yinning mazmunini aytib, oldindan 1—2 ta muhim qoidani ajratib ko’rsatadi. O’yin davomida u bu qoidalarni yana bir bor ta’kidlaydi. O’yin harakatlarini ko’rsatadi, qo’shimcha qoidalarni beradi. Keyingi bosqichda bolalar mustaqil o’ynaydilar. Tarbiyachi o’yinni kuzatib turadi, xatolarni to’g’rilaydi, nizolarni bartaraf qiladi. O’yinga qiziqish susaygan vaqtda tarbiyachi o’yinning boshqa turlarini taklif qiladi.

O’yin mashqlari va o’yin-mashg’ulotlar. Aytib o’tilgan o’yinlardan tashqari bolalar bilan bo’ladigan ish jarayonida ko’pincha o’yin mashqlaridan («Bargiga qarab daraxtni top», «Ta’midan bilib ol», «Xuddi shunga o’xshash gulni top», «Sariq bargni olib kel» va boshqalar)



foydalaniladi. O‘yin mashqlari narsa va hodisalarni sifati hamda xususiyatiga ko‘ra farqlashga o‘rgatadi, kuzatuvchanlikni o‘stiradi.

Bu o‘yinlar butun guruh bolalari bilan yoki ularning bir qismi bilan o‘tkaziladi. O‘yin mashqlari kichik va o‘rta guruhlarda alohida ahamiyatga egadir.

Didaktik o‘yin-mashg‘ulotlar «Ajoyib qopcha», «Gul magazini» kabi o‘yinlarni o‘z ichiga oladi. Ular ma‘lum mazmunga ega bo‘lib, o‘yinmashg‘ulotlarga qiziqarlilik kiritadi. Bunda o‘qitish o‘yin qoidalari, harakatlari orqali bevosita olib boriladi. O‘yin-mashg‘ulotlardan kichik va o‘rta guruhlarda foydalaniladi, katta guruhlarda esa ular mashg‘ulotning bir qismini tashkil etadi.

Harakatli o‘yinlar. Tabiatshunoslik xarakteridagi harakatli o‘yinlar xayvonlarning hatti-harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ba‘zilarida jonsiz tabiat hodisalarini aks ettiradi. Bu «Ona tovuq va jo‘jalar», «Mushuk va sichqonlar», «Kuyosh va yomg‘ir» va shu kabi o‘yinlardir.

Ijodiy o‘yinlar. O‘yinda bolalar mashg‘ulot, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan taassurotlarni aks ettiradilar (parrandachilik fabrikasi, issiqxona va shu kabilardagi ishlar), ular haqidagi bilimlarni egallaydilar, bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanib, kattalarning tabiatdagi mehnatlarining ahamiyatini anglab oladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. Ziyomuhamedov B. Ekologiya va ma‘naviyat. T.: «Mehnat» nashriyoti, 1997.



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA GRAMMATIK VOSITALARNI NUTQDA QO'LLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH

**Matkarimova Gulsora Yusufjonovna**  
To'raqo'rg'on tuman 29-MTT tarbiyachisi.  
Tel: 94- 086-83-85

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga grammatik vositalarni nutkda tugri ko'llashga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha, yoshdagi bolalar, lug'at, jarayon, grammatik vositalar.

Lug'at tilni o'rganish uchun qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika esa so'zlarni o'zgartirish me'yorlarini va ularni gapda qo'shish yo'llarini belgilaydi. Bola atrofidagilardan grammatik vositalar bilan aytilgan nutqni eshitadi. Eshitganlarini tahlil kilib grammatik tizimni o'zlashtiradi va til modulini bilib boradi. Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi grammatik vositalarga bolalarning diqqatini tortishi va o'z nutqida ma'nosini tushungan holda ishlatishni maqsad qilib olishi zarur. Bu o'rinda «Men boshlayman, sen davom et!», «O'ylab ko'r nima yetishmayapti?» kabi mashqlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Masalan, «Men boshlayman, sen davom et!» mashqi tarbiyachi tomonidan beriladigan savollar orqali amalga oshiriladi. Tarbiyachi: Men nima qilyapman?. Men sakrayapman. Men yuguryapman. Men yozyapman. Men turdim va hokazo. Bu mashqlarni tarbiyachining harakati orqali amalga oshirilsa samaraliroq natija beradi.

Bundan tashkari, bolalarga grammatik vositalarni nutkda tugri ko'llashga o'rgatish savol-javoblar orkali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bunda albatta tarbiyachining nazorati katta rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarga to'lik savol berib, to'lik javob olsagina grammatik vositani nutkda egallash malakasi xosil buladi.

Masalan, Men nimani oldim? Men olmani oldim. Men qaerga bordim? Men maktabga bordim va xakazo.

### ***To'g'ri talaffuz qilish madaniyatini shakllantirish***

Avvalom bor bola tilning tovush tizimi va tovushning to'g'ri talaffuz etish malakasini egallashi lozim. Bola kattalarga taqlid qilish va o'rganish zamirida so'zlarga urg'u berish, ona tilisining ohangli tizimini, so'zlarni talaffuz etish sistemasini o'zlashtirib boradi. Bolalarni nutqiy muloqot jarayonida xulq-atvor madaniyatiga o'rgatish, odatlantirish juda muhim (mayin ohangda so'zlash, yurish-turishi, o'zini yangi jamoada tuta bilishi, suhbatdoshiga bo'lgan do'stona munosabati va boshqalar). Bolalarga nutqiy ta'lim berish, birinchidan, ularning faol leksik nutqiga yetarli miqdorda madaniyatlilik stereotiplarni olib kirish, ikkinchidan, muloqot vaziyatlarini ko'zda tutgan holda (Kim bilan? Qaerda? Qachon? Nima uchun gapiryapsan?) zarur qoliplarni tanlay bilishga doir bilim va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi

### ***So'zlashuv (dialogik) nutqini shakllantirish.***

Bunga bolalarga qaratilgan nutqni eshitish va tushunishni bilish, suhbatni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rash kiradi. Bog'lanishli so'zlashuv nutqining darajasi bolalarning lug'at boyligi va grammatik vositalarni qanchalik egallaganlik vaziyatiga bog'liq bo'ladi. So'zlashish chog'ida bolalar madaniyatli xulqqa ega bo'lish, xushmuomala, vazmin bo'lishi kerak. Tarbiyachi bolalarga kattalarning mehnati haqida, dam olish payti va boshqalar haqida so'rab-surishtirish natijasida ko'p qiziqarli narsalarni bilib olishlari mumkinligi haqida eslatib o'tadi. Tarbiyachi bolalarning mazmunli suhbatlariga ta'sir etish, bir-birlaridan yangiliklar haqida bilib olish niyatlarini qo'llab quvvatlashi kerak. Masalan, bolalarning «Nima uchun bu tomonda sumalaklar bor, narigi tomonda yo'q?»- degan savoliga tarbiyachilardan biri quyosh tushadigan tomon issiqroq, shuning uchun erib ketadi deb sababini tushuntira boshlaydi. Boshqasi bo'lsa, bo'lak tartibda ish tutadi: «O'zing bilib ko'rchi, nima uchun shunday? Quyoshning qaysi tomonidan nur sochayotganiga, qara o'z savolingga javob topasan!».

Bolaga o'zining avvalgi tajribasidan, bilimlaridan foydalanib javob topish, eslash, fahmlab bilish, to'g'ri aqliy xulosa chiqarish uchun imkon berish ushbu masalani hal etishning asosiy yo'li shudir. Bolalarga nutqiy ta'lim berish, birinchidan, ularning faol leksik nutqiga yetarli miqdorda madaniyatlilik stereotiplarni olib kirish, ikkinchidan, muloqot vaziyatlarini ko'zda tutgan holda (Kim bilan? Qaerda? Qachon? Nima uchun gapiryapsan?) zarur qoliplarni tanlay bilishga doir



bilim va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi

Yoshi oshgan sayin bolaning muloqot doirasi kengayib boradi, muloqot vaziyatlari asta murakkablashladi. Maktabga borish bolalar uchun yangi rolning-o'quvchi rolining o'zlashtirilishi va yangi shakli – rasmiy muloqot bilan bog'liq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotidagi vaziyatlarda maktabgacha ta'lim tashkilotiga ilk bor qadam qo'yishda, mashg'ulotda, jismoniy tarbiya o'tkaziladigan va boshqa joylarda rolli pozitsiyalarni o'zlashtirish zarurati tug'iladi. Bu nutqiy xulq- atvor me'yorlarini yangi vaziyatlar bilan bog'lab o'zlashtirilishi bolaning yangi sharoitlarga moslashishiga, har bir bola kundalik hayotida duch keladigan qiyinchiliklarni (ayniqsa, notanish kishilar bilan bo'ladigan muloqoti) yengib o'tishi, tengdoshlari bilan muloqotdagi ziddiyatli vaziyatlarni chetlab o'tishga yordam beradi.

***Hikoya qilishga o'rgatish (monologik nutq).***

Monologik nutqning egallanishi bolalarni maktabga tayyorlash uchun juda muhim. Maktabda bu malaka yana ham mustahkamlanadi. Bog'lanishli nutq fikrlashning turli sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari bolaning hikoya qilib berishi so'z boyligini oshirishga, iboralar, jumalarni tuzishga, mazmunini boyitishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning bog'lanishli nutqini o'stirish ularning aqliy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. Bolalarni gapirib o'ynaladigan o'yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash. L.Mirjalolova, T., 2008 yil.
3. [www.ZiyoNet/kutubxona/maktabgacha ta'lim](http://www.ZiyoNet/kutubxona/maktabgacha%20ta%27lim).



**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSIYA VA INNOVATSION USULLAR**

**Abdullayeva Gulsara Abdikarimovna**

**Usenova Bag‘dagul Turapovna**

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

4-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

**Abdikrimova Meruyert Kurbanovna**

Navoiy viloyati Tomdi tumani

1-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu tavsiyada boshlang‘ich ta‘limda innovatsiya va innovatsion usullar haqida yoritilgan bo‘lib, unda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun zarur tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiya, tadqiqotchi, yangilik, topaloq, ixtiro, tashabbus.

Hozirgi vaqtda «Innovatsiya tushunchasi» juda keng qo‘llanilmoqda. Innovatsiya so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib (newua) - yangilik kiritish, yangilikdir, ya‘ni tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, deb ta‘riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta‘lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi. Shuningdek, umuman ta‘lim tizimi rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Innovatsiya-ma‘lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma‘lum bo‘lgan oxirgi natijadir. Tadqiqotchilar A.I.Prigojin, B.V.Sachonov, A.G.Kruglikov, N.P.Stenapov va boshqalar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o‘rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: - yangilikning individual mikrosathi.

- Alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o‘zaro ta‘sirining makrosathi.

Birinchi yondashuvda, hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g‘oya tushuniladi.

Ikkinchi yondashuvda, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta‘siri, ularni birligi, raqobati va natijada birining o‘rnini ikkinchisi egallashidir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o‘lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonining sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g‘oya tug‘ilishi yoki yangi konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish, ya‘ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.



O‘qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponenti bu refleksiya.



Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilashi va tahlil qila olishi deb qaraladi (o'z fikri va harakatlariga tashqaridan nazar. V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni qo'llash;
- kelgusida, qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;
- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va yuqori natijasini aniqlash;
- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotchining innovatsiya qobiliyatiga baho berish.



Xullas, innovatsiya va innovatsion usullar bugungi davr talabi bo'lib, o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'quvchilarning ongliligi va faolligini ta'minlash bilan uzviy bog'liq. Shuni unutmagan holda har bir darsni interfaol usullar orqali tashkil etish barchamizning asosiy vazifamizga aylanishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., "Iqtisodiyot", 2012.
2. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018-yil



## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNING ONA TILI FANINING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Abduraimova Sayyora Arslonovna**

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani  
15-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**ANNOTASIYA:** Ta‘lim tizimining boshlang‘ich bo‘limlaridan biri bo‘lmish boshlang‘ich ta‘limda ona tili fanining o‘qitish samaradorligini oshirish usullarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari haqida fikrlar yuritilgan

**KALIT SO‘ZLAR:** boshlang‘ich ta‘lim, ona tili, innovatsion metod, “Uchta predmetning nomi”, “Sinkveyn” metodi, “Geometrik alifbo” o‘yini

Dunyo imoratlari ichida eng buyugi bu – maktab. Biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari esa bu imoratning poydevori, pillapoyasini quramiz. Bilimli va intellektual rivojlangan barkamol avlod, sog‘lom muhit mavjud bo‘lgan jamoada tarbiyalanadi. O‘qituvchi dars jarayonida birinchi navbatda sog‘lom muhitni yaratishi kerak. Shundagina o‘quvchining bilim olish imkoniyatlari kengayadi. Barkamol shaxsni voyaga yetkazish va unda dastlabki bilimlarni hosil qilish umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarda mashg‘ulotlarni tashkil etish, aytib o‘tilganidek, o‘qituvchidan yuksak bilim, iqtidor, yetarli ko‘nikma va malakalarni talab etadi. O‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan dars o‘quvchining kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ta‘lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘lim bir xil usulda olib borilgan bo‘lsa, zamonaviy ta‘limda o‘qituvchi ham o‘quvchi ham o‘z oldi ga kattaroq talablar qo‘yadi, faolroq ishlaydi, intiladi. Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan darslar yoshlarning hayotiy vaziyatlarga o‘z munosabatini bildirish, intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarlarini asoslashga undaydi. Ta‘lim muassasalarining o‘quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiyalar va ularning ta‘limda qo‘llanilishiga oid bilim, tajriba o‘quvchilarning bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishini ta‘minlaydi. Avvalo innovatsiya so‘ziga to‘xtalsak. Har bir darsda o‘quv predmetning o‘ziga xos texnologiyasi mavjud. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Texnika rivojlangan davrda yashar ekanmiz, yorqin rangdagi slaydlar, multimedia ilovalaridan ham o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini ortti rishda samarali foydalanish mumkin. Harakatli, ovoqli, musiqali multimedialar bolaning diqqatini jamlaydi, xotirasini mustahkamlaydi. Quyida sizlar uchun tajriba sinovidan o‘tgan «Xarita bo‘ylab sayohat» ta‘limiy o‘yinini tavsiya qilmoqchimiz. Maqsad: o‘quvchining xotirasini rivojlantirish. O‘yinning borishi: Bu metoddan barcha fanlarda dars bosqichlarining o‘tgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni mustahkamlash qismlarida foydalanish mumkin. Quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin. Ona tili darslarida quyidagicha foydalanish mumkin: qizcha sayohatga otlanadi. Oldidan yovuz ritsar, yo‘lbars, tulki, ayiq chiqadi. Ularning savollariga javobbersagina, yo‘lida davom etishi mumkin.

“Uchta predmetning nomi”

Maqsad: tafakkurning umumlashtirish jarayonini rivojlantirish. O‘yinning borishi: o‘qituvchi va bolalar davra bo‘lib o‘tiradilar. O‘yinni olib boruvchi qoidani tushuntiradi:

– Men hozir bir so‘z aytaman, siz shu so‘zga mos keladigan 3 ta so‘z to‘plashingiz kerak. Masalan: mebel: stol, stul, divan. Gul – atirgul, chinnigul...

O‘quvchilar bu o‘yinni o‘zlashtirgandan keyin unga o‘zgartirish kiritish mumkin yoki avval tarkibiy so‘zlarni aytishi, undan keyin umumiy so‘zlarni topishi kerak. Cho‘mich, qoshiq, qozon – oshxona buyumlari. Bu o‘yindan ona tili vamatematika darslarida foydalanish mumkin. O‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik o‘yinlar ahamiyati katta. Bularning barchasini amalga oshirish esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga bog‘liq.

“Geometrik alifbo” o‘yini Bu o‘yin uchun geometrik shakllar kerak bo‘ladi. Geometrik shakllar yordamida alifbo hosil qilib olinadi. Geometrik shakllar har xil rangda bo‘ladi. Shakllar tagiga



harflar yoziladi. Shu harflar yordamida soʻz tuzadilar. Bu oʻyin ham guruhlarda oʻtkaziladi. Oʻquvchilarni geometrik shakllarni bilishi, ranglarni farqlashga oʻrgatadi. Oʻquvchilar oʻzi topgan maqollar mazmunini tushuntirib beradilar. 1. Sabrning tagi oltin 2. Dangasadan hamma bezor. 3. Qolgan ishga qor yogʻar. Har bir dars yangicha koʻrinishda va yangicha talab boʻyicha oʻtilishi kerak. Buning uchun oʻqituvchidan katta masʼuliyat, shijoat talab etadi. Hozirgi kun oʻqituvchisi zamon shiddat bilan oʻzgarib borayotgan bir pallada anaʼnaviy darsdan voz kechib, yangicha metod, yangi nigoh asosida ishlashni talab etadi.

“Sinkveyn” metodi Fransuzcha “cinq” soʻzidan olingan boʻlib besh degan maʼnoni anglatadi. Biror soʻzning beshta sifat xususiyati tavsiflanishi zarur. Oʻquvchilarga mavzuning kalit soʻzlari beriladi. Har bir oʻquvchi alohida qogʻoz varagʻiga ushbu soʻzning xususiyatlarini yozadi, ular ot ham, feʼl ham, sifat ham boʻlishi shuningdek, ijobiy yoki salbiy jihatni aks ettirishi mumkin. Har bir qatorga yozilgan soʻzlar bitta gap hisoblanib u keng maʼnoni oʻziga qamrab oladi. 1- qator mavzu bitta soʻz bilan ifodalanadi. 2- qator ikkinchi soʻz qoʻshilib mazmuni kengaytiriladi. 3- qator uchunchi soʻz kiritilib voqelik ochib beriladi. 4- qator toʻrtinchi soʻz kiritilib voqelikka shaxsning munosabati bildiriladi. 5- qator bitta soʻz bilan umumlashtiriladi. Masalan: “Tabiat” soʻziga sinkveyn tuzish. Tabiat. Ot Goʻzal, koʻm - koʻk. Sifat. Boqadi, oʻstiradi. Feʼl

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oʻz kasbini sevib, masʼuliyat bilan yondashadigan talabchan oʻqituvchi pedagogik jarayonda faol boʻladi. Uning ijodkorligi bolalarni fikrlashga undaydi. Taʼlimning sifatini belgilab beradigan omillardan eng muhimi bolada taʼlimga nisbatan qiziqish uygʻota olishdir

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Ishmuhammedov R, Taʼlimda innovatsion texnologiyalar. T.,2020
2. Boshlangʻich sinflar uchun metodik qoʻllanmalar.
3. “Pedagogik mahorat” jurnali, 3-son 2021 y
4. “Boshlangʻich taʼlim” jurnali 2-son 2022y
5. www.internet saytlari



## BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Abrorova Ra'no**

Toshkent shahar 16-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy usullari hamda ularni dars jarayonida qo'llashning afzalliklari haqida fikr mulohazalar bildiriladi

**Kalit so'zlar:** hamkorlikdagi faoliyati, ilg'or pedagogic metodlar, zamonaviy ta'lim, innovatsion metod.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-ahloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

"Juft barmoqchalar" metodi ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan samarali metodlardan biridir. Mazkur metodning nomi bolada uni bajarishga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Metodni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida son mavzusini uyga vazifa sifatida berishda foydalanish samaralidir. "Juft barmoqchalar" metodi ona tili va amaliy san'atning integratsiyasini o'zida aks ettiradi. Metodning qo'llanilishida o'quvchilarning barmoqlari ishlatiladi. Bunda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga qo'l mehnati yordamida o'ng qo'l barmoqlariga sonlar va hisob so'zlarni yozishni tushuntiradi, chap qo'l barmoqlariga esa miqdori ko'rsatilgan shaxs-narsalarning rasmlarini chizish kerakligi va oxirgi bosqichda ikki qo'l barmoqlarini qovushtirganda, son va miqdori ko'rsatilgan narsa o'rtasida muvofiqlik hosil bo'lishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan "Juft barmoqchalar" namuna sifatida ko'rsatiladi va tasvir orqali tushuntiriladi: chap qo'l ko'rsatkich barmog'iga 2 soni hamda hisob so'z yozilgan qog'ozchalar yopishtirilgan, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga esa piyozning rasmi chizilgan. Ikki barmoqni juftlashtirganimizda "Ikki bosh piyoz" degan so'z hosil bo'ladi. Shunday davom etgan holda qolgan barmoqlarimizga ham rasmlarni chizamiz va sonlarni yozamiz.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilimsaviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Ta'limda o'quvchi shaxsini



fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, innovatsion metodlarni rivojlanishi mamlakat ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu esa, mamlakat iqtisodiyotini oshirishning eng to'g'ri yo'li hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, maktablarda boshlang'ich sinflardan o'rgatib borish har bir pedagog oldidagi eng yusak vazifalardan biri.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq»nashriyot-matbaa kontserni, 1997.

2. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “Turon-iqbol” 2008 yil., 160 bet

3. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI, Nilufar Mahamadjon, Qizi Qo'Chqorova,



## BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Axadova Madina Rakibovna**

Samarqand viloyati Samarqand shahar  
59-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarni o'qitishda ilg'or zamonaviy texnologiyalar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, Texnologiya, Pedagogik texnologiya

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda turli xildagi yangidan yangi metodlardan foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda. Sababi, ta'lim oluvchi o'quvchilar ham aynan zamon ruhiga mos shakllanib kelayotgani hech kimga sir emas. Boshlang'ich ta'lim o'qitish texnologiyasiga e'tibor qaratadigan bo'sak, birgina o'qish fanini o'quvchilarga o'rgatish uchun juda ko'plab, turli xil metodlar qo'llanishini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Bunga misol qilib, 4-sinf ona tili darslarida foydalanish uchun yaratilgan “Kelishiklar” mavzusidagi elektron taqdimotni aytish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinni foydalaniladi. Kitob.uz saytida 1-4 sinf o'quvchilari uchun deyarli barcha fanlarning elektron darsliklari mavjud. Ammo ular matn va ovoz shaklida taqdim etilmagan. Elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida, slayd-shou ko'rinishda berish maqsadga muvofiq. Audio va video axborotlarning o'zaro birgalikda qo'llanishi o'qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'lib, quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda. Dastlab bu tushuncha 1940 yillardan 50-yillar o'rtasigacha «ta'limda texnologiya» deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQSHda qo'llana boshlagan. Bunda “pedagogik texnologiya” va “ta'lim texnologiyasi” ifodalari faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llangan edi. Oradan vaqt o'tishi davomida shu ifodalarni qo'llash darajasi kengayib borishi natijasida ularning ma'nolari ham tegishli o'zgarib bordi.

O'qish faoliyatning asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini o'stirish va takomillashtirish ustida tizimli va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi. O'qish malakasini egallash ancha murakkab bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Ruhshunos olim T. G. Yegorov o'zining “Очерки психологии обучени детей чтению” nomli asarida o'qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: *analitik bosqich*, *sintetik bosqich* va *avtomatlashgan bosqich*. **Analitik bosqich** savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi, bunda so'zni bo'g'in-harf tomonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. **Sintetik bosqich** uchun so'zni sidiq'a o'qish xarakterlidir; bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'qish so'z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O'quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingt yillarda o'qish **avtomatlasha** boradi.

Pedagogik texnologiya — bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya'ni o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari



yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbiridir (B.Ziyomuhamedov). Pedagogik texnologiya bu — ob'ektiv, moddiy jarayon. Agar biz o'quv-tarbiya jarayonidan uning ob'ektiv, moddiy (substantsiyalik) jihatini ajrata olsak, shunda biz texnologiyaga, eng kamida uning tafsilotiga ega bo'lamiz (V.K. Dyachenko).

Ma'lumki, ta'lim – tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi. Insoniyat hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, insonning har bir harakati axborot olish yoki uzatish yoki undan foydalanish yoki uni o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori . – Toshkent: “ sharq “ nashriyot-matbaa konserining Bosh tahririyati, 1998.

2. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar // Boshlang'ich ta'lim, 1999, 4-son



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA UCHRAYDIGAN GENDER XUSUSIYATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH

**Bobokalonova Nargiza Urunovna**  
Samarqand viloyati Samarqand shahar  
59-umumiy o'qitish maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda uchraydigan gender xususiyatlar va ularni bartaraf etish usullari haqida.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, tarbiyachi, genderlik, ferminizatsiyalash, muhit, temperament, jins, shaxs, audiovizual, axborot, vizual.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрена инновационная профессиональная деятельность педагогов, осуществляющих обучение и воспитание детей дошкольного возраста, что является одним из наиболее актуальных вопросов сегодняшнего дня, а также возможность широкого использования информационно-коммуникационных технологий.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, дети дошкольного возраста, воспитатель, интернет, информационно-коммуникативные технологии гендерудиизуальный, ферментативный, окружающая среда, темперамент, пол, личность, axborot.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, Xuddi shuningdek, yaqin yillarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802 qarorining asosiy maqsad va vazifalaridan etib: -maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Tizimida Gender Tenglik borasida 2020-yilda olib borilgan ishlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, Gender tenglikni ta'minlash masalasi dunyo bo'ylab muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir davrda O'zbekistonda ham bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi va bu mamlakatimizning inson huquqlari asosidagi ilg'or qadamidan nishonadir.

Shuningdek, joriy yilning fevral oyida Respublika yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Zumradoylar davrasi" to'garagi doirasida, syujetli-rolli spektakllar va boshqa sahnalashtirilgan chiqishlarni tashkil etish maqsadida, 50dan ziyod ssenariylar yaratildi. Ushbu ssenariylar milliy qadriyatlarga boy, urf-odatlarimiz, ota-ona, farzandlar, qiz bola va o'g'il bola o'rtasidagi munosabatlarni, gender tenglikni maktabgacha yoshdagi bolalar ongida shakllantirishga qaratilgan vaziyatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Maktabgacha ta'lim vazirligi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida gender tenglikni shakllantirish" nomli uslubiy tavsiyanoma Muvofiqlashtirish kengashi tomonidan tasdiqlanib, ta'lim-tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan.

Xuddi shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o'rtasida ham gender barqarorlik, nutqning gender xususiyatlari, o'g'il va qiz bolalar orasida gender tafovutlar uchraydi. Genderlikning bola hayotidagi o'rni ham beqiyosdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender ta'lim –bu bolalarda haqiqiy erkaklar va ayollar haqidagi g'oyalarni shakllantirish va bu insonning normal va samarali ijtimoiylashuvi uchun zarurdir. Pedagoglar va ota-onalarning ta'siri ostida maktabgacha yoshdagi bola jinsiy rolni yoki odamning xatti-harakatlarining gender modelini o'rganishi kerak, shunda u ayol yoki erkak sifatida aniqlanadi.

Bolalar bog'chasida qo'llaniladigan o'qitish strategiyasi, bolalar bilan ishlash shakllari va usullari ko'pincha qizlar uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga, qizlar va o'g'il bolalar ko'pincha ayollar tomonidan tarbiyalanadi uyda-ona yoki buvi, va bolalar bog'chasida-ayol tarbiyachi. Natijada ko'plab o'g'il bolalar uchun jinsga chidamlilik erkaklar ishtirokisiz shakllanadi. Ayollar



esa, olimlarning fikriga ko'ra, o'g'il bolalarni to'g'ri tarbiyalay olmaydilar, faqat bitta oddiy sababga ko'ra: ular boshqa turdagi miya va boshqa turdagi fikrlashga ega. Bundan tashqari, ayol o'qituvchi tabiiyki, maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar kattalar bilan va bolalar bilan muloqot qilishda duch keladigan tajribalarning bolalik tajribasiga ega emas. Shuning uchun, o'g'il bolalar bilan muloqot qilishda, ko'plab o'qituvchilar, agar bu o'g'il bo'lsa, demak yana, uiroda, kuch chidamlilik timsoli degan fikrga amal qiladi. Natijada, umuman jasoratli emas, balki qo'rqinchli jismonan zaif va juda zaif o'g'il bolalar muntazam ravishda o'qituvchilarning travmatik ta'siriga duchor bo'lishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarbiya jarayoni qanchalik to'g'ri tashkillashtirilgan bo'lsa, maskanda tarbiyalanadigan bolalar tarbiyasida ham xulq-atvorida ham kelishmovchiiklar va tartibsiz harakatlar psixologik kaslliklar yuzaga kelmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. F.R. Kodirova. Didakticheskie igrq dlya obucheniya detey russkomu yazqku. Tashkent, «O'qituvchi», 1992.

2. F.R. Qodirova. «Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish» (metodik qo'llanma). Toshkent, «O'qituvchi», 1997

3. Eremeeva V.D. O'g'il bolalar va qizlar. Turli xil yo'llar bilan o'rgating, turli yo'llar bilan seving. Samara. O'quv adabiyoti, 2005 yil.



## BOLALARNI SAVOD O‘RGATISHDA YOZUV VA O‘QISH TAYYORGARLIGINI O‘RGANISH VA O‘ZIGA XOS USULLARI

**Djolibayeva Lola Abduljalil qizi**

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani

15-maktab boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

**Antotasiya:** boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini savodini oshirishda yozuv va o‘qish tayyorgarligini o‘rganish va yozuv savodxonligini oshirish usullari haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, savod o‘rgatish, tog‘ri yozish, metodika, o‘qitish usullari, yozuv texnikasi, “O‘yin - loto” o‘yini, “Ortiqchani toping” o‘yini, “Info-karusel” o‘yini

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘yin o‘ynashga moyil bo‘ladilar. O‘yinli ayotdan mas‘uliyatli hayotga o‘qish jarayoniga o‘tish ular uchun zerikarli, larning yelkalariga og‘ir yuk bo‘lib tushishi tabiiy. Shuning uchun ham savod o‘rgatish jarayonida ko‘plab qoidalar va talablarga amal qilgan holda ta‘lim va tarbiya jarayonini uzluksiz ravishda nazorat qilib borish zarur. Savod o‘rgatishni to‘g‘ri tashkil etish uchun bolalarning unga nutqiy tayyorgarligini maxsus o‘rganish talab etiladi. Oldin bolalarni maxsus o‘rganish avgust oyida, hatto undan oldin — bahordan boshlangan. Bunda 1-sinfga keladigan o‘quvchining oilasiga yoki bolalar bog‘chasiga borilgan, suhbat o‘tkazilgan, bolalarning umumiy bilim saviyasi aniqlangan. Bilasizki, bolalar savodxonligini aniqlash usullari ularning yozuv malakalari va o‘qish, hisoblash savodxonligi orqali aniqlanadi. Bola maktabga qadam qo‘ymasidan oldinroq (3-4 yoshidan boshlab) qo‘liga qalam olib turli shakllarni chiza boshlaydi. Ammo bu chiziqlar chiroyli yozuv talablariga to‘g‘ri kelmasada ulardagi ayrim malakalarning (ruchka, qalam ushlab) shakllanishiga yordam beradi. Kichik yoshdagi bolalarning muskullari yaxshi rivojlanmaganligi uchun ularga surunkali yozdirib mashq qildirish, yozuvning sifatiga salbiy ta‘sir etadi. Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari (ruchka, qalam, bo‘r) orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv qurolidan foydalanishiga qarab qo‘l harakatlari shunga moslashtiriladi. Chiroyli yozuvga o‘rgatishda birinchi navbatda quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1. Yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish
2. Parta ustida daftarni to‘g‘ri qo‘yish.
3. Yozayotganda gavgani to‘g‘ri tutish va tirsaklarni to‘g‘ri harakat qildirish.
4. O‘z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o‘rgatish.
5. Tovushni bosma harfga, bosma harflarni esa yozma shaklga aylantirishga o‘rgatish.
6. Harflarni shaklini to‘g‘ri idrok etishga (yozuvni qayerdan boshlash, qayerda tugatish, o‘ngga, chapga, burilish bog‘lash va x.k.) o‘rgatish.
7. Harflarni bir- biriga bog‘lab yozishga o‘rgatish.
8. Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o‘rgatish.
9. Daftari chizig‘idagi qatorlarni to‘g‘ri to‘ldirish, sarlavha, oy va kunlarni to‘g‘ri yozish.
10. Harflarni 65 daraja qiyaligini to‘g‘ri saqlash.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozuvga o‘rgatishdan oldin quyidagi malakalarni berish lozim.

1. Yozuv texnikasi, ya‘ni yozuvning turli to‘g‘ri yozish usullaridan foydalanish.
2. Harflarning shaklini to‘g‘ri ifodalash, ya‘ni grafik malakalarini egallash.
3. Yozuv vaqtida harflarning shakli bilan bir qatorda uning qanday tovush bildirishini ham bilish, ya‘ni imloga oid malakalarni egallash.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan har bir malaka o‘z oldiga ma‘lum bir qoidani maqsad qilib qo‘yadi. Masalan yozuv texnikasi yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish, yozayotganda partada to‘g‘ri o‘tirish, qo‘lini to‘g‘ri tutish, gigiyenik qoidalarga amal qilishni talab qiladi. Grafik malakalar esa harfning shaklini to‘g‘ri ifodalashni, ularning orasidagi masofani bir xil bo‘lishini, qiyalikni to‘g‘ri saqlashni talab etadi. Imloga oid malakalarda esa qaysi harf qanday tovush bildirishini va ularning o‘z o‘rnida turishini talab etadi. Tayyorlov mashg‘ulotlarda bolalar tovush-harf bilan tanishtirilyapti, elementer tarzda yozuvga ham o‘rgatilyapti. O‘quvchilar hayotida o‘yin katta rol o‘ynaydi. O‘yin bolalarning ongi va qalbiga singib ketgan faoliyatdir. Ularning bu faoliyati o‘yin turlariga qarab ob‘yektiv voqe‘likni, hayotni muayyan darajada o‘zida aks ettiradi. O‘yin sinfda o‘tilgan o‘quv faoliyatining ma‘lum darajada mustahkamlashidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchi bolalarning zarur ehtiyojidir. O‘yin bolalar uchun ovitish, xursandchilik, rohatlanish, hordiq chiqarish kabilarni beradi. O‘yin muayyan



ta'limiy maqsadlarga erishuvchi, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan boladi.

“O'yin - loto” o'yini. Loto o'yinining maqsadi: yechim tezligi bo'yicha ishlarni hisobga olgan holda hisoblash qobiliyatini sinab ko'rish. O'yin qoidalari: Har bir o'quvchiga bitta lotereya chiptasi, chiptadagi raqamlarni yopish uchun 8 ta chip beriladi. Boshlovchi navbat bilan sumkadan misol chiqaradi. Hammasi bo'lib 30 ta misol mavjud. Boshlovchi misolni 2-3 marta aniq takrorlab, ovoz chiqarib o'qiydi. Javob 1 dan 10 gacha bo'lgan raqam (20), takrorlash yo'q. O'quvchi misolni o'z xayolida hisoblab chiqadi. Agar o'quvchi misol uchun chiptadagi raqam bilan bir xil javob bergan bo'lsa, uni chip bilan yopadi. Kimning chiptasi to'liq va xatosiz to'ldirilsa g'olib bo'ladi.

“Ortiqchani toping” o'yini. O'quvchilarga bir qator so'zlar beriladi:

- Birliklar, o'nliklar, yuzlar, minglar (minglar - bunday birlik toifasi yo'q)
- To'rtburchak, kub, kvadrat, uchburchak (kub - uch o'lchamli shakl)
- Chizgich, kompas, burchak, transportyor (burchak geometrik asbob emas)
- Oltin, span, nikel, chorak (span tanga emas.)
- Chelak, sm, dm, metr (chelak uzunlik emas, hajm o'lchovidir)

Murakkab variant: 1) vaqt chegarasi; 2) qo'shimcha so'z tanlash tam Vazifa: ma'lumotlar orasidan “ortiqcha” so'zni toping va uni olib tashlang. Bu vazifa so'zlarda umumiy xususiyatni ajratib ko'rsatish qobiliyatini shakllantiradi, diqqatni rivojlantiradi. Mazkur o'yinni deyarli har qanday mavzuda qo'llash mumkin.

“Info-karusel” o'yini. Mustaqil ish materialini o'quvchilarga taqdim etish uchun ushbu o'yindan foydalaniladi. Turli jadvallarda “Info-karusel” usulida dars mavzusiga oid ma'lumot materiallari joylashtiriladi. Masalan, “Ko'paytirish komponentlarining munosabati” (1 ko'paytuvchi bir necha marta, ikkinchi ko'paytuvchi bir necha marta, birinchi ko'paytma bir necha marta, ikkinchi ko'paytma bir necha marta kamaytirilganda mahsulotning bog'liqligini aniqlash uchun) Sinf jadvallar soniga ko'ra kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh o'z stolidagi ma'lumotlar bilan tanishadi va berilgan topshiriqlarni bajaradi. Belgilangan vaqt tugagandan so'ng, har bir guruh o'z stolida o'z ishini tugatadi va boshqasiga o'tadi. Guruhlar har bir ma'lumot jadvaliga tashrif buyurmaguncha ishlaydi. Jadvallarda, ma'lumotlardan tashqari, kichik guruhlar o'z fikrlarini yozadigan bo'sh varaqlar mavjud bo'ladi. Shunday qilib, guruhlar bir-biri bilan aloqada bo'lmasa ham, birgalikda ishlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ona tili o'qitish metodikasi. (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): K. Qosimova, S.Matchonov, T.: “NOSHIR”, 2009. -352 b.
2. Savodga o'rgatish darslari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma /H.Boqiyeva , N.Ahmedova va bosh. – Toshkent.: “Extremum-Press” nashriyoti, 2014. -120 b.



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION METODLARNI QO'LLASH

**Djumaniyazova Dinara Kalandarovna**  
Urganch shahar 28-son maktab o'qituvchisi  
Telefon: + 998 (94) 747 01 40  
dinarakalandarovna\_28@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlarni qo'llash haqida.

**Kalit so'zlar:** “Aqliy hujum”, “Zinama-zina”, “Klaster”, “Davom ettir”, “Archa”, “Yelpig'ich”, “Sinkveyn”, “Zanjir”, “Meni tushun”, “Sehrli katak”, “Oyga sayohat”.

O'quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, hech qanday psixologik noqulaylik bo'lmasligi, o'quvchi o'ziga nisbatan ishonchni his eta olishi lozim. Har bir o'quvchining imkoniyatini hisobga olish, bajarilgan ish uchun rag'batlantirish, xatoga yo'l qo'ygan o'quvchiga uni to'g'rilash imkonini berish zarur. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning innovatsion metodlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyati izchilligini ta'minlash hamda uni maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etishdir. O'qitishning faol metodlariga “Aqliy hujum”, “Zinama-zina”, “Klaster”, “Davom ettir”, “Archa”, “Yelpig'ich”, “Sinkveyn”, “Zanjir”, “Meni tushun”, “Sehrli katak”, “Oyga sayohat” kabilarni kiritish mumkin.

### “Kamalak” metodi

Bu metod o'qish va ona tili darslari uchun mo'ljallangan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda biryola mavzuning turli tarmoqlari, shu bilan bir qatorda o'zbek tilining kamalakdek serjiloligi haqida axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararli tomonlari ochib beriladi. “Kamalak” metodining maqsadi o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, izlanishga, fikrlarini jamlab taqqoslash uslubi yordamida o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Metod imkoniyatdan kelib chiqib, yakka yoki kichik guruhlarda olib borilishi mumkin. Kamalak tasviri tushirilgan qog'oz tarqatiladi va uning shartlari tushintirib o'tiladi. O'qish darslarida she'rdagi vatan mazmunini ifodalovchi so'zlarga, asar qahramonlariga “Kamalak” metodi asosida ta'rif berish so'raladi. Topshiriqni o'quvchi kamalakda aks ettirishi ta'kidlanadi. (Masalan: 1. vatan/ 2. chaman/ 3. bo'ston/ 4. diyor/ 5. yurt/ 6. guliston/ 7. o'lka).

### “Archa” didaktik o'yini

O'yinning maqsadi o'quvchilar diqqatini jamlash, yakka, jamoaviy, guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik faoliyatini, ishga mas'uliyat bilan yondashuvni shakllantirish, bezash ishlari ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. “Archa” didaktik o'yini bir soatlik dars mashg'ulotiga mo'ljallangan. Buning uchun texnologiya darslarida yoki guruh mashg'ulotlarida karton qog'ozdan uch qismdan iborat archa maketi hamda archa o'yinchoqlari tayyorlab olinadi. Bu didaktik o'yinni ona tili, matematika dars jarayonlarida qo'llaganda samarali natijalarga erishiladi. “Archa” didaktik o'yini besh bosqichda olib boriladi:

1- bosqich: har bir qatordagi o'quvchilarga geometrik shakllar tarqatiladi. Guruh a'zolari geometrik shaklga ta'rif berib, undagi harflardan o'z guruh nomlarini hosil qiladilar va unga ta'rif beradilar. Guruh archaning birinchi qismini qo'lga kiritadi.

2-bosqich: o'tilgan mavzu asosida “Aqliy hujum” metodi olib boriladi. Yaxshi natijaga erishgan guruh archaning ikkinchi qismini qo'lga kiritadi(*archa qismlari birlashtirib boriladi*).

3-bosqich: uyga vazifa “Do'stim, meni tushun” metodi orqali tekshiriladi. To'g'ri bajargan guruh archaning uchinchi qismini qo'lga kiritib, archani yasashga erishadi.

4-bosqich: yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida “Test”, “Klaster”, “Tort” kabi metodlardan birini qo'llagan holda olib boriladi. Faol qatnashgan o'quvchilar archa o'yinchoqlari bilan rag'batlantiriladi.

5-bosqich: darsning yakunlovchi qismi bo'lib, guruh a'zolarining rag'batlari sanalib, archa bezatiladi. G'olib guruh aniqlanadi. Guruh archalari birlashtiriladi. O'quvchilarga kuch do'stlik,



ahillik va birdamlikda ekanligi, xuddi archadek bir tan-u bir jon bo‘lsagina, tik tura olishi uqtiriladi. “Archa” metodini fasllarga moslab, olma daraxti shaklida, archa o‘yinchoqlari o‘rnida gullardan, mevalardan foydalangan holda qo‘llash mumkin. O‘quvchilar faolligini oshirishda, chiroyli yozishga qiziqtirishda archa o‘yinchoqlari bilan rag‘batlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Abduqudusov O. “O‘quv muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari “-T.,” O‘qituvchi” 2017
2. R. Safarova, M. G‘ulomov, M. Inoyatova Savod o‘rgatish darslari. «Tafakkur» nashriyoti Toshkent-2012



## MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MASALA VA MASHQLARNING AHAMIYATI

**Ibragimova Feruza Batirovna**

Urganch shahar 28-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (94) 316 70 45

feruzabatirovna\_28@umail.uz

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada matematikadan o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishda masala va mashqlarning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Masala, mashq, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, kichik guruhlar.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o‘qitishdan ko‘zda tutilgan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

O‘qituvchi uchun ta’lim jarayoni o‘quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog‘langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o‘zgartirishlar kirtadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o‘quvchilarning bilish faoliyati va o‘qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg‘un ravishda tashkil etilgandagina o‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etganda, ta’lim-tarbiya jarayonini yaxlit, bir tizim holatida, bilim, ko‘nikma va malakalarni bir - biri bilan uzviy ravishda shakllantirish lozimligini qayd etish zarur.

Masala - ko‘zda tutilgan noma’lumni muayyan o‘quv usullaridan foydalanib hal etish sanaladi. Masala yechish jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish imkoni vujudga keladi.

Har qanday masalada muayyan darajadagi qiyinchiliklar bo‘lib o‘quvchilar uni avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalaridan foydalanib yengib o‘tishi kerak.

Masala matni uning izohi va shartini o‘z ichiga oladi.

Masala izohi – muayyan vaziyatni tasvirlab, o‘quv muammosini keltirib chiqaradi, u yoki bu ob‘ektning noma’lum xususiyatlarini topishga yo‘naltiriladi.

Masala sharti noma’lum vaziyatni to‘liq hal etishni talab qilib, ba’zi hollarda so‘roq bilan tugashi mumkin.

O‘quvchilar masalani yechish jarayonida masalaning shartini to‘liq anglagan holda ma’lum bo‘lgan holatdan noma’lum bo‘lgan vaziyatni aniqlashi, o‘quvchiga ma’lum bo‘lgan xususiyatlardan noma’lum ob‘ektlarning xususiyatlarini topishi zarur.

Masalani yechish masalada berilgan shartni to‘liq bajarish sanaladi. Ba’zi hollarda o‘qituvchining o‘zi ham masala tuzishi mumkin, bunda muayyan vaziyatning izohi va shartini aniq belgilash kerak bo‘ladi.

Mashqlar o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, ko‘nikmalarni tarkib toptirish imkonini beradi.

Mashqlar mazmuni jihatidan o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, amaliyotga qo‘llash, ularni yangi vaziyatlarda qo‘llash, mantiqiy fikr yuritish operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, yaxlit ob‘ektlarni qismlarga ajratish, xulosalash kabilarni amalga oshirish talab etishi mumkin.

Masala va mashqlar yechish jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etilganda o‘quvchilar masalaning izohi va shartini mustaqil o‘zlashtiradilar, ularning aqliy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi hisobga olingan holda tuzilgan masala va mashqlarni mustaqil bajaradi va o‘z bilish faoliyatining sub‘ektiga aylanadi.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini individual tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

Masala va mashqlar didaktik maqsadini aniqlash;

Masala va mashqlarni yechish usullarini va ularni amalga oshirish yo‘llarini aniqlash;

O‘z mustaqil ishini tashkil etish;

Masala va mashqlarni mustaqil yechish;

Masala va mashqlardan olingan natijani loyihalash, uning maqsadga muvofiqligini tekshirish;

Natijani tahlil qilish, tegishli hollarda unga o‘zgartirishlar kiritish.



Masala va mashqlarni individual bajarish jarayonida o‘quvchilarning aqliy faoliyati jalb etiladi, o‘z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonch ortadi va har bir shaxs o‘z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi, samaradorlik ortadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.
2. Umirbekov A.U., SHOabdaloV SH.SH. Matematikani takrorlash —Toshkent: «O‘qituvchi», 1989.



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

**Jaqsibayeva Janna Manatovna**  
**Bekbenbetova Bayan Irisbekovna**  
**Berdibekova Araylim Salauatovna**  
Navoiy viloyati, Tomdi tumani  
3-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu uslubiy tavsiyada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** talaffuz, tafakkur, savodxonlik, tovush va harf, xotira....

Yurtimizda ta‘lim sohasining isloh qilinishi, aynan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi pedagog-tarbiyachilarimiz oldiga juda katta va mas‘uliyatli vazifalarni qo‘yadi. Ulardan asosiysi, har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash masalasidir. Yosh avlodni erkin fikrlaydigan, bilimli qilib tarbiyalash pedagogning mahoratiga bog‘liq. Qanday va qaysi yo‘l bilan bilim berilsa, samaraliroq bo‘ladi?

O‘qituvchi dars jarayonini tashkil qilar ekan, avvalo uning samarali bo‘lishi, o‘quvchilarning to‘liq o‘zlashtirishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shu sababli, darslarni tashkil qilishning turli xil usullaridan foydalaniladi.

O‘qitish tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat o‘quvchilar og‘zaki tarzda chiroyli fikr yuritadi, ammo yozma bayon etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning tub sababi shuki, ularda yozma nutq kam rivojlangan. Ma‘lumki, o‘quvchi - yoshlar doimo ko‘cha-ko‘yda, oila davrasida og‘zaki muloqotda bo‘lishadi. Qolaversa, aksariyat darslar og‘zaki tarzda o‘tiladi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasida yoshlarimizning yozma savodxonligini oshirishdek katta mas‘uliyat turibdi.

**Yuqoridagi muammoning yechimini topish uchun quyidagicha ish tutmoq joiz :**

- darslarni ko‘rgazmalilik- slydlar, vidiolavhalar namoyishi asosida tashkil etish;
- dars jarayonida yopiq test savollariga yozma javob berish;
- har bir darsning 5-10 daqiqasi davomida ta‘limiy diktant (lug‘at diktant, ijodiy diktant, ta‘kidiy diktant) o‘tkazish;
- savodxon o‘quvchilarni har bir dars davomida rag‘batlantirish va ularning safini kengaytirib borish;
- “Husnixat daftari”ni tashkil etish;
- past o‘zlashtiruvchi va iqtidorli o‘quvchilar bilan alohida ishlash;
- “Talaffuzi va yozilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar lug‘ati” ni yaratish;
- muhokama va munozarali matnlar yaratish;
- notanish so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosini o‘quvchilarning o‘zlariga toptirish va lug‘at bilan ishlash malakasini oshirish;
- imlo qoidalariga aloqador test topshiriqlari bo‘yicha bank tayyorlash.

Bu usul orqali bolalarda axborot bilan ishlash kompetensiyasi ham shakllantiriladi.

**“Talaffuz va tafakkur”**

**Usul shiori:** *So‘zlarni ko‘r, talaffuz qil,*

*Talaffuz-la tafakkur qil.*

Ona tili darslarida o‘quvchilar harflar talaffuzi va imlosi ustida ko‘p ishlaydilar. Shu bois taklif etayotgan usulim ularni talaffuz va imlo me‘yorlarini to‘g‘ri o‘zlashtirishga chorlaydi. Jumladan, qo‘sh va qator undoshlar, qo‘sh va qator kelgan unlilar, shuningdek, tutuq belgisining talaffuzi va imlosini tushuntirishda juda qo‘l keladi. Videoproyektor orqali talaffuziga ko‘ra tanlangan mavzuga oid so‘zlar ko‘rsatiladi. O‘quvchilar bu so‘zlarni birma-bir talaffuz qilib ko‘radilar va daftarlariga to‘g‘rilab ko‘chiradilar, o‘zgarishlar sababini izohlaydilar.

Shoyir, pas, rano, balan, oyila, malim, tabiyat, darax, Samarqan...



Zukko bolalar bir zumda soʻzlarni toʻgʻrilab yozadilar. Shundan soʻng ekranda berilgan soʻzlarning imlosi aks ettiriladi. Oʻquvchilar oʻz-oʻzini baholash usulida bajargan ishlarini tekshiradilar. Darslar davomida, nazoratlarda shunday soʻzlarga duch kelsalar, adashmaslikka harakat qiladilar.


Shoir, past, raʼno, baland, oila, muallim, tabiat, daraxt, Samarqand...

#### “Xotira charxi” usuli.

**Shior:** *Charxlaymiz xotiramiz,*

*Har mashqni qotiramiz.*

Pedagogikada soʻzning toʻgʻri yozilishini eslab qolish usuli orqali ham imlo savodxonlik rivojlantiriladi. “Xotira charxi” usulida imlosi nisbatan murakkab boʻlgan oʻntagacha soʻz oʻqituvchi tomonidan yozuv taxtasiga yozib qoʻyiladi. Oʻquvchilar bir necha daqiqa davomida soʻzlarni kuzatib, imlosini eslab qolishga harakat qiladilar. Shundan soʻng yozuv taxtasidagi yozuvlar oʻchiriladi, oʻquvchilar xotiralari asosida soʻzlarni daftarlariga yozadilar. Oʻzaro tekshirish usuli bilan soʻzlarning imlosi oʻrganiladi, xatosi boʻlsa tuzatiladi.



**“Mustaqil oʻrganish” usuli.** Ushbu usul taʼlim oluvchilarning oʻquv materialini mustaqil oʻzlashtirishini, oʻz – oʻzini tekshiruv malakalarini, berilgan matnning mazmunini toʻliq va ongli ravishda bayon eta bilishiga qaratilgan usuldir. Bu usul vaqti–vaqti bilan oʻtkazib turiladi, oʻquvchilarning mustaqil oʻrganish, darslik bilan ishlash va mustaqil amaliy faoliyat bilan shugʻullanish koʻnikmalarini shakllantiradi.

Xullas, yuqoridagi usullar orqali oʻqituvchi oʻquvchilarning amaliy faoliyatiga aralashmay, tashqaridan teskari aloqa- muloqot yordamida yoʻnaltirib boshqaradi va nazorat qiladi, ularning yozma savodxonligini oshirishga erishadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Mirzayev va boshqalar. Ona tili. Toshkent, 1978-yil.

2. “Boshlangʻich taʼlimda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”.



## BOLA TARBIYASIDA MAKTAB, OILA VA MAHALLANING O'ZARO HAMKORLIGINI OSHIRISH CHORA TADBIRLARI VA AHAMIYATI

Kipchakova Marg'uba Abdurazakovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahri  
8-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi globallashuv sharoitida eng dolzarb muamolardan biri hisoblanmish farzand tarbiyasi hamda farzand tarbiyasida oila mahalla va maktab hamkorligini yo'lga qo'yishning dolzarb masalalari haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** milliy mafkura, qadryat, ta'lim tarbiya uyg'unligi, Maktab, oila va mahallaning o'zaro aloqadorligi.


O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, farzandlarni ma'naviy-axloqiy milliy madaniy, tarixiy an'analariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslanib, zamonaviy shaxsni shakllantirish ota-onalar, maktab, mahallalarning oldida turgan eng asosiy ma'suliyatli vazifalardan sanaladi. Milliy mafkuramiz va qadriyatlarimiz xalqimizning maqsad muddaolarini ifodalaydi. Farzandlar oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoada anglaydi. Ular ongiga dastlabki ma'naviy-axloqiy bilimlarni singdirishda oilaning, ayniqsa, ta'lim-tarbiya muassasalarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya muassasalari, oila va mahalla qo'mitalari ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasi milliy istiqlol g'oyasini barcha yoshlarimiz ma'naviy boyligiga aylanishiga, ularning dunyoqarashiga singdirishda ko'maklashish, mazmun-mohiyatini har tomonlama tushuntirishdan iborat.

Bugungi kunda yurtimizda barcha sohaga bo'lgani kabi yoshlar tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, bugun o'sib ulug'ayotgan yosh avlodni kamol topishida maktab va oilaning o'zaro hamkorligini rivojlantirish o'quvchining komil inson sifatida kamol topdirishning eng asosiy vazifalaridan biri desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Maktab, oila va mahallaning o'zaro aloqadorligini oshirishning rivojlanishi va ota onalarning maktab bilan bevosita qiziqib borishi, har jabhadan farzand tarbiyasida ijobiy iz qoldiradi. Jumladan, bola doimiy vaqtda ota ona nazoratida bo'ladi. Bu esa, yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilining oldini olishda eng samarali vosti bo'lib xizmat qiladi.

“Ho'sh, ta'lim jarayonida o'qituvchi, ota ona, mahalla hamkorligi nima sababdan lozim?” degan savol tug'iladi. Ma'lumki, bola yoshlik paytidanoq asosiy vaqtini maktabda o'tkazadi. Uning jamiyatda o'rnini topishida oilasi va maktab eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchining darsdan bo'sh vaqtida jamoat ishlarida xususan, mahalla hasharlarida yoki turli tadbirlarda ota onasi yoki o'rtoqlari bilan ishtirok etishi hamma o'quvchini jamiyatga aralashuvini rivojlantiradi.

So'ng yillarda maktablarda ta'lim tizimiga, davlat nazorati, jamoatchilik nazorati kuchayib bormoqda bunin natijasi o'laroq bugun yoshlar o'rtasida jinoyatchilik kamayib bormoqda. Davlat statistika qo'mitasining bergan ma'lumotlariga e'tibor qaratsak:





Vaqt o'tkani sari yoshlar o'rtasida jinoyatchilik kamayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin buning asosiy sabablaridan biri maktab, oil va mahallaning o'zaro aloqadorligi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlar tarbiyasini rivojlantirish nafaqat, maktab, oila yoki mahallaning ishi, balki, butun jamiyat oldida turgan eng ulkan vaifalardan biri hisoblanadi. Chunki, davlatning davlat sifatida ertangi kunini belgilaydigan insonlar albatt, bugun biz tarbiya qilayotgan yoshlar hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, har bir pedagog hodim o'z vazifasini sidqi dildan vijdonan bajarishi kerakligini aslo unutmasligi lozim. Agar biz oilani yuproq, unda o'sib kelayotgan bolani yangi nihol deb oladigan bo'lsak, maktab va mahalla ushbu niholning oziq manbalari bo'lishi lozim. Shundagina biz kelgusida ko'zlangan natijalarga erishishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baubekova Z.D. Tarbiyaviy ishlar metodikasidagi ko'rsatmalar. – T. 1991 y.
2. Ismailova Z. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. T.:2006.
3. <https://hozir.org/uzbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-ni-v9.html?page=2>



## ТАБИЙ ФАНЛАРНИ О'QITISHDA О'QUV LOYIHALARIDAN FOYDALANISH

**Mirhaydarova Mavludaxon Oqyulovna**

Andijon viloyati Buloqboshi tumani

XTB ga qarashli

10- umumiy o'rta ta'lim maktabining

boshlang'ich ta'lim ustozi

" XALQ TA'LIM A'LOCHISI"

**Annotatsiya:** Bilim odamlar miyasida oz-ozidan paydo bolmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonni tabiat bilan munosabatida asosiy omil bolib, bu oz navbatida, odamlarning o'zaro munosabatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol oynaydi. Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** amaliyot, loyiha, tajriba, tabiiy fanlar, amaliy uslub.

Tabiiy fanlardagi amaliyot ilmiy ishlab chiqarishning asosiy omili bolib kelmoqda. Amaliyot nazariyani paydo bo'lishiga, ilmiy shakllanishiga va rivojlanishiga olib keladi. Bilishning aniqligi muayyan obekt haqidagi ma'lumotning haqiqat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Ayni paytda, sharoit boshqacha bo'lsa, haqiqat ham boshqacha bolishi mumkin. Masalan, oddiy sharoit va bosimda suv 100 C da qaynaydi. Lekin bosim o'zgarsa yoki og'ir suv bolsa, u aniq -konkret hisoblanadi. Ma'lum tizimdagi haqiqat boshqa sharoitda butunlay o'zgarishi mumkin. G'oyaning amaliyotda tasdiqlanishi haqiqatning asosiy omili hisoblanadi. Amaliy ishlarga o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallagan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishida bo'lishini ko'rsatadi. Amaliy uslublar qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining jadal faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi, bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida, sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi.

Amaliy uslublarning turlariga:

1. Oquvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi.
2. Rasm chizishi.
3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari.
4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari.
5. Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak

O'quvchilarni amaliy bilimlarini sinash maqsadida 4-sinflarda quyidagi muammoli savollarni o'rtaga tashlash mumkin. Yozning jazirama issig'ida cho'lda turibsiz. Amaliy kuzatish bilimlarinigizga tayanib, turgan joyingizdan orientir olib, janub tomonni belgilang. Amaliy tabiatni kuzatish natijasida quyidagi faktorlar asosida janubni aniqlash mumkin:

- 1) sudralib yuruvchi hayvonlar o'z inini kirish yo'lini doim janubga qaratadi;
- 2) qushlar o'z uyasini doimo janub tomonga qo'yadi;
- 3) osimliklar shoxlari doimo janub tomonga egilgan;
- 4) osimlik poyasining janub tomoni doimo yog'onlashgan boladi;
- 5) barxan qumlar bir uchi shimolda ikkini uchi esa janubga yotgan boladi.

O'quvchilarga har xil narsalarni berib rasm, fotosurat va gugurt qutisi, kubik, stakan boshqa narsalarni olib chiqib, o'xshashlik farqlarini topishni topshiradi, so'ng geometrik figuralarni tarqatadi, uni o'quvchilar daftar varag'iga ustiga qo'yib atrofni qalam bilan qog'ozga chizadilar. Topshiriq bajarilgandan keyin narsaning yuqoridan ko'rinishini plan deyiladi degan xulosaga olib keladi. Undan keyin stolning plani chizdiriladi. Agar o'quvchilar narsalarning kattaliligiga qiynalsalar tasvirlanadigan narsani shartli ravishda kichraytirish mumkinligini tushuntiradi. (Masalan 10, 20 marta) Dasturlashtirilgan o'qitish uchun quyidagilar kerak:

-o'quv materialining puxta tahlili, uning qat'iy tanlanish va mantiqiy ketma-ketlik bo'yicha bo'linishi;



-o'quvchilarning bilim olish faoliyatini tekshirishdagi rahbarlik

Boshlangich sinfdan boshlab o'z o'lkalarini, o'z joylarini o'rganadilar, tabiat ustida kuzatishlar olib boradilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Boshlangich maktabda o'qish vaqtida ularda boy aniq material to'planadi va bu material o'lkashunoslik burchagida joylashtiriladi. Vaqt o'tishi bilan o'lkashunoslik burchagida boshlangich maktabni ilgari bitiruvchilari chiqqan eng qimmatli materiallar to'planib boradi, undan tabiiy fanlarni o'qitishda sistemali ravishda foydalaniladi. O'lkashunoslik burchagi tabiatshunoslik xonasida yoki alohida sinfdan barpo etiladi. Material uch bo'limga ajratiladi: bizning o'lka, ob-havo va tabiat belgilari.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005- yil



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA HIKOYA O‘QISH METODIKASI

**Narzullayeva Hilola Izzatullayevna**  
Navoiy viloyat Uchquduq tumani  
20-son umumiy o'rta ta'lim maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda, bolaning badiiy olamini yuksaltirishda hikoyaning ahamiyati, shuningdek hikoya o'qish metodikasi haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** metodika, dars, hikoya, tahlil, syujet, izohli o'qish, qahramon.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy olamini boyitish maqsadida xalq og'zaki ijodining namunalari bilan tanishtirib boriladi. Bunda, o'quvchilar yoshiga mos holda ertak va hikoyalar tanlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun hikoya janri ertak kabi muhim ahamiyatga ega janrdir. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir. Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun, bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So'z ma'nosini tushuntirishga ko'p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushinishda eng zarur bo'lgan so'zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi.

Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan foydalaniladi. Ushbu jarayonda asosiy ish turi hikoyani tahlil qilishdir. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi.

Hikoyani tahlil qilish. Ushbu dars jarayonida hikoya o'qituvchi tomonidan tushuntirib o'qib beriladi. So'ngra darsning asosiy qismi hisoblangan hikoyani tahlil qilish bosqichiga o'tiladi. Bu eng muhim bosqich bo'lib, asosan o'quvchining fikrlashi hamda nutqini o'stirishga xizmat qiladi. O'qituvchi tomonidan o'qib tushuntirib bergan hikoya asosida tahliliy suhbat o'tkaziladi. Ya'ni, hikoya qahramonlari, undagi voqealar rivoji, qaysi epizod yoqqanligi va h.k. Bu orqali o'quvchida fikrlash hamda keng dunyoqarashni shakllantirish imkoni paydo bo'ladi. Dars jarayoni taxminan shunday tashkil etilsa maqsadga muvofiq:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.
5. Hikoya matnini qismlarga bo'lish.
6. Har bir qismga sarlavha topish.
7. Hikoyaga reja tuzish.
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).
9. Reja asosida bayon yozish.

Lekin hikoyani tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyligi



bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar.

Boshlang'ich sinflarda hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi. Shuningdek, tahlilda o'qilayotgan hikoya matnining tushunarligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlik deganda, biz hikoyani qanchalik bolaning dunyoqarashi, tafakkuriga mos tanlanishini anglashimiz mumkin. Hikoyani tahlil qilishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani izohli o'qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa).
2. Hikoyani o'qish (bunda to'liq va ma'no jihatdan tugal qismni o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qishi mumkin).
3. Lug'at ustida ishlash.
4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar, badiiy vositalar yuzasidan qisqacha suhbat).
5. Hikoyani qayta o'qish (qismlarga bo'lib, rollarga bo'lib o'quvchilarga o'qitish).
6. Hikoyaning har bir bo'limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, hikoya rejasini tuzish.
7. Hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda).

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. K. Qosimova va boshqalar. “Ona tili o'qitish metodikasi”. T., “Nosir” 2009.
2. Y. Babaniskiy. „Hozirgi zamon umumta'lim maktablarida o'qitish metodlari“. T., „O'qituvchi“ 1990.



## INFORMATIKA FANINI O`QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

**Otajanova Feruza Satimboyevna**

Yangiariq tumani 31-son maktab o`qituvchisi

Telefon: +998 (90) 559 60 08

otajanovaferuza\_31@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalarini o`qitishning zamonaviy yondashuvlari hamda zamonaviy o`quv multimedia majmualari haqida.

**Kalit so`zlar:** Informatika, axborot texnologiyalari, o`quv multimedia majmualari, interaktiv proyeksiyon tizim, kompyuter, interaktiv sensorli displey, simsiz grafik planshet, interaktiv so`rov tizimi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta`lim texnologiyalarning asosiy jarayoni: tashkil etish; hamkorlikda olib borish; takomillashtirish; tahlil qilish; qiyoslash; umumlashtirish; xulosa chiqarish; boshqarish; nazorat etish; baholash kabilarni o`z ichiga oladi.

Dars jarayonini samaradorligini oshirish uchun: darslarda interfaol elektron didaktik vositalar, multimedia ilovalar, audio vizual elektron darsliklar, imitatsion o`quv vositalar, online muloqatlar va boshqalardan foydalanish katta samara beradi. O`quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy innovatsion va axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari sifatida zamonaviy o`quv multimedia majmualari (O`MM) bilan ta`minlangan o`quv xonalari bo`lib, u quyidagi rasmda keltirilgan. Zamonaviy innovatsion o`quv multimedia majmua QOMO HiteVision qurilmasi bazasida yaratilgan bo`lib, uning tarkibiga ultra qisqa fokusli QOMO interaktiv doska ham kiradi. O`qituvchi stol-seyfiga audio-video qurilma, jumladan sensor terminalli boshqarishga mo`ljallangan hujjat o`quvchi kamera, interaktiv planshet, taqdimot ko`rsatuvchi kompter o`rnatilgan.

Zamonaviy innovatsion O`MM maktab sinflari yoki ta`lim muassasalari o`quv auditoriyalarini jihozlash uchun mo`ljallangan. Zamonaviy innovatsion O`MMning bosh maqsadi - o`quv jarayoni samaradorligi va maqbulligini keskin oshirishdan iborat. Zamonaviy innovatsion O`MM quyidagi funksional elementlardan tashkil topadi:

- interaktiv proyeksiyon tizim (multimediali proyektor i interaktiv doska);
- o`qituvchi kompyuteri;
- universal stoll hujjat-kamera;
- interaktiv sensorli displey;
- simsiz grafik planshet;
- interaktiv so`rov tizimi;
- videomateriallarni ko`rsatadigan ovoz beradigan tizim;
- Flash-karta;
- sensor terminalni boshqarishga mo`ljallangan integrallangan tizim;
- maxsus stol-seyf.

O`quv multimedia majmuani yuklash va o`chirishda ON/OFF tugmasidan foydalaniladi.

Majmuaning elementlari shunday tuzilganki, uning qo`shimcha komutatorning funksional xizmatiga ehtiyoji yo`q. O`MMda ishlash va uni boshqarish o`qituvchi ishini keskin yengilashuviga olib keladi. O`MMni boshqaruv sensorli terminal yordamida amalga oshiriladi.

Boshqaruv tizimining SmartControl® interfeys tizimi orqali kompyuterdan, kameradan, noutbuk yoki DVD/VHS-pleerdan interaktiv doskaga ma`lumot chiqarish mumkin. Bu o`z navbatida o`qituvchi ishini keskin osonlashtiradi va o`qituvchiga O`MMni boshqaruv haqida bilimga ega bo`lmasdan, uni qo`shimcha o`rganishsiz boshqaruv imkoniyatini yaratadi.

O`MM asosida o`quv jarayonini tashkil etish:

- O`quvchilarda o`qishga qiziqishni orttirishi;
- Ta`limning interaktiv xususiyati asosida o`quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi;
- O`quv materiallarini o`zlashtirilishining samaradorligini oshishi;
- Real holatlarda namoyish qilinishi qiyin, yoxud murakkab bo`lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini berishi;
- O`quv materiallarining o`zlashtirilishi nafaqat darajasiga ko`ra, balki o`quvchilar erishgan



mantiq va qabul qilishlari darajasiga ko`ra ham samarali bo`lishini ta`minlashi;

- O`quv-metodik ta`minotining samarali integratsiyasini ta`minlashi;

- O`quvchilarga mustaqil izlanish yo`li bilan materiallarni topish, o`rganish hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma`lum iqtidorini amalga oshirish ko`nikmalarini shakllantirishi;

Axborot hamda ma`lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllanishi uchun sharoit yaratishi kabi didaktik vazifalarni amalga oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayev. Masofali o`qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. -T.: “Fan”, 2009. -145 bet.



## YOSHLAR ONGI VA RUHIYATIGA MILLIY G’OYANI SINGDIRISHDA G’OYAVIY TARBIYANING O’RNI

**Panayeva Gulshan Xudayberganovna**  
Yangiariq tumani 31-son maktab MMIBDO’  
Telefon: +998 (90) 559 60 08  
panayevagulshan\_31@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim-tarbiyaning istiqloq g’oyasini yoshlar ongiga singdirish imkoniyatlari hamda milliy g’oyani yoshlar ongi va ruhiyatiga singdirishda yangi innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish vazifalari yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Tarbiya, ta’lim, ta’lim-tarbiya jarayoni, g’oyaviy ta’lim-tarbiya usullari, milliy tarbiya, g’oyaviy-mafkuraviy tarbiya asoslari, g’oyaviy-mafkuraviy saviya.

Ma’lumki tarbiya o’z mohiyatiga ko’ra, keng va tor ma’nolarda istefoda etiladi hamda ijtimoiy hayotda amal qiladi. Keng ma’noda oladigan bo’lsak, tarbiya ijtimoiy-madaniy tajribalarni aniq maqsadni ko’zlagan holda avloddan-avlodga o’tkazadigan va shaxsning kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan alohida jarayondir.

Tor ma’noda esa, ma’naviy madaniyatni tarbiyalash - yoshlarni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirish yo’lida kattalarning birgalikdagi aniq maqsadga yo’naltirgan faoliyatini, ya’ni etuk shaxsni kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayonini anglatadi.

Ushbu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog’liqdir. Xuddi shuning uchun ham yoshlar ma’naviy madaniyatini shakllantirishning samarali tashkiliy va pedagogik uslublari, vositalari ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishi zarur. Milliy ta’lim-tarbiya tizimining turli shakl va vositalari milliy g’oyani ro’yobga chiqarish, barkamol avlodni shakllantirishdan iborat bosh maqsadga erishishni ta’minlovchi xalqimizning milliy madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlariga va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan bo’lishi lozim. Inson va insoniyat hech qachon tashqi dunyodan o’zini qurshab turgan olamdagi o’zgarishlar, rivojlanishlar, ro’y berayotgan hodisalar, voqealar, jarayonlardan ajralib qolgan, ularni his etmagan holda yashay olmaydi. Dunyodagi davlatlar, xalqlar, millatlar, ijtimoiy-siyosiy kuchlar, ular o’rtasidagi munosabatlar, ayniqsa ijtimoiy jarayonlardagi mafkuraviy ta’sirlar odamlar ongi, tafakuri va dunyoqarashiga ta’sir etmasdan qolmaydi.

XXI asr - innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta’lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko’tarishga yo’naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o’z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg’or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko’p jihatdan bog’liq. Ta’lim samaradorligi o’quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan xolda yangi o’qitish uslublari, shakllari ta’lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Navqiron avlod davr ruhida ma’naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib bormas ekan, bizning o’z oldimizga qo’ygan ulug’vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurli istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga yetkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir.

Dunyoqarashimizga hamoxang tarzda shakllanib borayotgan amaliy hatti-harakatlarimizda yangiliklar shu qadar ko’pki, ularni oxirgi paytda ijtimoiy innovatsiyalar tushunchasi orqali izohlamodamiz.

Ijtimoiy innovatsiyalar - bu inson aqli va kuchi, ma’naviy dunyosini mutanosibli sharoitida uning mohiyatini saqlash, himoya qilish, takomillashtirish, samaradorligiga erishish yo’llarini ko’rsatuvchi qarashlar majmui bo’lib, u bugungi kunda har birimizning turli tashqi va ichki ma’naviy tazyiqlardan himoyalanihimizning kafolatlarini belgilaydi.

Bolalar doim biror foydali ish bilan band bo’lishini ta’minlash ham katta ahamiyatga ega. Biror ish bilan band bo’lishga o’rgangan yoshlar mehnatsevar bo’ladilar, ularda juda yoshligidanoq ma’lum mehnat malakalari shakllanadi. Bo’sh vaqtlarida, ular o’zlari sevgan ish bilan shug’ullanishga o’rganib qoladilar. Bunday bolalarning jinoyat qilishga yoki nojo’ya ishlar bilan shug’ullanishga



vaqti ham bo'lmaydi.

Shu bois aqlan yetuk, ruhan tetik va sog'lom, erkin va tanqidiy fikrlovchi, ayni paytda, ijtimoiy mas'uliyatni to'g'ri his etadigan, muayyan kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash O'zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning tarkibiy qismiga, asosiy shart-sharoitiga va maqsadiga aylandi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. (darslik) –T.: Akademiya, 2005.
2. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: Akademiya nashriyoti. 2007.



**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA MAKTAB  
O'QUVCHILARIDA ALGORITMIK FIKRLASHNI QOBILIYATINI  
SHAKLLANTIRISH**

**Sattarova Surayyo Beknazarovna**

Xorazm viloyati Urganch shahar

4-sonli maktabning informatika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada algoritmlar, algoritmning tarifi, algoritmlarning bugungi dunyo ilm-fanidagi o'rnini, maktab o'quvchilarida algoritmik fikrlash qobiliyatining rivojlantirishning ahamiyati, uning metodlari va algoritmik fikrlashni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar keltilgan.

**Kalit so'zlar:** informatika, axboroto texnologiyalari, algoritm, ijrochi, chiziqli algoritm, takrorlanuvchi algoritm, takrorlanuvchi algoritm, tsikl, old shartli tsikl, keying shartli tsikl.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga algoritmlarni qurish ko'nikmalarini shakllantirish yordam beradi. Shuning uchun informatika kursiga «Algoritmlash asoslari» bo'limi kiritilgan. Bo'limning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarida algoritmik fikrlash asoslarini shakllantirishdir.

Algoritmik fikrlash qobiliyati deganda kerakli natijaga erishish uchun turli xildagi masalalarni hal qilishning harakatlar rejasini ishlab chiqarib olish qobiliyati tushuniladi.

Maktab o'quvchilarining algoritmik madaniyati deganda, algoritm tushunchasi va uni tasvirlash vositalari bilan bog'liq bo'lgan aniq g'oyalar, ko'nikma va malakalar to'plami tushuniladi.

Demak, algoritm tushunchasi o'quvchilarida axborotni kompyuterda avtomatik qayta ishlash haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning birinchi bosqichidir.

Algoritmlar nafaqat hisoblash masalalarini, balki ko'pgina amaliy muammolarni hal qilishda ham qo'llaniladi.

Algoritmlarni tuzishda talabalar tahlil qilishni, taqqoslashni, harakat rejalarini tavsiflashni, xulosa chiqarishni o'rganadilar; o'z fikrlarini qat'iy mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Asosiy algoritmik tuzilmalarni o'rganishda vazifalarni tanlashda quyidagi jihatlarni hisobga olish zarur:

Uni hal qilishda qanday aqliy operatsiyalar "ishlaydi";

Masalaning qo'yishning o'zi o'quvchilar tafakkurini faollashtirishga yordam beradimi;

Ushbu muammoni hal qilish jarayonida tafakkur rivojlanishining qanday mezonlarini qo'llash mumkin.

Muammoni tahlil qilish jarayonida muhokamani to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish uchun turtki beruvchi savollardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu savollar ochiq xarakterli bo'lishligi kerak va hech qanday "to'g'ri" javobni anglatmasligi kerak. O'quvchilar shaxsiy fikrlash qobiliyatlariga mos ravishda faol va erkin intellektual izlanish olib boradilar.

Algoritmlarni ishlab chiqishda faqat asosiy konstruksiyalardan foydalanish va ularni standart usulda tasvirlash zarur, bu esa algoritm tuzilishini tushunishni osonlashtiradi, o'quvchilar diqqatini muhim bo'lmagan detallarga chalg'ib qolishlarini oldini olgan holda masalani yechish yo'lini topishga qaratadi.

Blok-sxemadan foydalanish bajarilayotgan jarayonning mohiyatini ajratib ko'rsatish, o'quvchilar tomonidan tushuniladigan, yodlab olinadigan va o'quv faoliyatida qo'llaniladigan tarmoqlanish va takrorlanish buyruqlarini aniqlash imkonini beradi.

Bir qator darsliklarda chiziqli algoritmlardan keyin o'rganilgan birinchi konstruksiya tsikldir, chunki bu algoritmning yozuvini qisqartirish imkonini beradi. Tsikl bu qoida tariqasida "n marta takrorlash" konstruksiyasidir. Buday yondashuv tsikllarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi chunki tsikllar chiziqli amllardan sifat jihatidan farq qiladigan, amallarning konstruksiyali tashkilqilingan jamlanmasidir.

Birinchidan, oldingi (while) va keyingi (do while) shartli halqalarning boshqa turlari bir-biridan ajratilgan holda qabul qilinadi va asosiy xususiyat - harakatlarning takrorlanishi - bu vazifani boshqarmaydi.

Ikkinchidan, sikllarni tashkil qilishda zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar e'tiborsiz qoldiriladi: tsiklni davom ettirish yoki tugatish shartini to'g'ri tanlash, tsikl tanasini to'g'ri tashkil qilish. "n marta takrorlash" tsiklidagi shartni tekshirish amalda ko'rinmaydi va tsiklik algoritmi ko'pincha



o'quvchilar tomonidan chiziqli, faqat boshqacha tarzda ishlab chiqilgan deb qabul qilinishda davom etadi, bu esa o'quvchilar uchun umuman tsikllarni idrok etishda noto'g'ri stereotipni keltirib chiqaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Ashurov, N. Mirzaxmedova, N. Xayrullayeva. Algoritmash va dasturlash tillari. Uslubiy qo'llanma. T: “Bayoz”, 2016
2. A. R. Azamatov, B. Boltayev. Algoritmash va dasturlash asoslari. O'quv qo'llanma. T: "Cho'lpon". 2013 y.
3. <http://ziyonet.uz>



## KIMYO FANINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

**Raximova O'g'iljon Kurbanovna**

Urganch shahar 4-son umumta'lim maktabining  
kimyo fani o'qituvchisi.

**Saidova Mo'tabar Rustamovna**

Urganch shahar 11-son umumta'lim maktabining  
kimyo fani o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Maqolada kimyo fanini o'qitishda yangi metodlarning usul va uslubari, o'ziga xos samaradorligi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot, sanoat, texnika va texnologiya, qishloq xo'jaligi, laboratoriya.

Kimyo fani insoniyat taraqqiyotida katta o'rin tutadi. Tibbiyot, qishloq xo'jaligi, yengil sanoat, umuman, barcha sohalar rivojida mazkur fan olamida erishilgan yutuqlar yotadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishdan asosiy maqsad esa o'quvchilarda fan va texnikani o'rganishga qiziqish uyg'otish, pirovardida, intellektual salohiyatli avlodni voyaga yetirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda o'qitish jarayonida ilg'or, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Xususan, mahoratli o'qituvchilar tajribasi asosida o'quv -laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, to'garak ishlari sifatini oshirish davr talabidir.

Kimyo fani ta'limida yuqori samaradorlikka erishish, fan yo'nalishidagi yangiliklarni izlab topish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirib, hozirgi zamon fan va texnikasini o'rganishga intilishlarini o'stirish o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shu bois 2021-2022-o'quv yili oldidan o'tkaziladigan an'anaviy avgust kengashi sho'ba yig'ilishlarida qatnashchilar quyidagilar haqida fikr almashishlari maqsadga muvofiq:

– kimyoga oid nazariy bilimlarni tajribalar orqali isbotlash, sinfar kesimida har bir mavzu asosida keltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazish;

– kimyo darslarida zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish, tugab qolgan kimyoviy moddalar va yaroqsiz holga kelgan jihozlarning o'rnini qayta to'ldirishga buyurtmalar berish tartibi;

– hududlarda tashkil etilgan “Mahorat maktablari” o'qituvchilari tomonidan zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (elektron darsliklar, elektron qo'llanmalar, o'quv filmlar, virtual laboratoriya ishlari va animatsion ko'rgazmali tajribalar, videodars lavhalari), plakatlar to'plamlaridan foydalanib, ko'rgazma-namoyishli darslarni o'tkazish;

– murakkab mavzularni o'rgatish hamda masalalar yechishning turli usullari yuzasidan tavsiyalar berish .

O'quvchilarga davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradigan darajada bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalari usullaridan keng va samarali foydalanish zarurati kundan kunga oshib bormoqda Bu esa har bir o'qituvchidan o'z ustida tinimsiz ishlashini , ta'lim berishning barcha usul va metodlarini muvafaqiyatli o'zlashtirib olishga intilishi kerakligini taqozo etadi.

Dars jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagi metod va usullardan foydalanish mumkin:

1. Bahslar. O'quv guruhni ikki komandaga bo'lgan holda , biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs , fikr almashinuv tarzida o'tkaziladi.

2. O'yinlar. Ishbilarmonlik yoki vaziyatli o'yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'rinda matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat saxnalashtiriladi.

3. Kitob bilan ishlash. Ushbu usul ta'lim oluvchining o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishini o'z-o'zini tekshiruv malakalarini , berilgan matnning mazmunini to'liq va ongli ravishda bayon etishga qaratilgan usuldir.

4. Individual (amaliy) usul. Ta'lim oluvchining faoliyatida olingan bilimlarini amaliy vazifani yechishga qaratadilar. Bu usul nazariy olingan bilimlarni amaliyotda tatbiq qilishdir.



5. Davra suhbatlari. Ta'lim oluvchilar davra stolid o'tirib, bir-birlarining savollariga konvert orqali javob yozadilar.

“Aqliy hujum”, “muammoli vaziyat”, bahs-munozara, tadqiqot, davra suhbatlari, kichik guruhlarda ishlash, ajurli arra, kitob bilan ishlash usullari bunga misol bo'ladi. Yuqoridagi ta'lim vositalari o'qituvchi uchun o'quvchi uchun hamda dars o'tkazish uchun alohida variantlarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi uchun vositalar: o'quv predmetini o'qitish metodikasi bo'yicha

qo'llanmalar, shaxsiy metodika murakkab masalalar bo'yicha metodik tavsiyalar, o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan metodik ishlanmalar. Aqliy hujum qiyin vaziyatlardan qutilish choralarini topishga, muammoni ko'rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo'qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik faoliyatiga o'tadi va guruhi yanada ahillashadi. Qo'llash maqsadiga ko'ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilarda (yangi muammoni yechishga imkon yaratadi). O'qitish jarayonida (o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi) rivojlantirishda (o'z-o'zini birmuncha samarali boshqarishda asosida faol fikrlash shakllantiriladi) asqotadi.

**Alkanlar mavzusini o'qitishda aqliy hujum usuli.** Aqliy hujum usulini organik kimyo kursida qo'llash biroz keyingi mavzularda mos keladi, chunki o'quvchilar organik birikmalar to'g'risidagi dastlabki tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Shunday bo'lsada uni soddaroq o'yinlar ko'rinishida tashkil qilish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Kimyo metodikasi .TDPU 2011
2. Kimyo va biologiya texnologiyalari metodlari2 SAMDU 2006
3. 10 sinf Organik kimyo fani 2019



## ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Radjapova Sevara Vladimirovna,  
Xudayberganova Nargiza Ro’zimboyevna**  
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi  
23-maktabning boshlang’ich sinf o’qituvchilari  
Tel:97-988-82-88//radjapovasevara/@mail.com

**Annotatsiya:** Maqolada pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta’lim texnologiyalari va ulardan foydalanish haqida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** texnologiya, metod, modulli o’qitish texnologiyasi, innovatsiya

Bugungi kun ta’limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o’quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo’llarini o’rgatish, ta’lim jarayonida ilg’or pedagogik texnologiya usullarini samarali qo’llashdan iborat. Interfaol usullaridan foydalanish o’quvchilarda mantiqiy, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirib, guruhlarda va hamkorlikda ishlashga o’rgatadi. Dars jarayonida ta’limiy o’yinlarni samarali qo’llash orqali o’quvchilarda tezkorlik, topqirlik, sezgirlik rivojlanib, bilim olishga va fanga bo’lgan qiziqishlari yanada oshadi. Ta’lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o’quvchini mustaqil fikrlay oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Xususan, yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng qulay va serunumini tanlay olish ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiyalarning o’rni benihoya kattadir.

Pedagogik nuqtai nazardan texnologiya bu shaxsni o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o’zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta’minlaydigan pedagogik faoliyatdir. “Texnologiya” tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta’sir etish kuchiga ega bo’lib, erkin ijod qilishga undaydi. Oddiy qilib aytadigan bo’lsak, ilg’or pedagogik texnologiya deganimizda o’qituvchi bir soatlik darsda o’zining mahoratini, san’atini qo’llab, har xil usul va metodlardan foydalanib dars o’tishi davomida butun sinf o’quvchilarini faollashtirib, barcha o’quvchilarni darsga qatnashtirib, darsda faol ishllovchisi o’quvchi darajasiga erishishni tushunish kerak. Xullas, pedagogik texnologiya-o’qitish usuli, ma’lum ma’noda ta’lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuidir. O’quvchining bilish va ijodiy faoliyatini amalga oshirish uchun o’quv jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanilish kerak, bu texnologiyalar o’z navbatida ta’lim sifatining oshirilishi imkonini beradi.

Ta’lim jarayonida qo’llaniladigan innovatsion ta’lim texnologiyalarini quyidagi ko’rinishda tavsiflash mumkin:

1. Muammoli o’qitish texnologiyasi – bunda o’quv faoliyati davomida muammoli vaziyat tashkil qilinish, o’quvchilar ushbu muammoli vaziyatni hal qilishga faol tarzda jalb qilinadi, natijada esa o’quvchilar tomonidan BKM larning o’zlashtirilishi amalga oshiriladi, ularda tafakkurlash qobiliyati rivojlantiriladi.

2. Axborot–kommunikatsion texnologiyalari – bunda ta’lim tizimi tarkibining cheklanmagan tarzda boyitilishi va o’zgartirilishi amalga oshirilib, integratsion kurslardan foydalanish, internet tarmog’iga kirishni amalga oshirish, o’qitishning interfaol usullari, masofaviy o’qitishning qo’llanilishi kabilar ro’yobga oshiriladi.

3. O’qitishning loyihalash texnologiyasi. Ushbu texnologiya bo’yicha ish olib boorish orqali o’quvchilarda individual ijodiy qobiliyatlar rivojlantiriladi, ularda ongli ravishdagi kasb tanlash va ijtimoiy jihatdan o’zligini anglash kuchaytiriladi.

4. O’yinli ta’lim texnologiyasi. Bu texnologiya rolli, ishchan va boshqa o’yinlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu texnologiya o’quvchilarda dunyoqarashning kengaytirilishi, bilishga oid faoliyat rivojlantirilishi, amaliy faoliyatda kerak bo’lgan ma’lum bir aniq ko’nikma va malakalarning shakllantirilishi, shuningdek, o’quv ko’nikmalari va malakalarini rivojlantirish imkonini beradi.

5. Salomatlikni saqlashga qaratilgan texnologiyalar. Ushbu texnologiyadan foydalanish dars vaqtida turli xil topshiriqlarning bir tekisda taqsimlanishi, tafakkurlash faoliyatining jismoniy tarbiyaga asoslangan minutlar bilan ketma–ketlikda tashkil qilish, murakkab tarzda o’quv materiallarining berilish vaqtini aniqlash, mustaqil ishlarni amalga oshirish vaqtlarini



ajratish, ta'limga oid texnologiyalardan foydalanish me'yorlariga amal qilish kabilardan tashkil topgan bo'lib, ushbu texnologiya ta'limda ijobiy natijalar berishi qayd qilinadi.

6. Modulli o'qitish texnologiyasi esa ta'limning individuallashtirilishini ta'minlaydi: ya'ni, bunda o'qitish tarkibi bo'yicha, o'zlashtirish tempi bo'yicha, mustaqillik darajasi bo'yicha, o'qitish usullari va uslubiyati bo'yicha, nazorat va o'z – o'zini nazorat qilish bo'yicha individuallashtirish amalga oshiriladi. Ushbu ko'rinishda, hozirgi vaqtda ko'p sonda ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, bu holat optimal hisoblanganini tanlab olish maqsadlarida ushbu innovatsiyalarning nazariy jihatdan umumlashtirilishi, tahlil qilinishi va tasniflanishi talabini yuzaga keltiradi. Shundan kelib chiqib, ta'limda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuqori natijaga erishishning garovidir.

Xususan, darslarda “Topqirlar bellashuvi”, “Ijodkorlik vaqti”, “Mo'jizalar maydoni”, “Test darslari”, “Aqliy hujum”, “Kubik”, “Donishmandlar bisoti”, “Klaster”, “Axborot uzatish” kabi usullardan foydalanish fanni yanada chuqurroq o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu usullardan foydalanish o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi va faolligini oshiradi.

“Axborot uzatish” texnologiyasi. Biror mavzu bo'yicha har bir o'quvchi o'z bilganini aytadi. Oxirida o'qituvchi yakunlaydi va xulosalaydi.

“Kubik” texnologiyasi. Har tomonlama fikrlash, tasavvur qilish va faollikni oshiradi. Zukkolik va chaqqonlikni talab qiladi. Bunda kubik shakli avvaldan tayyorlab olinadi va ularga mavzu yuzasidan savollar yoziladi. O'quvchi kubikni qaysi tomonidagi savol tushsa, shunga chaqqonlik bilan javob beradi. Shunday qilib, innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'quv jarayonidagi ahamiyati katta. Umuman olganda, har bir pedagogik texnologiya darsdan kutiladigan natijaning qanday bo'lishi haqida oldindan tasavvur eta olish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida darsning samarali o'tishiga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev J., “Ilg'or pedagogik texnologiya”. – Toshkent, Fan-2004
2. Hamidov A. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent-2004.
3. Ziyonet.uz, eduportal.



## О‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI

**Rajabov Osqor Bahrom o‘g‘li**

Xorazm viloyati Urganch tumani 43-sonli maktabning  
Fizika fani o‘qituvchisi  
Tel: +998995283916

**Jumaniyazova Sevara Muhammadovna**

Xorazm viloyati Urganch tuman 43-sonli maktabning  
matematika fani o‘qituvchisi  
Tel: +998937532946

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quv jarayonini tashkil etish tarixi va bugungi kundagi holati, rivojlanish bosqichlari, interfaol darslarni tashkil qilish bosqichlari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘quv jarayoni, bosqich, dars, ta’lim, shakl, maktab, metod,

Ta’lim muassasalari oldida turgan vazifalarning ijobiy hal etilishi mashg‘ulot (ta’lim jarayoni) mazmuni, ta’lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim shakli, metodlari va vositalari o‘quvchilarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, ularda chuqur bilim va dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim shakli o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma’lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatlarining tashqi ifodasidir.

Qadim zamonlardan o‘qitishni tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan shakllarini topishga uringanlar. O‘qitishni tashkil etish shaklining paydo bo‘lishi insoniyat jamiyatining rivojlanishi bilan birga amalga oshgan. O‘quv jarayonini tashkil etishning eng qadimiy shakli - balki yakalashtirilgan o‘qitish bo‘lsa kerak. O‘qitishning keyingi bosqichi - yakalashtirilgan-guruhiy o‘qitish usuli bo‘lgan. XVII asr boshlarida o‘quv jarayonini tashkil etishning bunday shakli jamiyat talabiga javob bera olmay qolgan va guruhiy o‘qitishning dastlabki kurtaklari paydo bo‘lib, keyinchalik ular sinf-dars tizimining asosi bo‘lib xizmat qilgan. Odatda, sinf-dars tizimini ishlab chiqish va joriy qilinishini Y.A.Komenskiy nomi bilan bog‘laydilar. O‘qitishni tashkil etishning bunday shakliga quyidagilar xosdir:

- mashg‘ulotning asosiy birligi darsdan iborat;
- sinfda o‘quvchilar yoshlariga ko‘ra birlashtiradilar;
- maktabda o‘qitishning davri;
- mashg‘ulotlar barcha uchun majburiy;
- to‘liq yil uchun mashg‘ulot, tanaffus va ta’til jadvallari mavjud;
- sinfdagi barcha o‘quvchilarning ishini yagona reja asosida, bir mavzu bo‘yicha amalga oshiriladi;
- o‘quv jarayoniga o‘qituvchi rahbarlik qiladi.

**Interfaol dars bosqichlari.** Interfaol darsning vaqtlar bo‘yicha bosqichlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1-bosqich. Motivatsiya va yangi mavzuni e’lon qilish - dars umumiy davomiyligining 10 foizi;
- 2-bosqich. Avvalgi darsda o‘tilgan materiallarni mustahkamlash (takrorlash) - dars umumiy davomiyligining 20 foizi;
- 3-bosqich. Yangi materialni o‘rganish - dars umumiy davomiyligining 50 foizi;
- 4-bosqich. Boholash - dars umumiy davomiyligining 10 foizi;
- 5-bosqich. Darsga yakun yasash (debrifing 80, refleksiya 81) - dars umumiy davomiyligining 10 foizi. Albatta, ushbu dars tuzilishidagi vaqtlar taqsimotini shartli qabul qilish mumkin. Darsning o‘ziga xos xususiyatlari (mavzu, foydalanilayotgan metod, qo‘llanilayotgan texnologiya, o‘qitish davri, darsning turi va boshqalar)ga va o‘qituvchining ixtiyoriga ko‘ra, u yoki bu bosqich vaqtlari qisqarishi yoki uzayishi mumkin. Lekin, darsda yuqoridagi bosqichlarining barchasida foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Interfaol darsning sifatli bosqichlari.**

**Motivatsiya** – darsning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, o‘quvchilarning diqqatini o‘rganilayotgan materialga qaratish, ularni qiziqtirish, materialning zarurligi va foydaligini ko‘rsatishga mo‘ljallangan. O‘quv materiallarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish samaradorligi ko‘p jihatdan motivatsiyaga bog‘liq.



**Mustahkamlash** – materialni o‘quvchilar tomonidan nafaqat butunlay o‘zlashtirish va qiziqtirishni ko‘taradigan, balki ularning ongida ushbu predmetda qo‘llanilayotgan bilim va metodlarning ketma-ket mantiqiy tuzilishini shakllantiradigan darsning muhim bosqichidir.

**Yangi materialni o‘rganish** – darsning bosh maqsadli bosqichi bo‘lib, unda o‘quvchilar yangi bilimlar oladilar. Ushbu bosqichda asosiy e‘tiborni o‘quvchilar bajarish mobaynida zaruriy bilim, ko‘nikma va malaka olishlariga imkon beradigan vazifalar tanlanishiga qaratish kerak. Vazifalarni tanlashda bundan 3500 yil avval buyuk Xitoy mutaffakiri Konfutsiy tomonidan aytilgan «*Eshitamam va esdan chiqaraman, ko‘raman va xotiraga olaman, bajaraman va tushunaman*» degan dono gaplarini yodda tutmoqlik lozim.

**Baholash** – o‘quvchilarni bilim olishlarini rag‘batlantiradigan darsning muhim bosqichidir. Baholash egiluvchan, ochiq, xolis va haqqoniy bo‘lgandagina, rag‘batlantiruvchi bo‘lishi mumkin, aks holda, o‘quvchilarni o‘rganayotgan fanidan bezishlari va unga qiziqishlarini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun, darsning ushbu bosqichida ehtiyotkorona ish tutilishi lozim. Bu bosqichda jamoaviy, o‘z-o‘zini, guruhlardagi va shu kabi baholashlarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Interfaol darslarda – ballarni to‘plash va jamoaviy baholash yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

**Debrifing** –tajribada qatnashayotgan subyektga tajriba maqsadlarini ma‘lum qilish va agar, zarurat bo‘lsa, yolg‘on yoki tadqiqotga zarar keltiradigan elementlarni qo‘llamasliklari haqida axborot.

**Refleksiya** (lot. Reflexio - orqaga murojaat) - inson diqqatini o‘ziga va o‘zining shaxsiy faolligiga qaratish, shuningdek ularni qandaydir qayta tushunish.

Darsning yakuniy bosqichida darsda o‘tilgan materiallardan o‘quvchilarga nimalari ma‘qul bo‘lgani, nimalar yoqmaganligi so‘raladi va mos takliflar yig‘iladi, o‘tilgan materiallar umumlashtiriladi hamda kundalik turmush bilan bog‘lanadi, bu bilan o‘quvchilarni keyingi materiallarni mustaqil ravishda chuqurroq o‘rganishga yo‘naltiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N.T.Omonov va boshqalar. ”Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”.
2. Dars muqaddas tavsiyasi.
3. Internet va OAV xabarlari.



## KITOB VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

**Ravshanova Gavhar**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Kutubxonachilik fakulteti 3-kurs talabasi

**Qahramonov Aliboy Yolgoshevich**

F.f.n, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kitob o'qishning ahamiyati, uning odam sog'ligi va ruhiyatiga ta'siri haqida, shuningdek kitob o'qishning biz bilgan va bilmagan xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kitob, asar, kitobxonlik, ta'lim, tarbiya, tafakkur, aql, muvaffaqiyat.

Kitob musibatli damda yordamga keluvchi do'st, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi ustoz, baxtiyor kunlarimizning asl sababchisi. Kitob o'qigan kam bo'lmaydi. Niholning o'sishi, gullashi uchun suv naqadar zarur bo'lsa, kishining kamol topishi uchun kitob shu qadar zarurdir. Kitobxonlik - ta'lim-tarbiyaning asosiy bo'g'ini, o'qish - hayotning eng buyuk falsafasi, muvaffaqiyatlar kalitidir.

O'tmishda ota-bobolarimiz ilmga tashna, kitobga mehr qo'ygan xalq hisoblangan. Tarixdan bizga ma'lumki, Sohibqiron bobomiz Amir Temur qaysi davlatni ishg'ol qilsa, o'sha davlatning kutubxonasi bilan tanishgan. O'ziga yoqqan kitoblarni hamisha yonida olib yurgan, bo'sh vaqti bo'ldiki, kitob mutolaa qilgan. Tib ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino podshohning qizini davolab oyoqqa turg'izgani evaziga saroy kutubxonasidan foydalanishni so'ragan. Shu kabi tarixiy voqealar xalqimizning azaldan bilimga tashna, kitobga ixlosmandligidan darak beradi.

Ba'zi xorijiy davlatlarning ham kitobxonlikni targ'ib qilishga qaratilgan qator odatlari bor. Masalan, odamlar kitob yoki gazeta-jurnalni o'qib bo'lgach, xiyobondami, bekatdami o'rindiqqa qo'yib ketadi. Uning o'rniga o'tirgan boshqa odam o'sha nashrni bexijolat o'qiyveradi. Misol uchun, Aleksandr Dyumaning “Uch mushketyor” romani ham Parij bulvarlarida o'qilgan, tashlab ketilgan kitoblar ko'rinishida dunyoga kelgan. Shu bilan birga, Boku shahridagi dengiz bo'yida dam olishga borsangiz, agar o'rindiqlar bekor o'tirganlar bilan band bo'lsa, nazoratchilar “Iltimos, kitob o'qiyotganlarga joy bering”, degan eslatmani yodingizga solib qo'yishadi. Xitoyda ham hukumat tomonidan maxsus gazeta va kitoblar o'qiladigan kichik kutubxonalar tashkil etilgan. Istirohat bog'lari, tarixiy-madaniy yodgorliklar, ko'ngilochar maskanlarda odamlar (asosan o'rta va keksa avlod vakillari) mutolaa qiladi. Xullas, taraqqiyotni ko'zlagan davlat yoki tashkilot borki, xalqini, xodimlarini kitobga oshno etishning turli yo'lu usullarini izlayotir.

Odamsod paydo bo'libdiki ilm olish va yangilik yaratishga intilib kelgan. Avval toshlarga, so'ngra turli terilar va qog'ozga o'rganganlarini muhrlagan.

Alisher Navoiy «Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai», deya ta'kidlagan bo'lsa, Amir Temur «Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir», deya uqtirgan.

Kitob o'qish inson uchun muvaffaqiyat va saodat eshiklarini ochuvchi kalitdir. Ilm izlash, kitob, gazeta va jurnallarni mutolaa qilish kishining dunyoqarashini kengaytiradi, o'ziga xos lazzat bag'ishlaydi. O'zgaralar oldida sohibining ilmiy, madaniy va axloqiy saviyasini yuqoriga ko'tarib qo'yadi. Zero, ko'p o'qigan, bilimdon insonning umuman o'qimagan yoki kam o'qiydiganlardan har sohada imkoniyat doirasi kengroq bo'ladi. Misol uchun ikkita tilni bilgan odam bitta tilni bilgan odamdan ikki baravar ko'proq imkoniyatga ega. Uchta tilni biladigan odamning esa ikkita tilni biluvchi odamdan imkoniyat doirasi kattaroq bo'ladi va hokazo. Bunday inson o'zga yurtga borganda ham qiynalmaydi. Bu narsa ilmga oid hamma sohaga taalluqlidir. Bugungi yoki kechagi olimlar, yozuvchiyu shoirlar va ziyoli kishilar o'z vaqtida ko'p va xo'p kitob mutolaaa qilganliklari tufayli shu darajaga erishganlar.

Ko'p kitob o'qigan odam tafakkur doirasi boshqalarnikidan ajralib turadi;

olamni, hayot haqiqatini, yaxshi-yomonni teranroq anglaydi. Quyida kitob o'qishning biz bilgan va bilmagan xususiyatlari bilan tanishib o'tamiz.

**1. O'qish yangi va noyob fikrlar tug'ilishiga yordam beradi.** Mutolaa bizni fikrlashga chorlaydi. Ba'zan, orzularimiz ham biz o'qigan, xursand qilgan kitob bilan bog'liq bo'ladi. Shun-



ingdek, mutolaa bizning dunyoqarashimizni boyitadi. Inson o‘qish orqali yangi fikrlar va yorqin g‘oyalar oladi. Inson o‘zi bilmagan holda ilhomlanib o‘qishi, yangi va o‘zgacha fikrlar yuzaga kelishiga turtki beradi.

**2. O‘qish inson fikrini jamlaydi va diqqat markazini oshiradi.** Mutolaa jarayonida, o‘qigan hikoya va asarga butun diqqat-e‘tibor qaratiladi. Inson boshqa ishlardan ko‘ra kitobga ko‘proq diqqat qiladi. Inson miyasi bir vaqtning o‘zida turli faoliyatlar bilan shug‘ullana olmaydi. Shu sababli ko‘p o‘qigan odamning diqqatini bir joyga to‘plash ancha oson kechadi.

**3. O‘qish tasavvurni oshiradi.** Biz o‘zimizga notanish bo‘lgan joylar haqida o‘qiganimizda, idrokimiz tasavvurlarimiz ishga tushib tasvirlarni miyamizda yarata boshlaydi va shu orqali xotiramizda tasvirlar saqlanib boradi. Binobarin, idrokimizning tasavvur qilishi va yaratuvchanligi kitob o‘qish orqali mustahkamlanib boradi.

**4. O‘qish chet tilini o‘rganishni osonlashtiradi.** Doimiy ravishda kitob o‘qish boshqa tillarni o‘rganishda yangi so‘zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi. Xorijiy tilni o‘rganayotgan kishi o‘sha tilning adabiyotlarini muntazam o‘qishi orqali o‘sha tilni qisqa fursatda o‘zlashtirishi mumkinligi olimlar tomonidan isbotlangan.

**5. Birgalikda kitob o‘qish** ota-onalar va bolalarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Inson o‘z farzandini kitob mutolaasiga o‘rgatar ekan, avvalo o‘zi ham bu ishda o‘rnak bo‘lishi kerak. Psixologlar birgalikda kitob o‘qish jarayonida ota-onalar va bolalar o‘rtasida o‘ziga xos munosabat o‘rnatiladi deb hisoblashadi. Ularning aytishlaricha, bunday munosabat birgalikda televizor ko‘rganda aslo paydo bo‘lmasligini ta’kidlashmoqda.

**6. O‘qish sizni zukkolikka yetaklaydi.** Kitoblar manbalar va yangi bilimlarning haqiqiy xazinasidir. Shuningdek, ular hozirgi paytdagi turli xildagi o‘quv kurslari ta’limidan ancha arzon hisoblanadi. Qanchalik ko‘p kitob o‘qigani sari insonning zukkoligi va teran fikrlash qobiliyati shunchalik oshib boradi. Shu bilan birga, inson turli mavzularda qanchalik ko‘p kitob o‘qisa, o‘z bilimini oshirishi bilan bir qatorda, o‘zaro muloqot qilish san’atini ham yaxshi egallaydi.

**7. O‘qish miya faoliyatini mustahkamlaydi.** Inson odatda o‘qigan kitobi to‘g‘risida o‘ylashi uchun vaqti ko‘p bo‘ladi. Emori universiteti olimlari kitob o‘qigan insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo‘lishini isbotlashdi. Tadqiqot mualliflari kitob o‘qish miyadagi asab tolalarini mustahkamlashini ta’kidlashmoqda.

**8. O‘qish til mahoratimizni yaxshilaydi.** Xorijiy tilda biror adabiyotni o‘qish dastlab katta harakat talab etadi, lekin bu bizning so‘z boyligimiz oshishiga xizmat qiladi. Boshqa tilni tushinishda ba’zan uning turli qismlarini tarjima qilishga ehtiyoj seziladi va ular lug‘atdan qidiriladi. Kitob o‘qish nafaqat so‘z boyligini balki umumiy savodxonlikni ham oshiradi. Qaysi tilda o‘qishdan qat’iy nazar, mutolaa orqali gapning konteksti qay tarzda yasalishini o‘rganish mumkin bo‘ladi.

**9. O‘qish stressni kamaytiradi.** Inson kitob mutolaa qilar ekan, o‘sha paytda uni hech qanday topshiriq yoki xavotir o‘ylantirmas ekan. Kitob mutolaa qilishda biz ko‘pincha o‘zimizga qulay usulda joylashib olamiz. Tanamiz umuman birorta maxsus harakatni amalga oshirmaydi va dam oladi. Nafas olish sekinlashadi va tinchlanamiz. Biz o‘zimizni dunyoda sodir bo‘layotgan hodisalar tasviri so‘zlar orqali kitobda aks etganini tasavvur eta boshlaymiz. Bularning barchasiga sabab mutolaa stressni kamaytirishidir.

**10. O‘qish bizning so‘z boyligimizni oshirishga xizmat qiladi.** Tadqiqotlarga qaraganda, kitob mutolaasi bilan shug‘ullanuvchilarning so‘z boyligi boshqa insonlarga nisbatan yuqori bo‘lishi isbotlangan va shu sababli ular boshqalarga aytishni xohlagan so‘z ifodalarini juda ham osonlik bilan ifodalab beradilar. Qisqa qilib aytganda, qancha ko‘p o‘qisangiz shuncha ko‘p so‘z boyligiga ega bo‘lasiz. Shuningdek, kitoblar shubhasiz bilimlar xazinasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.edu.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.natlib.uz
4. www.ziyouz.com



## AN'ANAVIY TA'LIM VA MASOFAVIY TA'LIMNING IMKONIYATLARI

Allanazarova Mamura Axmedovna

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Ixtisoslashtirilgan Filiali,  
Umumta'lim fanlari kafedrası o'qituvchisi  
m.akhmedovna@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqola orqali onlayn ta'limning an'anaviy ta'limga nisbatan foydali jihatlari va an'anaviy ta'limning insonning odob-axloqi va ma'naviyatiga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** *virtuallashuv, model, transformatsion, provayder, ta'limning dinamik manzarasi, raqamli iqtisodiyot, kreativ.*

### TRADITIONAL AND DISTANCE EDUCATION'S OPPORTUNITIES

**Abstract.** This article discusses the benefits of online education over traditional education and the impact of traditional education on human morality.

**Key words:** *virtualization, model, transformation, provider, education dynamic landscape, digital economy, creative.*

So'nggi 5 yillikda ko'rib guvohi bo'lyapmiz-ki, ta'lim olish yoki mehnat faoliyatini amalga oshirishda virtuallashuv tobora ommalashib bormoqda. Bog'cha, maktab, kollej-litsey hamda oliy ta'lim muassalari onlayn ta'limni qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim jarayonlarida qulayliklarga ega bo'lmoqda, chunki ular o'z uylarida juda oson ta'lim olishlari yoki ta'lim berishlari mumkin. Shunidek, onlayn ta'limda talabalar uyda yoki ular uchun eng qulay bo'lgan boshqa joyda ham o'qish imkoniyatiga ega bo'lishadi va shu orqali o'quv materiallaridan ham onlayn foydalanishlari mumkin. Elektron ta'lim yoki onlayn ta'lim o'qitish va o'rganishga yondashuvimizni o'zgartirmoqda. Ta'lim berish modellaridagi o'zgarishlar tez va transformatsion bo'ldi. Bugungi kunda o'zining to'liq onlayn dasturlari bilan mashhur bo'lgan Feniks universiteti 1989-yilda CompuServe - birinchi onlayn xizmat ko'rsatuvchi provayder hisoblangan [<https://www.britannica.com/topic/University-of-Phoenix>]. Butun dunyo bo'ylab muassasalar ushbu o'zgarishlarga moslashar ekan, ta'limning dinamik manzarasi tadqiqotchilar, o'qituvchilar, siyosatchilar va biznes vakillarida katta qiziqish uyg'otdi. Jamoatchilikning fikriga ko'ra, onlayn ta'lim shunchalik ko'p afzalliklarga egaki, u tez orada an'anaviy ta'limga nisbatan yetakchilikni qo'lga oladi. Yangi texnologiyalarning uyg'unligi, internetning global o'zlashtirilishi va doimiy rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot uchun davriy ravishda tayyorlanayotgan ishchi kuchiga talabning kuchayishi tufayli turli xil rejimlarda onlayn ta'lim butun dunyo bo'ylab barqaror o'sib bormoqda. Onlayn ta'lim 2025-yilga kelib asosiy oqimga aylanadi. Jumladan, hozirgi kunda 6,1 millionga yaqin kollej talabarlari onlayn kurslarda qatnashmoqda va bu raqam har yili qariyb 30 foizga oshib bormoqda [<https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/1097198X.2018.1542262>].

Bill Geytsning so'zlariga ko'ra: “Texnologiya - odamlarning bilim olishini osonlashtiradigan vositadir”. Shunday ekan bugungi kunda talaba va o'quvchilar uchun ta'limning zamonaviy, ta'sirchan va qulay yo'llaridan foydalanib o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi zamon yoshlari eskicha metodlarni o'qishni qo'llab-quvvatlamaydi. Bundan kelib chiqib, yangilik izlash, kreativlikka e'tibor berish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Ammo ko'pchilik an'anaviy o'rganishning qiymati hech qachon kamaymasligiga ishonch bildirishadi. Shubhasiz, yuzma-yuz muloqotdan olingan ta'lim onlayn ta'limga qaraganda foydaliroq ekanini mutaxassislar ta'kidlashgan. Boshqacha qilib aytganda, an'anaviy ta'lim muloqot qobiliyati, do'stlar va murabbiylar bilan sog'lom munosabatlarni rivojlantirish uchun onlayn ta'limga nisbatan muhim ekanligi hayotiy misollar orqali isbotlangan. Misol uchun, Kalkutta universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar an'anaviy mashg'ulotlar orqali yetuk, odobli, tez va yaxshi tushunishga qodir bo'lishlari orqali, ularning



natijalari va ish faoliyatlari yaxshilanishiga erishilgan. Bunday hollarda talabanning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi ko‘proq bo‘ladi. Shuningdek, bu ularning malakasini oshirishga yordam berib, diqqatini o‘qishga qaratishi uchun yetarli imkoniyatga ega bo‘ladi.

**Foydalanilgan internet nashrlari:**

1. [www.britannica.com](http://www.britannica.com)
2. Journal of Global Information Technology Management [www.tandfonline.com](http://www.tandfonline.com)



UMUMTA'LIM FANLARIDAN O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA SAVOL - JAVOB METODLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Sadullayeva Shodiya Qudratbek qizi**

Xorazm viloyati Urganch tumani 43-son maktabning  
Rus tili o'qituvchisi Tel: +998993187090

**Matkarimova Laylo Bazarbayevna**

Xorazm viloyati Urganch tumani 43- son maktabning  
Matematika fani o'qituvchisi Tel: +998990318186

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada savollarning turlari, vazifalari va maqsadlari bayon etilgan. Shuningdek savollarning o'quvchilar bilimini aniqlashdagi roli va ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** savol, dars, tahliliy - tanqidiy fikrlash, fikr, ijodiy savollar, amaliy savollar, aniqlashtiruvchi savollar, qoida, vazifa.

Bugungi kunda mavzuni hamkorlikda o'rganish - o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha mahorat va malakani ketma – ketlik bo'yicha o'qituvchining bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o'qitish va bilim olish faoliyatini ayniqsa savollarga to'g'ri yondosha olish va uni to'g'ri tushuntira olish orqali ifodalasak, ayniqsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilarning og'zaki javob berishi, o'zining fikrini mantiqiy izchillik va ketma-ketlikda tuzish, o'zining g'oyasi va xulosasini mustaqil va mantiqiy himoya qila olish malakasi va ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalarni qisqa muddatda hal qilish va bunda o'quvchilarga yordam berish uchun ularga beriladigan savollarni avval yuqori ilmiy – uslubiy saviyada tuzish, buning uchun ularning turlari va vazifalarini yaxshi bilish kerak bo'ladi.

Savolni to'g'ri qo'yish qoidalari:

- Savollar adabiy til talablariga javob berishi kerak;
- Savol aniq, ravshan, qat'iy holda ifoda qilingan bo'lishi kerak.

Savol bilimlardagi noaniqliklarni yo'qotish hamda aniqroq va to'laroq hosil qilishga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan fikrlash vositasidir. Shuningdek, o'quvchilarga tahliliy – tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda savollarning roli kattadir. Lekin amaliyotda savollarni tuzish va ularni amalda qo'llashda ko'p hollarda kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Shu boisdan ushbu maqolada darslarda savollarning zaruriyati, turlari va vazifalari ochib beriladi.

Savolning vazifasi, albatta, asosan ma'lumotni olish, uning mazmuni va ko'lamini aniqlashdan iboratdir. Savollar an'anaviy shakllardagi nazoratlarda, imtihon va sinovlarda qo'llaniladi.

Javob jarayonida bilim yoki ma'lumotning ko'lamini aniqroq baholash hamda javobning aniqligiga erishish uchun savollar beriladi. “Siz aytganingiz shu matndami?”, “Shundaymi?” “Men xato qilishim mumkin, siz menimcha shunday degan edingizmi? Bu savollar mimikalarsiz, ohista, past ovozda berilishi kerak. “Nima uchun?”, “Nega?”, “Qanday qilib?” kabi savollarni izohlab, unga beriladigan javobning mohiyati, mazmuni tushuntirib berilishiga yordam beradi.

Aniqlashtiruvchi savollar bir vaqtda javob yo'nalishini hamda suhbat mavzusini o'zgartirishda qo'llanishi mumkin. Shuningdek, bunday savollar javob beruvchining fikrini to'laroq ifoda etishga ham yo'llaydi.

Muammoli savollar bu har bir jarayon yoki mavzu mohiyatini tushuntirishda paydo bo'ladigan muammoli vaziyatga bag'ishlangan bo'lib, ular ijodiy savollar deb ham ataladi va o'quvchilarni muammoga ijodiy yondashishga undaydi.

O'quvchilarning javobini baholashda, javobda keltirilgan voqeaning ro'y berish sababi va shart-sharoitlarini aniqlashtirishda javobdagi nuqtayi nazarni anglatuvchi savollar katta rol o'ynaydi.

Savol – javob jarayonida o'quvchining fikrlashini kengaytirish, emotsional holati – his-hayajonini sozlash uchun qaratilgan savollar ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli har bir pedagog o'quvchining bilim saviyasi va psixologik holatini ko'taruvchi, uning fanga qiziqishini oshiruvchi hamda ijodiy faoliyatga yo'llovchi savollar qo'llashi kerak.

Amaliy savollar nazariy bilim bilan amaliyot orasidagi bog'lanishni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Masalan: Hayotning qaysi jabhasida bu ro'y berishi mumkin?

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'quvchilarni mavzu bo'yicha mustaqil savollar tuzishga o'rgatish



juda foydali bo`lib, unda o`quvchilar savol tuzish jarayonida materialni chuqurroq tahlil qiladi. Va tushunib, eslab qolishadi. Savol tuzish ko`nikmasini egallagan har bir o`quvchida turli vaziyatda ham muammo bo`yicha savol topa olish ehtimolligi katta bo`ladi va javobda har bir vaziyatga o`z nuqtayi nazaridan qarab, uni tahlil qiladi. Mustaqil nazorat savollarini tuzish ko`nikmasiga ega bo`lgan o`quvchi tanqidiy fikrlash ko`nikmasiga ham ega bo`ladi.

- Amaldagi ma`lumotlar bilan fikriy baholashlar orasidagi farqni aniqlay oladi;
- Dalillar va qarashlar orasidagi farqlarni tahlil qila oladi;
- Sabab va oqibat aloqadorligini aniqlay oladi;
- Tahlil qilishdagi xatoliklarni ajrata oladi;
- Mavzu va jarayonga aloqasi bo`lmagan fikr va g`oyalarni aniqlay oladi;
- Asoslangan va asoslanmagan fikrlarni ajrata oladi;
- To`plangan ma`lumot asosida xulosasini ifodalay oladi;
- Xulosasining to`g`riligini isbotlay oladi.

Shunday qilib, savollarni to`g`ri tuzish, o`z o`rnida qo`llash, o`quvchilar bilimini baholash, ularda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirishga, ijodiy qobiliyatini to`g`ri yo`naltirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Falsafa. Qomusiy lug`at. –Toshkent: Sharq,2004.
2. Yo`ldoshev R., Xusainova R., Bobojonova U. Ta`limning interfaol metodlari, Urganch-2011.
3. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
4. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## ТА’ЛИМ ВА ТАРБИЯНИ ШАККЛАНТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ

**Mo‘minova Gulchehra Adashovna**  
**Samanova Flora Shuxrat qizi**  
Jo‘rayeva Iroda Ismoilovna  
Zarafshon shahar 4-maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu tavsiyada boshlang‘ich sinflarda ta’lim va tarbiyani shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning roli haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Narvon, zamonaviy texnologiyalar, tarozi, svetafor, argument...

Insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llarini, qonun-qoidalarni izlaganlar. Darhaqiqat, insonni ma’rifatli va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi. Bunda interfaol usullarning ahamiyati katta. Ayniqsa, iqtidorli o‘quvchilar mavzuni oson o‘zlashtirib, darsda bo‘sh qolmasligi uchun o‘qituvchida hamisha qo‘shimcha materiallar bo‘lishi lozim. Quyida shulardan bir nechtasini taqdim etishni joiz topdik.

Biz tavsiya qilayotgan “NARVON” usuli buning yaqqol isbotidir. Ushbu usul darsning maqsadli kechishini ta’minlovchi va uning turli elementlari orasidagi munosabatlarni tavsiflovchi faoliyatlar zanjiridir. Eng asosiysi, o‘quvchilarning yangi mavzuni to‘liq holda o‘zlashtirishlari uchun muhim bir quroldir.

Yangi pedagogik texnologiya asosida yaratilgan “Usul ichida usul”, ya’ni “Narvon” usuli tavsiya qilinadi. Ushbu usul yangi mavzuni o‘zlashtirishda eng qulaydir. Ya’ni har bir o‘quvchi dars davomida yangi mavzuni pog‘onama-pog‘ona o‘zlashtirib boradi. Shu bilan birga, har bir o‘quvchidan ziyraklik va talabchanlik talab etiladi. Natijada ushbu usulda olib borilgan darsda o‘quvchilarda bo‘shliqlar kuzatilmaydi. “Narvon” usuli. Bu usulni darsning texnologik xaritasi ham deyish mumkin. Chunki o‘quvchining dars davomida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari uchun samarali hisoblanadi. Bizga yaxshi ma’lumki, Narvon pastdan yuqoriga chiqiladigan vosita hisoblanadi. Dars davomida har bir pog‘onadan muvaffaqiyatli o‘tgan o‘quvchi yuqoriga chiqqa oladi, ya’ni kutilgan natijaga erishadi.

**“Svetafor” o‘yini.** Bunda o‘quvchilarga ranglar tarqatiladi. Ular mevalarni ranglarga mos joylashtiradi.



«Tarozi» texnologiyasi. Mazkur texnologiya munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o‘rganishda qo‘l keladi. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu texnologiya dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o‘z dalillarini yozma va og‘zaki shaklda ishonchli va lo‘nda ifodalashni shakllantiradi, o‘z nuqtai nazarini himoya qiladi, muxoliflarni ishontiradi, munozara madaniyatiga o‘rgatadi.

«Tarozi» texnologiyasi o‘quv materialini o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanishi mumkin.



Ammo u o'tilgan materiallar bo'yicha xulosa qilish bosqichida yuqori samara va natija beradi, chunki o'qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o'rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi.

Bu texnologiya kichik guruhlarda va jamoalar orasida amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

**Asosiy tushunchalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:**

Mavzu turli nuqtai nazarlarning to'qnashuviga imkoniyat beruvchi hamda ulardan birortasiga ham imtiyoz bermaydigan tasdiqdir. Mavzu shunday tanlanishi kerakki, u o'rganilayotgan mavzuning barcha qirralarini ochishi, o'quvchilarning axborot qidirish hamda izlanuvchanlik faoliyatlarini rag'batlantirsin.

**Argument** – bu o'z nuqtai nazarini tasdiqlashga olib keluvchi asosli dalil, g'oya, mulohazadir. Dalillash anik, mantiqiy, asoslangan bo'lishi, faktlar, sharhlar, mulohazalar, isbotlar, misollar, iqtiboslar, manbalarga, obro'li guvohnomalarga havolalar va boshqalar bilan quvvatlangan bo'lishi kerak.

**Kontrargument (qarshi dalillash)** – bu raqibning dalillarini rad etish bo'lib, u dalillashga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak. To'g'ri tanlangan kontrargument raqibning nuqtai nazarini zaiflashtirishi hamda o'zining himoya yoki rad etish chizig'ini mustahkamlashi lozim.

**Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:**

- o'z shaxsini takomillashtirishga intilish;
- faol hayotiy nuqtai nazarini shakllantirish;
- o'zga fikriga hurmat va toqat qilish;
- jamoada ishlashni eplay olish;
- xushmuomalalik;
- o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish.

K	i	t	o	b	-	o	f	t	o	b
o	k	u	l	a		n	i	o	t	o
p	k	l	m	n		a	l	g`	a	l
t	i	k	a	a				a		a
o		i		n						

Davlatimiz rahbarining ko'rsatmalari va istiqbolli g'oyalaridan kelib chiqib, hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etgan vazifalarimizdandir. Bu ishni bamisoli niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim. Bunda ilk maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchiga ta'lim-tarbiya beradigan boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ko'proq mehnat va mas'uliyat talab etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. X.Teshaboyev. “Interfaol usullari”. T.2009-yil
2. Metodik qo'llanmalar.
3. Ma'naviyat – qalbim quyoshi. Toshkent - 2013



## BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI YANGI PEDAGOGIK VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ASOSLARI

**Shayzakova Tursunoy Ashurovna**

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani

15-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Tel: +99894 582 15 29

**Annotatsiya:** Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada ham boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda pedagogik va innovatsion texnologiyalarning ahamiyati haqida mulohaza qilingan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, interfaol uslublar, pedagog, fan, texnologiya, o'qitish texnologiyasi, dars, ko'nikma, ta'lim-tarbiya, innovatsiya.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Respublikamizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi va “Ta'lim to'g'risidagi qonunga asosan ta'lim berishning umumiy o'rta ta'lim predmeti sifatida o'qitiladigan boshlang'ich ta'lim fanlarining maqsadi umumiy o'rta ta'lim negizida ushbu fanlardan fundamental bilim berishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarning fanlarini innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish va bunda pedagogik texnologiyaning o'rnini aniqlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni loyihalash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'zlashtirib borishni ko'zda tutadi. Respublikamizda ta'lim tarbiyaning mazmun va mohiyatining o'zgarishi o'qituvchi va o'quvchi oldiga yangidan – yangi muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan ta'lim yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonlarda ta'lim texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ta'lim tarbiya jarayonida, jumladan, boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqt o'lchov birligini o'rganish barobarida o'quvchilarning bilim va tahsil olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiriladi, bilish faoliyati faollashtiriladi, ta'lim tarbiya jarayonini yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratadi. Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari ma'suliyatini chuqur his qilgan holda ona tili darslarida matematika darslarida vaqt o'lchov birligini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgansak ko'zlangan maqsadga to'la erishamiz.

Katta mil sanoq bo'yicha nechanchi marta aylanayotganini bilish uchun hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalar)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar, o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bu o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Bu esa, olim va amaliyotchilar tamonidan ishlab chiqilgan, o'quv jarayonini texnologiyalashtirish, ya'ni o'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga har bir o'qituvchi urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltiradi.

O'quv- tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchini kim o'qitayotganini va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq. P e d a g o g i k texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarini asoslashga imkoniyat yaratadi.



Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarning o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonoviy o'qitish uslublari –interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

XXI asrning fan va texnika tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan bir davrda innovatsion texnologiyalar ta'limning barcha sohalariga jadallik bilan kirib bormoqda. Shu sababli, o'rta umum ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan. Bunday innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish o'quv jarayonini jadallashtirish, o'quvchida ilmga qiziqishini oshirish, ular ijodiy faoliyatini o'stirish, bilim berishga differensial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat qilishni yengillashtirish kabi masalalarni hal etishga qaratilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent 1981 yil
2. Yuldashev J.G'.. “Pedagogik texnologiya asoslari”. 2007 yil
3. Tolipov O'.Q. “Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari”. FAN” nashriyoti 2006
4. Mavlonov H., Uluqov N., Boynazarov F., “Pedagogik texnologiya asoslari”. Falsafa va huquq instituti nashriyoti. Toshkent-2007.



**MALAKA AMALIYOTIDA KOLLEJ TA'LIM OLUVCHILARINING MA'NAVIY —  
MA'RIFIY RUHDA TARBIYALASH**

**Turakulova Feruza**

Qo`qon davlat pedagogika instituti  
pedagogika kafedrası katta o`qituvchisi  
Telefon +998903046869

**Abduxalilova Nargiza**

Qo`qon davlat pedagogika instituti  
pedagogika va psixologiya ta`lim to`nalishi talabasi

**ANNOTATSIYA:**

Mazkur maqolada kollej ta`lim oluvchilarning kasbga va mutaxassislikka ega bo`lishlarida ma`naviy-ma`rifiy ishlarni tashkil etilishi va malaka amaliyotida olib boriladigan ma`naviy-ma`rifiy ishlarning mazmuni hamda ishlab chiqilgan tavsiyalar aks etgan.

**KALIT SO`ZLAR:** *kasb, mutaxassislik, ma`naviy, ma`rifat, ta`lim, tarbiya, amaliyot*

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonunning 10-moddasida o`rta professional ta`lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to`lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo`lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta`lim shakllari bo`yicha umumiy o`rta, o`rta maxsus ta`lim hamda boshlang`ich professional ta`lim negizida amalga oshirilishi, kafolatlab qo`yilgan. Kollejlarda ta`lim oluvchilar kasbga va mutaxassislikka ega bo`ladilar, lekin bu bilan cheklanib qolish O`zbekiston sharoitida mintaletimizda kamlik qiladi. Bizning xalqimiz ma`naviyatli-ma`rifatli xalq bo`lganligi bois zo`r kuchli kasbining ustasi bo`lishi bilan birga zo`r tarbiya ko`rgan mutaxassis bo`lishi ham kerak, bu borada ta`lim nazariyasining ta`lim va tarbiya mazmunining uyg`unligi tamoyiliga amal qilish davr talabi hamdir. Bu tamoyil kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo`lib, bunda egallangan bilim va ko`nikmalarni hayotga qo`llay olishga o`rgatiladi, kollejda ta`lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma`naviy jihatdan uyg`unlikda rivojlanishi ta`minlanadi.

Boshlang`ich professional ta`lim negizida amalga oshiriladigan o`rta professional ta`lim darajasini olish uchun o`qiyotgan kollej ta`lim oluvchilarining kasbga va mutaxassislikka ega bo`lishlari bilan birga ularni ma`naviy-ma`rifiy ruxda tarbiyalash o`ta nozik va mas`uliyatli ish ekanligiga malaka amaliyotida ishonch hosil qildim. Kuzatishlar jarayonida, kollej ta`lim oluvchilarining ma`naviy-axloqiy sifatlarining ifodasi bo`lgan ruh yoki aqllarining tez o`sishga moyilgi, taqlid, ta`sirlanish, tormozlanishdan kuchliligi, tez-tez kuchli ruhiy ta`sirlanishlari, o`zlari bilmagan holda zid hatti-harakatlarni sodir etishlari, jiddiy xatolarga ham yo`l qo`yishlari, ta`sirga beriluvchan, ongiga o`z tevarak-atrofidagi voqea va hodisalarni tez singdiruvchanliklari ularning his-tuyg`usidan mustahkam o`rin olib, ichki olamiga ruhiyatiga ta`sir ko`rsatib, kasb egallashlariga bo`lgan qiziqishlarini so`ib borishiga olib kelayotganligini guvohi bo`ldik. Juda ko`p kollej ta`lim oluvchilari o`zlari tanlagan kasblardan norozi bo`lishayotganliklari ular bilan o`tkazilayotgan suhbatlarda ayon bo`lib qolmoqda. Bu salbiy holatlarni yagona yechimi kollej ta`lim oluvchilarning pok, sog`lom bo`lgan ijtimoiy muhitni, sog`lom ruhdan oziqlanib to`g`ri yo`nalish olishini ta`minlash orqali ularni ma`naviy-ma`rifiy ruxda tarbiyalash talab etiladi. Malaka amaliyot jarayonida kollej amaliy psixologi, birlashtirilgan gurux raxbarlari va ko`p yillik tajribaga ega o`qituvchilari va kollej ma`naviy-tarbiyaviy ishlar bo`yicha direktor o`rinbosari bilan bo`lgan suhbatlarda kollej ta`lim oluvchilarning kasbga va mutaxassislikka ega bo`lishlarida ular ongiga ma`naviy-ma`rifiy ruxni singdirish borasida quyidagilarga e`tibor qaratish zarurligi aniqlandi:

- Kollej ta`lim oluvchilarni birlashtirilgan gurux raxbarlari, ish ustalari, kollej ma`muriyati va o`z ota-onalari tomonidan rag`batlantirilib, boshqarilib turilishi natijasida ularda yetishmaydigan shaxsiy muloqot, jamoada yashash va ishlash tajribasi, qiyoslab tahlil qilish malakasini oshirishiga;

- Mahalla har bir kollej ta`lim oluvchilarning oiladagi ma`naviy-axloqiy muhitiga, farzandlar tarbiyasiga, ularning kelajakda egallayotgan kasblariga qiziqib, bu kasbni mahallaning kelajagi ucnun xizmat qilishiga sezilarli ta`sir etishini onglariga singdirilishiga;



- Kollej ta'lim oluvchilarda shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissini anglash, o'z qadr-qimmatani e'zozlashi, sezish va fahmlashga, o'zini anglashi negizida o'zini tarbiyalash istagini tug'ilishiga.

Malakaviyot amaliyot jarayonida kollej ta'lim oluvchilarning ma'naviy-ma'rifiy ruxda tarbiyalash borasida kollej psixologi bilan hamkorlikda quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- ularning yoshi, xohishi, intellektual, ruhiy tayyorgarligini hisobga olish;
- kollej ma'muriyati, ustoz, gurux rahbari, ish ustalar, mahalla va ota-onalar orasida hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- tanlagan kasblarini inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini tushintirishga yordam beruvchi ish tajribalar bilan tanishtirib borish;
- yurtimiz yoshlariga davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlarni, olib borilayotgan davlat siyosatlarini ular ongiga singdirib, dunyoqarashini yuksaltirish maqsadida ham ma'naviy, ham ma'rifiy mazmundagi kitoblar, bukletlar, stendlar, gazeta va jurnallarni o'qishga jalb etish;
- kollej miqyosida anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish va boshqalar. Xulosa qilib aytganda, kollej ta'lim oluvchilarning yuqorida ko'rsatilgan usullar yordamida ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalash orqali kasb va mutaxassisliklarni egallash borasidagi muammolar bartaraf etilishi mumkin. Zero, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni 9-modda. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son
2. Sobirov B.B. Talabalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda innovatsion usullardan foydalanishning pedagogik asoslari. P.f.n. ilmiy daraj. olish uchun yozilgan diss. T.2004-186 b.



## MULTIMEDIA VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

**Xudayberganova Dilmira Otanazarovna**

Xorazm viloyat Urganch tuman

43 - son maktabning

Tasviriy san'at va chizmachilik

fani o'qituvchisi

Tel: +998 93-288-56-01

**Ibadullayeva Qunduz Axmedbayevna**

Xorazm viloyati Urganch tumani

43- son maktabning


Texnologiya fani o'qituvchisi

Tel: +998930902202

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada multimedia turlari, ta'limda multimedia texnologiyalarini qo'llash va multimedia vositalarining bu jarayonidagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** multimedia, afzallik, grafika, tasvir, jadval, animatsiya, matn, samara, harakatchanlik, electron, video, audio.

Multimedia - so'zi lotinchadan olingan bo'lib, “*ma'lumot tashuvchi vosita*” degan ma'noni anglatadi. Multimedia informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida, audio, video, grafika, matn, animatsiya, jadvallar asosida, o'quv materiallarini, o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. Bir so'z bilan aytganda, tasvirli ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:



Multimedia rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

An'anaviy- matn, jadvallar, grafika, diagramma, va boshqalar.

Ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish. Jahon miqyosiga nazar soladigan bo'lsak, kompyuter grafikasi va dizayn juda ham keng darajada rivojlangan. Ularni amalda anchadan buyon qo'llab kelishmoqda. Lekin bu yaratilayotgan barcha dasturlar, roliklar, dizaynlarning asosiy qismi kinofilmlar, multafilmlar, web-saytlar uchun yaratilmoqda.

An'anaviy og'zaki usulda o'tiladigan darslarda, mavzularini to'la yoritib bera olmaslik, ta'lim sohasiga yanada ko'proq e'tibor berish lozimligini e'tirof etadi. Lekin elektron darsliklar ichiga kiritilgan matnli yozuvlar, rasmlardan hozirda grafikaning eng zamonaviy yo'nalishi bo'lgan roliklarning yaratilishi saytlarga va shunga tegishli bo'lgan narsalarga qiziqishni oshiradi. Darslarning multimedia imkoniyatlaridan foydalanib o'tilishi o'qituvchilarga bir qancha qulayliklar tug'diradi. Chunki, shu fanga mavzulastirilgan ovozli dasturlar, rasmi ishlanmalar, prezentatsiyalar, multiplikatsiya ko'rinishida yaratilgan filmlar, animatsiyalar ta'lim oluvchilar uchun qiziqarli va diqqatini o'ziga jalb qiladi va mavzuni yaxshi o'zlashtirilishiga turtki bo'ladi.

Multimedia texnologiyalarining afzalliklari va alohida xususiyatlarini sanab o'tamiz:

- sifati saqlangan holda ekranda tasvirlarni qismlarga ajratish yoki ularni eng qiziq hamda kerakli qismlarini kattalashtirish imkoni mavjud;

- grafiklar, tasvir va rasmlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning ko'rsatgichlarini hisoblash, ilmiy yoki o'rganish maqsadida dasturiy vositalar yordamida ishlov berish imkoniyati;



- axborotdan kalit so'zlarni yoki tasvirni kerakli qismini ma'lumot olish hamda tushuntirish uchun kerakli axborotni ajratib olish imkoniyatlari mavjud;

- statik yoki dinamik tasvirga monand uzluksiz musiqa hamda boshqa audio ta'minotini olib borish imkoniyati;

- grafik va tovush redaktorlari, kartografik axborot va matnlarga ishlov bera oladigan shaxsiy amaliy dasturlar bilan ishlash mumkin.

Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- differentsial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi;

- o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi;

- o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi;

- o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi;

- fan mavzularida animatsiya, grafika, mul'tiplikatsiya, ovoz kabi komp'ter va axborot texnologiyalardan foydalanishi;

- o'quvchi-ta'lim oluvchilarga fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilishi va hokazo.

Shuningdek, multimedia vositalarining amaliy tomoni, ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun ma'lumotlar ba'zasini va animatsion taqdimotlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

Multimedia gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi;

- "inson-kompyuter" interaktiv muloqotning yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: O'zMU 2005
2. Uslubiy qo'llanma "Noshirlik yog'dusi". Toshkent-2015.
3. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A., Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma. - T.: «O'qituvchi», 2004.
4. Maktablarning informatika darsliklari.



## ТА’ЛИМ-TARBIYA JARAYONIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNING AHAMIYATI

**Yeshimbetova Nasiba Adamboyevna**

Xorazm viloyati Urganch tuman 43-son maktab

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Tel: 995563079

**Salayeva Durdona Gayratovna**

Xorazm viloyati Urganch tumani 43- son maktab

jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Tel: 995064185

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabda umumta’lim fanlardan sinfdan tashqari tashkil qilinadigan ishlarning vazifalari va ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** fanlar, tarbiya, pedagogika, bilim, sinfdan tashqari ishlar, vatanparvarlik, qiziqish, tajriba.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg‘ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg‘ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyoxlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o‘tkazish, viktorina va ko‘rgazmalar uyushtirish, tabiat qo‘yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to‘garak ishlari (o‘quvchilarning turli to‘garaklar, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishi, kolleksiya to‘plashi, texnika, musiqa, tasviriy san’at, chizmachilik va mustaqil shug‘ullanishi)ni ko‘rsatish mumkin. O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda va ularni rivojlanishida umumta’lim fanlardan uyushtiriladigan sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati kattadir. Umumta’lim fanlardan sinfdan tashqari ishlar deganda, darsdan tashqari sharoitda, bevosita o‘sha fan o‘qituvchilarining rahbarligida, reja asosida ma’lum maqsadni ko‘zlab, o‘quvchilarning xoxishlarini hisobga olgan holda uyushtiriladigan mashg‘ulot nazarda tutiladi. Sinfdan tashqari ishlarni uyushtirishda o‘quvchilarning ta’lim olishi, tarbiyalanishi va rivojlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu ishlar bir necha tashkiliy tashkil topadi.

Ushbu fanlar sinfdan tashqari ishlarining maqsadini belgilashda quyidagilar hisobga olinadi: o‘quvchilarning bilim darajasi (tabiiy fanlarni o‘qitishda laboratoriya ishlarining o‘rni va roli, laboratoriya jihozlari va ular bilan ishlash; maktab darsliklarida berilgan laboratoriya ishlarini bajarishdagi muammolar; virtual laboratoriya ishlari; namoyishli tajribalar va unga qo‘yiladigan didaktik talablar); o‘quvchilarning bilishga qiziqishi; o‘quvchining o‘quv mehnat faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyatlari; aqliy taraqqiyot darajasi; shaxs sifatida shakllanish darajasi; kasbga yo‘naltirish.

Sinfdan tashqari ishlarning maqsadlaridan kelib chiqqan holda vazifalari belgilanadi. Ular sinfdan tashqari ishning mazmuniga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish;
- o‘quvchilarni umumiy ta’lim olish yo‘nalishini rivojlantirish;
- o‘quvchilarning umumtexnikaviy rivojlanishini ta’minlash;
- o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish;
- o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- kasbga yo‘naltirish vazifasi.

Bu didaktik vazifalarga mos holda, sinfdan tashqari ishlar tashkil etiladi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlarining mazmunini tanlash muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari barcha fanlardan hali chuqur va mustahkam bilimga ega emasligini, mustaqil ishlash qobiliyati ham yetarli shakllanmaganligi hamda ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari ishlarning mavzusi va mazmunini tanlashda uning ilmiyligiga emas, balki uning amaliyligiga asosiy e’tibor qaratish kerak. O‘quvchilarni



mehnatga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining vazifalaridan biridir. Bu masalani hal etishda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati muhimdir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar davomida uyushtiriladigan tajriba va kuzatishlar umumiy mehnat va amaliy ko'nikmalar hosil qilishda katta imkoniyatga ega. Sinfdan tashqari uyushtiriladigan ishlarning qaysi turi bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchilarda estetik didni rivojlantirish borasida ham o'qituvchi ish olib borishi zarur. Shuningdek, mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni tabiatga, tabiat go'zalligiga muhabbat hissini uyg'otishni ham o'qituvchi yodidan chiqarmasligi kerak.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida ham tabiiy fanlardan uyushtirilgan sinfdan tashqari ishlar katta ahamiyatga ega. Maktablarda tashkil etiladigan hamda o'tkaziladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning umumiy ta'lim va politexnik saviyasini oshirish, ijodiy tashabbuskorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Shuningdek, o'quvchilarning barcha fanlarga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Shunday ekan sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil qilish zarur. Bu esa keyinchalik yoshlarni kasb tanlashlariga, amaliyotda tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalari qo'llay olishga kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.
2. “Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” uslubiy qo'llanma.
3. Niyozov Q. Biologik ta'lim jarayonida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## ТА’ЛИМ ТИЗИМИДАГИ INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI

**Yusupova Nazakat G’ayibnazarovna,  
Atabayeva Chamangul Kurambayevna**  
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi 23-maktabning  
boshlang’ich sinf o’qituvchilari  
Tel:91-932-92-82//yusupovanazakat/@mail.com

**Annotatsiya:** Maqolada dars jarayonida qo’llaniladigan innovatsion ta’lim texnologiyalari va ulardan unumli foydalanish haqida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** kreativlik, tanqidiy fikrlash, mediasavodxonlik, mustaqil fikrlash

Ta’lim tizimidagi innovatsiyaning maqsadi o’quvchilarning eng yuqori natijalarga erishishidan iboratdir. Boshqa turli-tuman o’z-o’zidan paydo bo’ladigan yangiliklardan farqli o’laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o’zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo’la olmaydi. «Innovatsion faoliyatning tuzilishini -ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati tashkil qiladi. Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo’lishi mumkin». Ta’limdagi innovatsiyalar o’quvchilarda XXI asr ko’nikmalari bo’lgan, kreativlik, tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlash, mediasavodxonlik, axborot savodxonligi, yetakchilik va hamkorlikda ishlashni shakllantirishi kerak.

“Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug’ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan bog’liq”. (Shavkat Mirziyoyev.)

Bugungi kunda maktab tizimidagi ta’lim va tarbiya jarayonlari o’rniga ta’lim muassasalari rivojlanishida o’ziga xos yangilik bo’lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Innovatsiya (in—lik, novus—yangi) yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni anglatadi. —Innovatsion ta’lim deganda odatda o’quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta’lim tizimida innovatsiya o’zgarish bilan bevosita bog’liq. Bunday o’zgartirishlar ta’lim tizimining: maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga; pedagogik faoliyatdagi o’ziga xoslik va o’quv-bilish jarayonini tashkilotishga; ta’lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga; o’quv-metodik ta’minotiga; tarbiyaviy ishlar tizimiga; o’quv reja va o’quv dasturlariga; o’quvchi va o’qituvchi faoliyatiga bog’liq.

Innovatsiya -amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo’lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga yo’naltirilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimidir. Bu g’oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo’lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo’lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug’ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo’ladi, shuningdek, umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Innovatsiya-ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo’llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo’lgan oxirgi natijadir. Bugun ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma’qullanmoqda: Faoliyat yo’nalishiga qarab (pedagogikdagi, boshqaruvdagi).

Kiritilgan o’zgarishlar tavsifigako’ra (radikal, modifikatsiya va kombinatsiyalangan) O’zgarishlar ko’lamiga ko’ra (lokal, modulli, tizimli). Kelib chiqish manbaiga ko’ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqi ko’rinishda).

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma’noda ta’lim jarayoniga kirib keladi. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo’ljallanayotgan ta’lim tizimini loyihalash.
3. O’zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O’zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad-o’qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o’z ustida ishlash ko’nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg’ulotlarni o’tkazish malakasini



takomillashtirishdan iborat.«Innovatsion faoliyat o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U o'qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi». O'qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak.Bugungi kunda ta'limdagi eng so'nggi yangiliklar ta'limdagi STEAM yondashuv va xalqaro baholash dasturlari, xususan, o'qish savodxonligiga tayyorlash jarayoni hisoblanadi.Ushbu jarayon, ya'ni ta'limdagi innovatsiyalar 3 bosqichda:1) tayyorgarlik, 2) rejalashtirish 3) joriy etishda amalga oshiriladi.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to'siqlar mavjud. Bularning birinchisi o'qituvchining o'zi ko'nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya'ni o'qituvchilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo'lsa, yana bir sabab yangi va noma'lum narsalar har doim odamlarda cho'chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir.

Xulosa qilib aytganda,darslarda har bir mavzuni axborot kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanib o'tish katta ahamiyatga ega.Davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish bosh maqsad qilib belgilangan.Buning uchun dars jarayonida electron darslik, qo'llanma, dars ishlanma, o'quv film,videodarslar,slydlar va ko'rgazmali materiallar bo'lishi lozim. Dars jarayonida faqat o'tilayotgan mavzuga oid materiallardan – elektron dars ishlanmasi, multimediali vositalar yoki videofilm, o'quv filmlari,didaktik materiallardan foydalanish ta'lim sifati hamda samaradorligini ta'minlaydi. O'quvchi darsni ma'ruza shaklida eshitishdan ko'ra,slydlar orqali ko'rib, ba'zi mashqlarni bevosita kompyuterda bajarsa, o'zlashtirishi osonlashadi.



## O‘YIN BOLA TARBIYASINING MUXIM VOSITASI

**Alimirzaeva Dilafroz Valijon qizi**

Namangan tuman 13-MTT tarbiyachisi.

Tel: 93- 442- 48 - 99

**Annotatsiya:** maqolada o‘yin — maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish eng natijali vositasi haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha, bola tarbiyasi, bolalar o‘yinlari, maktabgacha yosh, o‘yinlar.

O‘yin maktabgacha yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning kelajakdagi o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan. O‘yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa vakillari o‘z o‘yinlarida ovchilik urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Ba’zi hollarda o‘yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Bola o‘z o‘yinida oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi Keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi. O‘yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar o‘yinini bunday tushunish birinchi marta K.D. Ushinskiy tomonidan ta’riflab berilgan edi. U o‘z asarlarida bolalar o‘yining mazmuni ularning hayotdan olgan taassurotlari bilan belgilanib, ular shaxsi shakllanishiga ta’sir etadi, deb yozadi. Bu fikrni P.F. Leegaft ham tasdiqlab, bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks etgiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga

egadir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga ega ekanini olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

1. O‘yin bilan mehnat o‘rtasida to‘g‘ri munosabat o‘rnatish.
2. O‘yinda bolalarning bo‘ljak mehnat ahliga xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

O‘yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, bog‘chaning ta’lim-tarbiya ishida axloqiy, mehnat va estetik tomondan tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. O‘yinda yosh organizmga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi. Hayotiy faollik yaratiladi. Birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. O‘yin ta’lim va mashg‘ulotlar bilan kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, juda katta ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. O‘yinda aks ettirilgan narsani bilib olishga qiziqish uyg‘onadi, ko‘pincha o‘yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrlarini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalar o‘yinlari o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular o‘z mazmuni va tashkil etilishiga ko‘ra, qo‘llaniladigan buyumlarning turlari kelib chiqishiga ko‘ra turlichadir. Bularning barchasi bolalar o‘yinlarini turkumlashtirishni favqulodda noziklashtiradi, biroq o‘yinlarga rahbarlik qilish uchun ularni, albatta, guruhyaash zarur. Pedagogikada o‘yinlarni ikki katta guruhga bo‘lish juda kengtarqalgan ijodiy va qoidali o‘yinlar. Ijodiy o‘yinlarning mazmunini bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar va ularda o‘z taassurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar.

Qoidali o‘yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiritiladi. Mazmuni qoidalarning murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Tayyor qoidali o‘yinlarning katta guruhini xalq o‘yinlari tashkil etadi, ularning ko‘plari avloddan-avlodga o‘tib, bizga etib kelgan O‘yinlarning har ikkala guruhi ham o‘zining xilma-xil ko‘rinishlariga ega. Ijodiy o‘yinlar guruhini syujetli rolli o‘yinlar tashkil etadi. O‘yinlar o‘z mazmuni va qoidalari, tarbiyaviy ta’siriga ko‘ra shartli ravishda didaktik o‘yinlar va musiqiy o‘yinlarga bo‘linadi. Demak, har bir o‘yin o‘ziga xos sifatleri mavjud, biroq ular qator umumiy xususiyatlarga ham ega. O‘yin — bu bola faoliyatining turi. SHunday ekan, bir faoliyatda bo‘lgani kabi unga ham o‘qotar xislatlar: maqsadning mavjudligi, rejali harakatlar, natijaning mavjudi kabilar xosdir. N.K. Krupskaya bolalar rivojlanishiga qarab, uning o‘yinda o‘z oldiga qo‘yadigan maqsadining tabiati ham o‘zgarishini bolalar taqlidi harakatlardan asta-sekin o‘ylangan asosli maqsadlarga o‘tishlarini ko‘rsatib o‘tgan edi. Bola o‘yindagi maqsadiga erishishi uchun o‘ziga sheriklar tanlaydi, zarur o‘yinchoqlarni topadi, o‘yin davomida muayyan harakat va qiliqlar qiladi. Boshqa faoliyat turlarida bo‘lgani singari o‘yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati, uning psixik bilish



jarayonlari, irodasi, hissiyoti va ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi, o'yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o'z bilimlarini qo'llaydi. O'yin o'ziga xos xususiyatga ega. O'yin bolaning shaxsiy tashabbusiga ko'ra vujudga keladigan, o'zining faol ijodiy yo'sindagi, yuksak ta'sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyatdir.

O'yin ertalab nonushtagacha (15—20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg'ulotlar o'rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin o'tkaziladi. Ertalab rolli o'yinlar, qurish-yasash, harakatli o'yinlarni tashkil qilish tavsiya etiladi.

Mashg'ulot o'rtasida harakatli, qoidali o'yinlar ham o'tkazib turiladi. Ochiq havodagi o'yinlarga esa yugurish, otish, sirpanish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar, qoidali o'yinlar (oq terakmi ko'k terak, ona bo'ri kabilar) kiradi.

Kunduzgi uyqudan keyingi o'yinlarga qurilish o'yinlari, ertak bo'yicha sahnalashtiriladigan, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar va h.k. kiradi. Ijodiy o'yinlarga syujetli — rolli o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar, qurish- yasashga doir o'yinlar kiradi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. Xasanboeva O.U va boshqalar. «Maktabgacha ta'lim pedagogika». T., «Ilm ziyo» 2006.



## ЯНГИ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМНИНГ СИФАТ-САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

**Гофурова Мухайё Абитджановна**  
Андижон вилояти Хўжаобод туман  
№ 40-ДИМИнинг она тили ва  
адабиёт фани ўқитувчиси  
Тел: +998905711266  
muhayyoxon1266@gmail.com

**Аннотация.** Ушбу мақолада ўқитиш методлари ва инноватцион усуллар, уларни ўқувчи қалбига сингдириш, ўқитишнинг янги йўлини излаш, тушунтиришнинг осон усулини топиш ва шу усуллар орқали ўқувчиларни билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантириш мақсад қилиб олинган. Замонавий педагогик технология асосида дарсларни ташкил этиш орқали таълимнинг сифат-самарадорлигини ошириш ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, ўқувчиларни янги замонавий педагогик технологиялар асосида ўқитиш ва ўзлаштириш вазифалари, ўқитувчининг билим ва маҳоратини доимий равишда бойитиб боришга боғлиқ эканлиги очиқ берилган.

**Калит сўзлар:** метод, инноватция, анъанавий дарс, билим, маҳорат, запуск, афтофокус, педагогик технология, сифат.

**Annotation.** This article aims to define new educational methods and innovative ways, search new ways of teaching, find out explaining. Modern pedagogical technologies of organizing lessons and improving quality of lessons are defined. Moreover, it is also identified that teaching learners in new pedagogical technologies is connected with teacher's skills and continuous development of teacher.

**Key words:** method, innovation, traditional, lesson, knowledge, skill, pedagogical technologies, quality.

Ўқувчи ёшларга таълим ва тарбия беришнинг энг мураккаб вазифаси бу сифатли билим бериш, албатта бу ўқитувчининг касб маҳоратига, санъатига, истеъдоди ва маданиятига боғлиқдир. Таълим самарадорлигини оширишда инновацион таълим технологияларидан кенг фойдаланиш узлуксиз таълим тизимининг олдида турган энг муҳим ва долзарб вазифалардан бири – бу ўқитишда замонавий технологиялардан кенг фойдаланиб, уларни ўқув жараёнига тадбиқ этиш ва жаҳон стандартлари талабларига билимли, уддабурон, тадбиркор, рақобатбардош мутахассис кадрлар тайёрлаш, шу билан бирга комил инсонни шакллантиришдан иборатдир. Бугунги кунда мустақил фикрлайдиган, замонавий илм - фан ва касб - ҳунарларни пухта эгаллайдиган, ўз юрти, ўз халқига фидойи, ҳар томонлама соғлом авлодни тарбиялаш ва таълим бериш биз устозлар зиммасида. Бунинг учун ҳар бир педагог юксак билим, улкан маҳорат, замонавий илм-фаннинг ютуқларидан хабардор бўлиши, хорижий тилларни пухта эгаллаши, компьютер технологияларидан, интернет тармоқларидан мақсадли фойдаланиш кўникмаларига эга бўлиши талаб қилинмоқда.

Бунда, албатта, бир нарсани унутмаслигимиз керак келажагимиз пойдевори билим даргоҳларида яратилади, фарзандларимизнинг бугун қандай таълим ва тарбия олиши биз устозларга боғлиқ. Бунинг учун биз ўз устимизда тинимсиз изланиб, юқори самарадорликка эришиш учун ўқитишнинг ноанъанавий методларидан, яъни замонавий педагогик технологияларнинг турли методларидан дарс мавзусига мос равишда фойдаланиб, дарс ўтишимиз керак. Бунинг учун ўқитувчи аввало ҳар бир дарсга ижодий ёндашиши, дарс жараёнида кўзда тутилган барча босқичларни эркин амалда ошириши лозим.

Ҳар бир дарс ўқув-тарбия жараёнининг асосий шакли ҳисобланади. Шунинг учун ўқитувчи ҳар бир ўқувчини яқиндан билиш, ўқувчидаги ўзгаришларни сезиш, ўқувчилар жамоасига тўғри таъсир эта олиш учун замонавий педагогик технологиялар асосида дарсларни ташкил этиш муҳим. Замонавий дарсларда янги педагогик технологиялар орқали дарс давомида кўшимча маълумотлар асосий мавзунини қамраб олиши керак.

Мақабларда шу вақтгача қўлланилган ўқитиш методлари хилма-хил бўлиб, энг кенг кўп тарқалган ва қўлланиладиган турлари анъанавий дарс ўтиш методларидир. Бунда асосан суҳбат, ўқув мавзусини оғзаки баён қилиш, дарслик ва китоб билан мустақил ишлаш,



демонстрация, иллюстрация (тасвирлаш, расмлар билан кўрсатиш), экскурсия, оғзаки ва ёзма машқ ҳамда график ишлар, амалий машғулотлардан фойдаланиб келинмоқда. Келинг, энди бироз методларимизни ўзгартирсак дамон билан ҳамнафас бўлиб, дарсларимизни янада кизиқарлироқ ва тушунишга осонроқ йўллар билан ўтсак. Бунинг учун аввал ўқитувчининг самарали фаолият кўрсатишга ундовчи дарснинг методик ишланмасини пухта ишлаб чиқишимиз ва кутилган натижага эришишимиз лозим. Таълимнинг самарадорлигини ошириш ва билимларни тўла эгаллашларига эришиш, ўқувчининг таълим диққат марказида бўлиши, ўз соҳасидаги билимларни мустаҳкам эгаллаши, замонавий педагогик технологияларни ва интерфаол усуллар билан курулганиши муҳим. Ушбу вазифаларни муваффақиятли ҳал этилиши таълим-тарбия жараёнида замонавий педагогик технологиялардан фойдаланишни тақазо этади. Дарс жараёнида ўқувчиларни эркин рақобат асосида фаолиятни ташкил этиш, ахборот технологиялар, электрон дарсликлар, мультимедиалардан фойдаланиш зарур. Бу эса ўқувчиларни эркин фикрлашни, олган билимларини таҳлил қилишни, истикболда касбий маҳорат орттириш, ўз нуқтаи назарларини асослаш имконияти, янги ахборотни ўзлаштириш ва ўзлаштирилган билимларни ўзлари томонидан баҳолашга қодир зарур қарорлар қабул қилиш, уларнинг ички эҳтиёжига айланиб қолади. Дарс жараёнларида энг оммавий замонавий педагогик технологиялар қўлланишда Буюк Британия, Япониянинг ўқитиш техникалари асосида дарсларни ташкиллаштириш йўлга қўйиш мақсадида турли методларни тавсия қилмоқчиман.

Дарсни фаоллаштирувчи воситалар, самарали дарс ўтиш техникалари, ўқувчилар қобилиятини тартибга солиш ва самарага эришиш, дарс муҳитини яхшилаш учун куйидаги методлардан фойдаланиш дарс сифатини юқори даражага олиб чиқади. “Запуск” технологияси, “Афтофокус” методи (ўқувчиларни хушёрликка чақиради), “Сукрот” методи, “Каизен” методи (кичик-кичик ўзгаришлар орқали мунтазам ривожланишга интилиш), “Саёҳат” методи (ўқувчилар учун динамик ва мотивацион муҳит яратилади), “Парето” қонуни, “ВАРК” модели, “Визуал” таълим услуги (расмлар, жадваллар, графиклар, тақдимотлар орқали ўрганилади), “Эшитиш орқали ўрганиш” услуги (маърузалар ва аудио китобларни тинглаш), “Кам вақт сарфлаб, кўп нарса ўрганиш” усули, “ЗД” методи, “Сновбалл” техникаси, “Сетлкастен” методи, “Жигсав” методи, “Блиц-сўров”, “Муносабат”, “Конференция”, “Илмий-фантастик китоблар устида ишлаш”, “Ўйлаб топ”, “Бумеранг”, “Дамино”, “БББ”, “ФСМУ”, “Интеграция” ва б.

Бугунги кунда таълим тизимида чуқур билимларни эгаллашда замонавий инновацион таълим технологиялари жуда яхши самара бермоқда. Бунда ўқувчилар эркин фикрлаш билан бирга ўз фикрини асослаб бериш, ўзгалар фикрини тинглай олиш, муаммолар ечимини топиш ва ҳаётга тадбиқ этишни асослаб беришга ҳаракат қилмоқда.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ишмухаммедов Р.Ж. «Инновацион таълим технологиялари». Т-2008.й
2. Беспалько В.П. Педагогика. 1989 й.
3. Ғофурова Муҳайё «Она тили ва адабиёт дарсларини янги педагогик усуллар асосида ўтиш» Н-2018 й.
4. «Креатив педагог» ўқув-қўлланмаси 2020 й.



## МУҲАНДИС-ҚУРУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Мамурова Феруза Исломовна

Тошкент давлат транспорт университети

**Аннотация.** Касбий компетентлик- мутахассис томонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур булган билим, куникма ва малакаларнинг эгалланиши ва уларни амалда юкори даражада куллай олинишидир. Касбий компетентлик мутахассис томонидан алохида билим, малакаларнинг эгалланишини эмас, балки хар бир мустакил йуналиш буйича интегротив билимлар ва харакатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутлади.

